

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN BA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT
VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI**

SHAHNOZA AYXODJAYEVA

O‘ZBEK MUSIQASI

(XALQ MUSIQA IJODIYOTI)

**(Oliy maxsus musiqa o‘quv yurtlari talabalari uchun)
60211500 - Cholg‘u ijrochiligi (turlari bo‘yicha)
Xalq cholg‘ulari uchun
DARSLIK**

**«Musiq» nashriyoti
TOSHKENT—2023**

784.4(=512.133)

A 38

85.315(5Ў)я7

A 38

UO‘K 784.4(=512.133)

ББК 85.315(5Ў)я7

Mas‘ul muharrir: Ch.E.Ergasheva O‘zbek musiqasi tarixi kafedrası mudiri, san‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Taqrizchilar: I.A.Ganiyeva O‘zbek musiqasi tarixi kafedrası professor v.b., san‘atshunoslik fanlari nomzodi

I.M.Mirtolipova: B.Zokirov nomidagi milliy estrada san‘ati instituti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, san‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Mazkur darslik asrlar davomida o‘zbek xalqi bilan yonma-yon yashab kelayotgan hamda tarixi, e‘tiqodi, madaniyat va ma‘naviyat sohalari, shu jumladan badiiy ijodiyot shakllari ko‘p jihatdan o‘zaro mushtarak bo‘lgan tojik, turkman, qozoq, qirg‘iz, uyg‘ur, qoraqalpoq xalqlarining musiqa merosi haqida talabalarga bilim berishga qaratilgan. Unda asosiy rivojlanish bosqichlariga tafsilot berilgan holda, musiqa hayotiga taalluqli manba va ma‘lumotlar, shuningdek musiqiy cholg‘ular va musiqa janrlari, ilmiy-nazariy meros masalalari, shuningdek musiqa san‘ati ravnaqiga ulkan hissa qo‘shgan atoqli namoyandalarning ijodiy faoliyati ko‘rib chiqiladi.

Ushbu darslik oliy maxsus musiqa o‘quv yurtlari talabalari uchun mo‘ljallangan.

ISBN 978-9910-9767-1-1 © Sh. I. Ayxodjayeva

Учебник призван познакомить учащихся с музыкальным наследием таджикского, туркменского, казахского, кыргызского, уйгурского, каракалпакского народов веками живущих бок о бок с узбекским народом и разделяющих историю, веру, культуру и духовность, в том числе формы художественного творчества. Подробно освещаются основные этапы развития, источники и сведения, связанные с музыкальной деятельностью, а также музыкальных инструментов и музыкальных жанров, вопросы научно-теоретического наследия, а также творческой деятельности известных деятелей, внесших большой вклад в развития музыкального искусства. Учебник предназначен для студентов высших специальных музыкальных вузов.

The text-book is designed to acquaint students with the musical heritage of the Tajik, Turkmen, Kazakh, Kyrgyz, Uighur, Karakalpak peoples who have lived side by side with the Uzbek people for centuries and share history, faith, culture and spirituality, including forms of artistic creativity. The main stages of development, sources and information related to musical activity, as well as musical instruments and musical genres, issues of scientific and theoretical heritage, as well as the creative activity of famous figures who have made a great contribution to the development of musical art, are covered in detail. This text-book is intended for the students of higher specialized musical establishments.

MUALLIFDAN

"Xalq musiqa ijodi" o'quv fanining asosiy maqsadi - asrlar osha o'zbek xalqi bilan yonma-yon yashab kelayotgan hamda tarixi, e'tiqodlari, madaniyat va ma'naviyat sohalari, shu jumladan badiiy ijodiyot shakllari ko'p jihatdan o'zaro yaqin bo'lgan tojik, turkman, qozoq, qirg'iz, uyg'ur, qoraqalpoq xalqlarining musiqa merosi haqida talabalarga bilim berishdan iborat. Ushbu fan mavzularini o'zlashtirish jarayonida talabalar Markaziy Osiyo xalqlarining har biri o'zgacha bo'lgan musiqiy an'ana va o'ziga xos uslublari bilan tanishib chiqadilar. Mazkur fan "Musiqiy etnografiya", "Etnomusiqashunoslik asoslari", "Folklor amaliyoti", "O'zbek an'anaviy musiqa asoslari" kabi maxsus musiqa fanlari bilan aloqador bo'lib, talabalarning an'anaviy musiqa haqidagi umumiy tushuncha va tassavurlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Dasturdan o'rin olgan mavzular bosqichma-bosqich, muayyan izchillikda bayon etilib, talabalar Markaziy Osiyo xalqlari an'anaviy musiqa shakllari bilan tarixiy-nazariy va amaliy mashg'ulotlar jarayonida bevosita tanishib boradilar. Bunda ularga har bir xalq madaniyatining tarixi, milliy musiqa sozlari va cholg'u kuylari, qo'shiq va ashulachiligi, kasbiy musiqa janrlari hamda ustoz-san'atkorlar ijodiy merosi to'g'risida ma'lumot beriladi. Shuningdek, ular an'anaviy musiqa ijodining yuzaga kelishi, uning turli davrlarda yangilanishi, mazkur jarayonga asos bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma'naviy omillarning o'zgarib borishi haqidagi bilim va ko'nikmaga ega bo'ladilar.

Ta'kidlash joizki, fan mavzu va masalalarining murakkablik darajasi talabalarning o'z ustida muntazam ishlashini, mustaqil ravishda tegishli ilmiy adabiyotlarni o'qib o'zlashtirib borishini taqozo etadi.

O'quv jarayoni muallim ma'ruzalarini hamda musiqa namunalarini tinglash, muayyan mavzular bo'yicha seminar darslariga tayyorgarlik ko'rish, shuningdek musiqa namuna va shakllarini mustaqil tarzda o'zlashtirish kabi ko'rinishlarda o'tadi. "Xalq musiqa ijodi" fani bo'yicha mashg'ulotlar yakuniy reyting nazorati o'tkazish bilan tugatiladi. Bunda talabalar qozoq, qirg'iz, turkman, tojik, uyg'ur, qoraqalpoq milliy musiqa sozlari va cholg'u

kuylari, qo'shiq va ashulachiligi, kasbiy musiqa san'ati janrlari haqidagi umumiy ma'lumotlar, musiqiy folkloristika fani tarixini, Markaziy Osiyo xalqlari musiqa cholg'ularini bilishdek bilim va ko'nikmalarga ega bo'lganliklarini namoyish etishlari zarur.

KIRISH

Markaziy Osiyo xalqlarining musiqa merosi juda boy va qadimiy tarixga ega. Ularning an'analari bugungi kunda ham o'z badiiy va estetik qiymatini saqlab kelmoqda. An'ana uzoq o'tmish bilan yangi zamon musiqa madaniyatini bog'lab turish bilan birga uni yanada ilhomlantiruvchi quvvat, qudratli omil ekanligi haqida ko'p olimlar o'z asarlarida ta'kidlaganlari ma'lum. Hozirgi davrda musiqa merosidan, xalq kuy va qo'shiqlaridan ilhomlanib, undan zamonaviy musiqaning turli jabhalarida foydalanilmoqda. Bu o'rinda an'anaviy yo'nalishdan tortib, ommaviy estrada, kuy va qo'shiq, simfonik musiqa, opera, balet janrlarining yangicha yo'nalishlarda rivojlanish jarayonlarini e'tiborga olish joizdir.

An'anaviy musiqa ijodiga nisbatan bir nechta o'zaro bog'liq atama va tushunchalar qo'llanilmoqda: "Musiqiy folklor", "Xalq musiqa ijodi", "Milliy musiqa an'analari", "Musika merosi", "Mumtoz milliy musiqa", "Ustozona musiqa" va boshqalar. Har bir tushuncha an'anaviy musiqa ijodining ma'lum xususiyatlarini aks ettiradi.

"Xalq musiqa ijodi" atamasi xalq urf-odatlarini, turli marosim va bayramlari bilan bog'liqligini, ularni turli sharoitlar ta'sirida yuzaga kelganligini aks ettiradi. "Musika merosi" tushunchasi an'anaviy ijodning tarixiy ildizlarga egaligi, asrlar davomida rivojlanib kelayotganligi va u orqali xalqlarning ma'naviy qadriyatlari saqlanib kelinishi belgilanadi. "Ustozona musiqa" atamasi yordamida og'zaki musiqa namunalari avloddan-avlodga o'tish yo'llari, ustoz-shogird an'anasini orqali saqlanayotganligi ko'rsatiladi. "Mumtoz musiqa an'analari" tushunchasida milliy musiqa qamrovida qaror topgan mukammal namunalar, asrlar davomida sayqallangan musiqa asarlari, shuningdek ularning negizini tashkil qilgan ijodiy qonunlar nazarda tutiladi.

Ta'kidlash joizki, ba'zi atamalarining mazmuni keng bo'lib, turlicha talqin etiladi. Masalan, "Musiqiy folklor" atamasi Yevropada (XIX asr) paydo bo'lgan. "Folklor" (folklore) - inglizcha so'z bo'lib, ikki so'z birikmasidan hosil bo'lgan: "folk" - xalq va "lor" - bilim; ya'ni "folklor" atamasi "xalq haqida ta'limot" degan ma'noni anglatadi. Mazkur atama XIX asr Yevropa olimlari

tomonidan "Oddiy xalq an'analari", "Xalq urf-odatlari" ma'nosida tushunilgan. Folklor namunalari jonli og'zaki ijro sharoitida yaratiladi, tarqaladi, rivojlanadi. "Xalq musiqasi" va "Musiqiy folklor" tushunchalari o'zaro ma'nodoshdir.

O'zbek musiqashunosligida an'anaviy musiqa asrlar davomida ikki asosiy yo'nalishlarda rivojlanganligi ta'kidlanadi: folklor (xalq ijodi) va kasbiy darajadagi musiqa. Shuning natijasida har ikki sohani o'rganuvchi turli fan tarmoqlari yuzaga kelgan. O'zbek musiqa merosining ikki qatlami ham bizga qadar og'zaki tarzda, ya'ni nota yozuvlarisiz yetib kelgan bo'lib, ushbu qatlamlar bir-biriga doimo bog'liq holda rivojlangan. Folklor, an'anaviy kasbiy musiqa uchun ilhom manbai bo'lsa, o'z navbatida maqom yo'llari asosida ko'plab xalq kuy va qo'shiqlari yaratilgan.

Xalq ijodiyoti va kasbiy darajadagi musiqaning o'zaro umumiy qirralari bolishi bilan bir qatorda farqli tomonlari ham mavjud. Folklor - jamoaviy ijod. Mehnat va marosim qo'shiqlarida yoki yor-yor va o'lanlarda ijrochi, tinglovchi, kuy yaratuvchini ajratish qiyin. Xalq ijodiyoti namunalari kuy shakllarini soddaligi bilan ajralib tursa, og'zaki an'anadagi kasbiy musiqa namunalari esa o'zining murakkabligi bilan farqlanadi. Bu borada yetakchi janrlar hisoblangan maqom, muqomlar bir ovozli musiqaning yuksak ko'rinishi hisoblanadi. Murakkab shakldagi musiqa namunalarini yuqori saviyada ijro etish puxta bilim, tajriba va mahorat talab qiladi. Bu kabi asarlarni idroklash ham ma'lum darajadagi tayyorgarlikni talab etadi.

Musiqiy folklor namunalarining aksariyati odatda mehnat va turmush sharoitlaridan kelib chiqqan holda yaralib, hayotiy jarayondan olinadi.

Ustozona musiqa marosim va turmush voqeliklariga bog'liq bo'lmagan holda, mustaqil badiiy va estetik ahamiyatga ega. Shu bois kasbiy musiqa namunalarining aksariyatini turli sharoitlarda ijro etish mumkin.

Kasbiy musiqa qatlamiga tegishli asarlar ustozdan-shogirdga, avloddan-avlodga o'tib kelgan. Shu sababdan mazkur musiqa namunalariga nisbatan og'zaki an'anadagi kasbiy musiqa iborasi qo'llaniladi.

An'anaviy kasbiy ijrochilik madaniyatining juda ham rivojlanganligi tufayli uzoq o'tmishda mutaxassis ashulachi va cholg'uchilarga nisbatan kuchli talablar qo'yilgan. Odatda, shogirdlar ustoz bilan o'tkaziladigan ko'p yillik mashg'ulotlardan keyingina kasbiy darajadagi ijrochi bo'la oladilar. O'zining qobiliyati, mahorati bilan ustoz san'atkor e'tiboriga tushgan yosh ijrochi xuddi shu ustozga shogird tutinib, ko'p yillar davomida (7-10 yil) ijrochilik san'atini o'zlashtiradi. U ustozlar huzurida imtixonidan o'tgachgina, ijrochi mutaxassis hisoblanishi mumkin edi.

Kasbiy darajadagi ashulachi va cholg'uchilarni tayyorlash usullari ma'lum darajada folklor janrlarining yirik ijrochilari (halfa, yallachi, sozanda, anshi, kuysi va jirshi)ni tarbiyalashda ham qo'llanilgan.

Ayrim kasb egalari, masalan, dorbozlar va turli tomoshalarning vakillari cholg'uchilar (surnaychi, karnaychi, nog'orachi va doirachi) bilan maxsus ijodiy guruhlar tuzib, ularni tajribali musiqachi boshqargan.

O'z davrida mashhur xonanda va sozandalar amir saroyiga jalb etilganlar. Saroy musiqachilari xalq ommasi oldida ruxsatsiz chiqib musiqa ijro etishlari mumkin bo'lmagan. Og'zaki an'anadagi kasbiy musiqaning rivojlanishi ilm-fan taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda ilmiy-nazariy negizlari o'tmishdan ishlanib kelingan. Ustozona musiqaning nazariy asoslari Forobiy, Ibn Sino, Urmaviy, Marog'iy, Kavkabi, Jomiy kabi buyuk olimlarning risolalarida bayon etilgan. SHarq musiqa ilmining yutuqlari kasbiy musiqaning rivojlanishida tayanch bo'lib xizmat qilmoqda.

Zamonaviy musiqashunoslik sohasida ham bu borada chuqur izlanishlar olib borilmoqda.

1-MAVZU

MARKAZIY OSIYO XALQLARI MUSIQA IJODINI TO‘PLASH VA O‘RGANISH TARIXIDAN

Reja:

1. Musiqa merosini to‘plash va o‘rganish tarixi
2. Musiqa merosining ikki qatlamga ajralishi
3. Musiqa merosining targ‘ibotchilari xususida
4. Amalga oshirilgan dastlabki ishlar

Adabiyotlar:

1. *Вызго Т. Музыкальные инструменты Средней Азии. - М., 1980.*
2. *Гафурбеков Т. Творческие ресурсы национальной монодии и их преломление в узбекской советской музыке. - Ташкент, 1987.*
3. *В. Успенский, В. Беляев. Туркменская музыка. М., 1928.*
4. *Кароматов Ф. Узбекская инструментальная музыка: Наследие. - Ташкент, 1972.*
5. *Мухамбетова А. Традиционная инструментальная культура казахов в условиях города // Народная музыка СССР и современность. - М., 1982.*
6. *Назарматов Д. Оркестр народных инструментов им. К. Орозова. - Фрунзе, 1977.*
7. *Народные музыкальные инструменты и инструментальная музыка: Сб. статей и материалов. / Ред.-сост. И. Мацеевский. - М., 1987.*

"Xalq musiqa ijodi" namunalarini to‘plash va o‘rganish madaniyat tarixining eng dolzarb masalalaridan biridir. Qo‘shiq xalqning ma‘naviy hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning ichki kechinmalari, maishiy hayotini aks ettiradi. Merosni o‘rganib chiqmasdan yangi musiqiy madaniyatni yaratish mumkin emas", deb yozadi V.A.Uspenskiy ¹.

1. История узбекской советской музыки. Том I. - Т., 1972.



O'zbek musiqa merosining ikki qatlamga ajratilishi natijasida har ikki sohani o'rganuvchi turli fan tarmoqlari paydo bo'ldi. Ularning aksariyati musiqiy folklorni tadqiq etishni maqsad qilgan. XX asrga qadar og'zaki tarzda yetib kelgan musiqiy meros namunalarini o'rganish, ilmiy tadqiq etish masalalari yuzaga chiqdi. Birinchi navbatda merosni to'plash, nota yozuviga tushirish, nashr ettirish zarurati paydo bo'ldi. Chunki, mavjud yozma yodgorliklar oz bo'lib, ularning aksariyat qismi o'rta asrlar davri kasbiy musiqasiga tegishlidir. Musiqiy folklorga oid manbalar juda kam. Shunday manbalardan biri - Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asaridir. Asarda pand-nasihat, mehnat mavzularida she'rlar keltiriladi.

Markaziy Osiyoda musiqiy merosni notaga tushirish ishlari XIX asrning ikkinchi yarmida boshlangan. Bu ishni boshlab berganlar A.Eyxgorn va F.Leysekdir.

A.F.Eyxgorn sayohat davrida mahalliy tilni bilmasa-da, she'riy

matnlarni ham yozib olishga harakat qilgan. Mazkur jarayonda u qo'shiqning kelib chiqish tarixi, tarqalgan joylari, ijodkorlarning nomlari va tarjimai holini so'rab-surishtirdi. Ishga bu tarzda yondoshilganligi A.F.Eyxgorn faoliyatiga alohida qiziqish uyg'otadi va uning uslubining ijobiy tomonlarini belgilab beradi.

A.F.Eyxgorn nafaqat o'zbek, balki qirg'iz va qozoq xalqlarining qo'shiqlari, cholg'u kuylarini ham to'plagan. Aynan Eyxgorn mazkur xalqlarning folklor materiallarini to'plovchisi hisoblanadi. Undan avval faqatgina Лёвшиннинг "Описание киргизо-казахских или киргизо-кайсацских орд и степей" nomli ishida qozoq xalqining ikkita cholg'u kuyi berilgan edi xolos (1832 yil). A.F.Eyxgorn qozoq va Qirg'iz xalqlari musiqasining nazariy masalalariga ham katta e'tibor bergan. Shu bilan birga A.Eyxgorn Markaziy Osiyo xalqlari musiqa cholg'ularini yig'ish, kolleksiya tuzish ishlarida ham faollik ko'rsatgan. U o'ttiz oltita cholg'udan iborat majmuani to'plashga muyassar bo'lib, ularning har biriga yozma ta'rif bergan.

Chexiyalik harbiy kapelmeyster va kompozitor Frantishek Vatslav Leysek 1878-1935 yillari O'zbekistonda yashab, milliy kuy-qo'shiqlarni to'plash borasida ancha ishlarni bajaradi. F.Leysek Markaziy Osiyo xalqlari musiqasining 200 ga yaqin namunalarini to'plab, uni Rossiya ko'rgazmasiga taqdim etganligi ma'lum.

O'zbek musiqa merosini to'plash va yozib borish ishlari XX asrda izchil amalga oshirib borildi. 1919 yili Turkiston Respublikasi Xalq Maorif Kommisariyatining San'at bo'limi huzurida tashkil etilgan Badiiy-Etnografik komissiyasi keng ko'lamli faoliyat olib bordi. Komissiya a'zolari - G'.Zafariy, V.Uspenskiy, N.Mironov Markaziy Osiyo xalqlari musiqa ijodini atroflicha o'rganishni, to'plab, nashr etishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ydilar. Bu borada bajarilgan yirik ishlardan biri - O'zbek va tojik xalqlarining musiqa yodgorligi bo'lmish "Shashmaqom" turkumini yozish jarayonidir. 1923 yili V.A.Uspenskiy Buxoroga borib, maqomchi ustozlardan hofiz Ota Jalol Nosir, tanburchi Ota G'iyos Abdug'anilar ijrosida "Shashmaqom" turkumini yozib oldi. Mexanik yozuv uskunasi bo'lmaganligi sababli, yozib olish jarayoni ancha qiyinchiliklar bilan faqat tanbur ijrosida tinglash

orqali yozib olingan. Maqomlarga xos bo'lgan ko'pgina qirralar (bezaklar) yozuvda aks ettirilmagan. Lekin shunga qaramay bajarilgan ish V.M.Belyaev tomonidan katta ilmiy qiymatga egaligi ta'kidlangan.

Badiiy-etnografik kommissiya faoliyatini yana bir muhim tomoni - kasbiy darajadagi musiqachilar bilan ishlar olib borishdan iborat edi. Shunday musiqachilardan biri Shoraxim Shoumarovdan V.A.Uspenskiy 1925 yili "Dugoh Husayn" va "Chorgohni" yozib oldi, shu yilning bahor oylarida V.A.Uspenskiy Qo'qonning Isfara qishlog'iga borib Lola saylida ijro etiladigan kuy va qo'shiqlarni yozib kelib nashr ettirdi ("Naqshi kalon", "Naqshi kurd").

1925 yili V.A.Uspenskiy folklor-etnografik jarayonlar bilan bog'liq faoliyatining ikkinchi bosqichi boshlandi. U Turkmanistonga ekspeditsiya tashkillashtirdi (1929 yili yakunlandi). Ekspeditsiya natijalari sifatida turkman musiqasi haqida kitob yozildi (V.Uspenskiy, V.Belyaev. *Turkmenskaya muzika*, t.I, 1928.).

V.A.Uspenskiy faqatgina folklor materiallarini to'plash bilan chegaralanib qolmay ilmiy-tadqiqot ishlarini ham olib bordi. Masalan, 1927 yili chop ettirilgan "O'zbek klassik musiqasi" deb nomlangan nazariy maqolasida, sharq musiqasiga nisbatan qarashlari, arab-fors musiqa tizimlarining tahlili haqida bayon qiladi.

1927 yili A.Fitratning "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" kitobi nashr qilindi. Muallif mazkur ishida milliy kadrlarni tayyorlash, sharqshunoslik va musiqashunoslik sohalarining o'zbek musiqasi tarixini o'rganishda tutgan o'rni haqida mulohazalarini bayon etgan. Xususan kitobda "Shashmaqom"ning qismlari haqida, musiqa cholg'ulari haqida batafsil ma'lumotlar beriladi. A.Fitratning ushbu risolasi o'zbek musiqa tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston musiqa madaniyatining rivojlanishi xalq ijodiyoti namunalarini yozish ishlarini jadal sur'atda olib borishini taqozo etdi. Bunda mutaxassislar tayyorlash masalasi birlamchi bo'lib qoldi. Bu kabi masalalar bilan shug'ullanish 1928 yili Samarqandda tashkil etilgan O'zbek musiqa va xoreografiya institutiga topshirildi. Musiqiy merosni to'plashda o'sha davrdagi institut rahbari N.N.Mironovning (1870-1952) faoliyati e'tiborlidir. Turkistondagi

faoliyatini dastlab rus armiyasining harbiy kapelmeysteri sifatida boshlagan N.N.Mironov, keyinchalik musiqiy-ma'rifiy ishlar borasida jonbozlik ko'rsatgan edi. 1928 yili uning tashabbusi bilan Samarqandda O'zbek musiqa va xoreografiya instituti ochilgan bo'lib, unda saboq berishga Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyos Abdug'aniyev, Domla Halim Ibodov, Abduqodir Ismoilov, Ahmadjon Umrzoqov, Matyusuf Xarratov singari mashhur hofiz va sozandalar jalb etilgan. Institutda fonograf orqali valiklarga muhrlash ishlari ham bajarilar edi. Bu faoliyat natijasida N.N.Mironov tomonidan nashrga uchta kitob tayyorlanib, ularga M.Ashrafiy, Sh.Ramazonov, T.Sodiqovlar yozib olgan milliy kuylar to'plangan edi. 1932 yili mazkur institut Toshkent shahriga ko'chirildi. Bu dargohning xodimlari V.A.Uspenskiy, Ye.E.Romanovskya (1890-1947), Ilyos Akbarov va X.Muxamedovlar (1915-1993) Toshkent, Farg'ona vodiysi (Andijon, Farg'ona, O'sh va Marg'ilon), Xorazm va Buxoro bo'ylab musiqiy-etnografik ekspeditsiyalari uyushtiradilar. Bir qator chop etilgan to'plamlar ana shu mehnatning hosilasidir. Xususan, "O'zbek xalq qo'shiqlari" (1,2 kitoblar - 1939, 3 kitob - 1954), "Xorazm klassik muzikasi" (1939), "O'zbek cholg'u muzikasi" (1948), "Navoiy so'ziga muzikalar" (1949), "O'zbek vokal muzikasi" (1950) nota to'plamlari shular jumlasidandir. Ushbu yozuvlar mazmunida xalq musiqasi - Farg'ona ayollarining qo'shiqchilik ijodi va kasbiy musiqaga doir xorazm maqomlarining cholg'u va boshqa rivojlangan ashula yo'llari o'z aksini topgan edi. Shuningdek, 1949 yili Ilyos Akbarov O'zbekiston xalq artisti Usta Olim Komilovdan 50 ga yaqin doira usullarini yozib oladi va 1952 yili "Doira zarblari" nomi bilan chop ettiradi.

O'zbekiston bo'ylab xalq musiqiy ijodiyotini o'rganish va o'zlashtirish jarayoni kechayotgan davrda qo'shni xalqlar an'anaviy musiqasini yozib olish hamda ularni ilmiy-amaliy tadqiq etish tadbirlari ham ma'lum maromda davom etdi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqorida tilga olingan musiqashunos olimlar ya'ni V.Belyaev va V.Uspenskiylar bilan birgalikda boshqa mualliflar ham samarali faoliyat ko'rsatdilar. Bunga yorqin misol tariqasida 1928 yili Moskva shahrida chop etilgan V.Belyaev va V.Uspenskiylarning "Turkman musiqasi" kitobini misol qilish

mumkin. Bu kitob turkman xalq an'anaviy musiqasining 115 ta namunasi va shu mavzular bilan bog'liq ilmiy-nazariy maqolalarni o'z ichiga olgan. Jumladan, musiqashunos olim A.Zataevich ham qozoq va qirg'iz xalqlari an'anaviy musiqa ijodiyotiga taalluqli bir necha yirik ishlarni amalga oshirgan. Bu o'rinda 1925 yili Orenburg shahrida nashrdan chiqqan "1000 ta qozoq xalqi aytimlari", 1931 yili Olma-Ota shahrida nashr etilgan "500 ta qozoq aytim va kuylari", Moskvada chop etilgan "250 ta Qirg'iz cholg'u va aytimlar" kabi to'plamlarni eslash joizdir.

O'ziga xos tashabbus va fidoiylik bilan boshlanib, ma'qul natijalar bergan ishlarni keyinchalik yosh mahalliy mutaxassislar ham baholi qudrat davom ettirib, ijobiy marralarni qo'lga kiritdilar. Natijada, Markaziy Osiyo xalqlari an'anaviy musiqa ijodiyotining turli xil qirralarini yorituvchi qator ilmiy tadqiqot va to'plamlar nashrdan chiqdi. "Qirg'iz musiqiy folklori" (M., L., 1939), "Tojiklar musiqasi" (S., T., 1941), "200 ta qozoq aytimlari" (T. Bekxojina. Olma-Ota, 1972), "Tojik xalq aytimlari" (tuzuvchi Sh. Sayfiddinov., Kiev, 1981) va "Turkman xalq aytimlari" (tuzuvchi N. Abubakirov., Kiev, 1981) kabi nashrlar shular jumlasidandir.

O'zbek an'anaviy musiqa merosini notaga olish jarayoni 50-yillarda o'z faoliyatini yangicha yo'nalishda davom ettirib, institut xodimlari safi yosh mutaxassislar bilan kengaydi. Jumladan, musiqashunos olim K. Olimboeva (1926-1992) "SHoxsanam va G'arib" dostonidan ayrim kuylarni notalashtirdi. Toshkent, Farg'ona (1951) va Xorazm viloyatlariga (1952) taniqli folklorshunos olimlar M. Alaviya va K. Abdullaevlar bilan ekspeditsiyalarda qatnashib, zamonaviy xalq qo'shiqlarni yozishga muvaffaq bo'ldi hamda "25 O'zbek xalq qo'shig'i" to'plamini nashr uchun tayyorladi.

Shu davrlardan (1950) boshlab institutning musiqa bo'limi mudiri F.M. Karomatov rahbarligida O'zbekiston viloyatlari - Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona vodiysiga ekspeditsiyalar tashkil etilgan. Hozirgi kunga qadar davom etib kelayotgan ushbu ijodiy jarayonda qimmatli manbalar to'plangan bo'lib, ular asosida F.M. Karomatov "O'zbek do'mbira musiqasi" (1962), "O'zbek xalq qo'shiqlari" (1980) va hozirda ikki kitobdan iborat "O'zbek xalq musiqa merosi"

(1 kitob, 1978; 2 kitob, 1985) to'plamlarini bosmadan chiqardi.

Akademik Yunus Rajabiy (1897-1976) ham o'zbek musiqa merosini asrab qolish va uni rivojlantirishda ulkan hissa qo'shgan san'atkorlardan biridir. Yunus Rajabiyning o'zbek musiqasining deyarli barcha janrlarga mansub nota yozuvi namunalari ko'p jildlik "O'zbek xalq musiqasi" (1-5 jildlar, 1955-59)da nashr etilgan. Ushbu to'plamlarda, jumladan, bolalar qo'shiqlari, xalq aytilari (qo'shiq, lapar, yalla, ashula), katta ashulalar, cholg'u kuylari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, muxtasham Shashmaqom turkumi munosib o'rin olgandir. 1966-1975 yillarda Shashmaqom namunasini olti jildda qaytadan nashr etilishi hamda bu maqomlarni Yunus Rajabiy rahbarligidagi O'zbekiston teleradiosi maqomchilar ansambli ijrosida audio tasmlar va plastinkalarga yozib olinishi bu ro'yxat salmog'ini yanada oshiradi. Akademik Yu.Rajabiy to'plamlari nisbatan mukammal darajada bajarilganligi bilan O'zbek musiqasini amaliy o'zlashtirish va nazariy o'rganishda benihoya qimmatli manbadir. Ayniqsa, Shashmaqom nota yozuvi yo'llari avvalgi urinishlardan sifatli farq etishini ta'kidlash kerak. Bunda ovoz xususiyatlari ma'lum darajada inobatga olinib, kuy-ohanglarga o'zbek mumtoz she'riyati namunalari monand etilganligi kabi muhim holatlarini alohida aytish mumkin.

Shu o'rinda, Xorazm maqomlarini ham to'liq turkum (ya'ni ham chertim, ham aytim yo'llari) tarzida Matniyoz Yusupov (1925-1992 yy) tomonidan yozib olinishi va 1958 yili "O'zbek xalq musiqasi" to'plamining oltinchi jildida chop etilishi e'tiborga molikdir. Bunda notaga oluvchi maqom aytim yo'llarini ovoz va tanburga oid alohida yozuvlarda aks ettirganki, natijada maqom ijrosi xususida aniqroq tasavvurga ega bo'linadi. Xorazm maqomlari ham jiddiy o'zgarish va to'ldirishlar bilan 80-yillar davomida qaytadan nashr etilgan edi. SHuningdek, Xorazm musiqa an'analarini o'rganishda M.Yusupov nota yozuvlariga olgan mahalliy ashula, lapar, suvora va boshqa aytim hamda cholg'u kuylari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mehnat natijalari "O'zbek xalq musiqasi" ko'p jildligining VII (1960 y) va IX (1962 y) qismlarida o'z aksini topgan.

Tayanch soʻzlar:

Tarix, madaniyat, musiqiy anʼanalar, sanʼat, arxeologiya, davr, folklor, bayram, marosim

Nazorat savollari

1. Markaziy Osiyo xalqlarining musiqiy anʼanalari qaysi manbalarga tayangan holda oʻrganiladi?
2. Qardosh xalqlar madaniyatini oʻrganishda arxeologik topilmalarning ahamiyati haqida soʻzlang.
3. Qadimgi dunyo madaniyatini oʻrganishda xalq ijodiyoti namunalari ahamiyati haqida soʻzlab bering.
4. Har bir xalqning musiqa ijodi qay tarzda shakllanganligi haqida ilmiy farazlar.
5. Markaziy Osiyo xalqlarining afsonalari.

2-MAVZU

QOZOQ XALQ MUSIQA AN'ANALARI. MAROSIM VA NOMAROSIM JANRLARI




Reja:

1. Qozoq xalqining qadimiy madaniyat tarixi
2. Qozoq xalqining ilk yozma manbalari
3. Ahmad Yassaviy va uning "Devoni hikmat" asari
4. Qozoq xalqi hayotida baxshi-jirov va kuyshi-sozandalar o'rni

Adabiyotlar:

1. Аманов Б., Мухамбетова А. *Казахская традиционная музыка и XX век.* Алматы. "ДайкПресс" 2002.
2. Ерзакович Б.Г. *Музыкальное наследие казахского народа.* Алма-Ата. 1979.
3. Байгаскина А. *Эволюция стихотворных размеров и логика развития музыкальной формы казахской народной песни. Проблемы музыкального фольклора народов СССР.* Москва. 1973.
4. Беляев В. *Очерки по истории и музыки народов СНГ,* т.1. М., 1962.



Qozoq xalqining musiqasi XX asrga qadar og'zaki tarzda rivojlanib kelgan. Qozoq va Qirg'iz halqlarning madaniyatiga ko'chmanchilik hayot tarzi katta ta'sir ko'rsatgan.

Zamonaviy Qozog'iston hududi juda katta. Qadimda bu hududda turli qabilalar yashagan bo'lib, ular asosan ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullanganlar. Eramizdan avvalgi II ming yillikda Qozog'iston hududida odamlar mis va oltin topish ishlari bilan shug'ullanganlar, shuningdek bronzadan turli xil mehnat va ov qurollarini yasaganlar.

Eramizdan avvalgi I mingyillikning o'rtalarida temir davri boshlanadi. Yunon yozuvchilari tomonidan aynan shu davrga tegishli yozma ma'lumotlarda Qozog'iston hududida yashagan qabilalar Xitoy, Hindiston va Osiyo xalqlari bilan iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatgan ekanlar.

Eramizdan avvalgi I ming yillikning ikkinchi yarmida ibtidoiy jamoa tizimi o'rniga sinfiy tizim shakllana boshladi. Eramizning VI asrida Qozog'iston va Qirg'iziston hududlari Turk xoqonligiga, X asrga kelib esa Qoraxoniylar davlatiga qarashli bo'lgan. Daryolar bo'yida odamlar yerga ishlov berish ishlari bilan shug'ullanib, o'troq hayot tarzini boshlaganlar. Shu davrda shaharlar paydo bo'lib, arxitektura rivojlangan.

Janubiy Qozog'istonda joylashgan Yassi shaharchasida (hozirgi Turkiston yaqinida) qozoq yozuvi yodgorligi bo'lmish avtobiografik

va didaktik asar "Devoni hikmat" Ahmad Yassaviy (1103-1166) tomonidan yaratilgan.

XIII asrda Qozog'iston va Qirg'iziston yerlari Mo'g'ullar tomonidan bosib olingan. Bosqinchilik natijasida shaharlar vayron qilingan, iqtisodiyot, madaniyat rivojlanishi susaygan. Buning natijasida xalqlar yana avvalgi ko'chmanchilik hayot tarziga qaytganlar.

XV asrning oxirlarida qozoq xonligi yuzaga keladi.

Qozoq musiqasining rivojlanishida qadimiy ajdodlarning ijodiyoti ahamiyatlidir. O'rxun-Enasoy daryosi sohillaridan topilgan yozma yodgorliklar, qabr toshlari va qoyalarda o'yilgan xatlarda tarixiy ma'lumotlar, hukmdor shaxslar va qahramonlar sharafiga madhiyalar bitilgan. Aynan shu tosh yozuvlarini qozoq xalq she'riyati, shuningdek tarixiy qo'shiqchilik va dostonchiligi-ning ilk ko'rinishlari deb bilish mumkin.

Qozoq xalqi madaniyati, jumladan musiqa ijodining shakllanishi bu xalqning tarixi bilan bevosita bog'liqdir. Qozoq xalq og'zaki adabiyoti namunalarida, turli rivoyat va afsonalarida bu davr shoir, baxshi-jirov va kuyshi-sozandalar (Qo'rqit, Ataliq, Sipir jirov, Bayjigit, Qoz tug'an) ismlari saqlanib kelingan. Bular musiqa tarixida cholg'ular, muayyan qo'shiq turlarining yaratuvchilari, hukmdorlarning donishmand maslahatchilari, jangchilar ruhini ko'taruvchi shahslar sifatida ko'rsatiladi. Ular "to'lg'au" (mulohaza qo'shig'i), "maqtau" (madhiya), bashorat va nasihat qo'shiqlari, rivojlangan cholg'u asar (kuy)lar ijod qilganlar. XVIII-XIX asarlarda qozoq an'anaviy musiqasining rivoji yuqori darajalarga ko'tariladi. Bu davrda kasbiy darajadagi musiqa ijrochiligi, qozoq bastakorlarining ijodi yuqori badiiy cho'qqilarga erishdi.

Asrlar davomida rivoj topgan qozoq an'anaviy musiqa tizimida turli shakl va uslubdagi ijodiyot ko'rinishlari hamda ijrochilik yo'nalishlari qaror topadi. Xalq qo'shiqlarini ijro etadigan "o'lenshi", "termeshi"lar bilan birga "jirov", "aqin", "anshi", "kuyshi" kabi ustozona musiqa namoyandalari faoliyat ko'rsatadi.

Tayanch soʻzlar:

Qozoq xalq musiqa ijodi, tarix, madaniyat, musiqiy anʼanalar, sanʼat, folklor, bayramlar, marosimlar.

Nazorat savollari:

1. Qozoq xalq musiqasining rivojlanish tarixi xususida soʻzlang.
2. Qozoq xalqi tarixi xususida yunon manbalarida nima deyilgan?
3. Qozoq xonligi qachon yuzaga kelgan?
4. Qoʻrqit, Ataliq, Sipir jirov, Bayjigit, Qoʻz tugʻan qanday shaxslar?

3-MAVZU

QOZOQ XALQ QO'SHIQCHILIK SAN'ATI. O'LEN VA AYTISHUVLARI. MILLIY CHOLG'ULARI VA CHOLG'U KUYLARI

Reja:


1. Qozoq xalq qo'shiqchilik ijodiyoti
2. Marosim va nomarosim janrlari
3. Qozoq xalq musiqa cholg'ulari
4. Qozoq xalq cholg'u musiqasi

Adabiyotlar:

1. Аманов Б., Мухамбетова А. *Казахская традиционная музыка и XX век. Алматы. "ДайкПресс" 2002.*
2. Ерзакович Б. Г. *Музыкальное наследие казахского народа. Алма-Ата. 1979.*
3. Байгаскина А. *Эволюция стихотворных размеров и логика развития музыкальной формы казахской народной песни. Проблемы музыкального фольклора народов СССР. Москва. 1973.*
4. Беляев В. *Очерки по истории и музыки народов СНГ, т. 1. М., 1962.*
5. Bekov O. *Etnomusiqashunoslik asoslari. Xrestomatiya. T., Qo'l yozma.*

Qozoq xalqi qo'shiqlari an va o'len deyiladi. Bunda "an" musiqiy asarga nisbatan, "o'len" esa badiiy-poetik asarga nisbatan qo'llaniladi. An so'zidan kelib chiqqan "anshi" deb qozoq xalq qo'shiqlarini ijrochilariga aytiladi, "o'lenshi" deb esa qo'shiqlarning she'riy matnlarini yaratuvchilariga aytiladi. Qo'shiq ko'pincha do'mbira cholg'usi jo'rligida ijro etiladi. Do'mbira kasbiy darajadagi ijrochilarning cholg'usi hisoblanadi, ammo xalq orasida ham sevib chalinadi.

Qozoq xalq musiqasiga tegishli adabiyotlarda ta'kidlanishicha, xalqning musiqiy va badiiy qobiliyati kuchli bo'lib, ular mashhur kuylarga yangi she'rlarni moslab, improvizatsiya tarzida ijod qilar ekanlar.



Qozoq xalq qo'shiqchiligining shakllanishida ko'chmanchilik hayot tarzining ta'siri katta bo'lgan deyish mumkin. Shu sababli, qo'shiqlar mazmunan ana shu hayot tarzini to'liq aks ettiradi. Qozoq xalq qo'shiqlarini mehnat, marosim, tarixiy qo'shiqlarga ajratish mumkin.

Mehnat qo'shiqlari mehnat jarayonida ijro etiladi va mehnatkashlarning ichki kechinmalarini aks ettiradi. Erkaklarning asosiy mehnat turi chorvachilik bo'lganligi sababli cho'ponlar qo'shiqlari paydo bo'lgan. Cho'ponlar qo'shiqlari ham bir necha turlarga bo'linadi: qo'y boquvchilar qo'shiqlari "qo'yshi ani", ot boquvchilarning qo'shiqlari esa "jilqichi ani" deb yuritilgan.

Ayollar asosan uy ishlari bilan shug'ullanganlari uchun ularning mehnat qo'shiqlari uy hayvonlarini sog'ish, sutli mahsulotlar tayyorlash, ip yigirish, to'qish, qo'l tegirmoni bilan ishlash kabi jarayonlarni aks ettirgan.

Qozoqlarning butun umri qo'shiqlar jo'rligida o'tadi deyilsa mubolag'a bo'lmaydi. Marosim qo'shiqlarini ikkita asosiy guruhga ajratish mumkin: oilaviy va umumiy. Umumiy marosimlar yilnoma (kalendar), tabiat hodisalari bilan bog'liq marosimlarni, oilaviy marosim guruhiga esa nikoh marosimi, farzand tug'ilishi bilan bog'liq marosimlar, dafn marosimi kiritilgan. Nikoh marosimining barcha bosqichlari maxsus ijod qilingan qo'shiq bilan o'tgan: "To'y bastar" qo'shig'i to'y bazmi ochilishi paytida

ijro etilib, barcha qarindosh, qo'shnilarga sevinchli voqea haqida xushxabar yetkazilgan. SHodiyonalik ruhidagi bu qo'shiqda kuyov va kelin, ularning ota-onalari va qarindoshlari sha'niga maqtoqlar, yaxshi niyatlar bildirilgan. Kelinning "Sinsu", "Qo'shtasu" qo'shiqlarida uning o'z ota-onasi, dugonalari, yurti bilan bo'layotgan ayriliq qayg'uli, cho'ziq, g'amgin ohang iboralari yordamida ifoda etilgan. To'y tadbirlariga yakun yasagan "Betashar" marosimi aqinning nasihat qo'shig'i jo'rligida otkaziladi. Unda aqin kelinga maslahatlar berib, nasihatdan hazilga, kundalik tashvishlardan oilaviy hayot fazilatlariga o'tib, namunaviy kelin timsolini yaratadi.

To'y marosimi bilan bog'liq "Jar-jar" aytimi ham bo'lib, u ayni mehmondorchilik avjiga chiqqan vaqtda ayol va erkak guruhlari tomonidan galma-galdan ijro etiladi. Mazkur aytimning mazmuni turlichadir: jiddiy xarakterdagi olqishlov, pand-nasihat, hazil va hokazo. Ba'zan aytimlarga bahslashuv unsurlari ham kiritiladi. "Jar-jar"larning kuy tuzilishi deklamatsiyaga yaqin.

Dafn bilan bog'liq marosimlarda Yig'i aytimi "jo'qtau" ijro etiladi. "Jo'qtau" aytimi kalta-kalta ohang tuzilmalaridan tarkib topadi va rechitativ tarzda ijro qilinadi. Aytim boshida, o'rtasida va so'nggida Yig'i ohanglari qo'shib kuylanadi. Yig'ilar ko'p hollarda yig'lovchilikni o'ziga kasb qilgan ayollar tomonidan ijro etilgan. Bunday ayollarning ijro tarzi o'ziga xos bo'lib, she'riy shaklning noaniqligi, kuy-iboralarning rechitativ xarakterda ekanligi bilan ajralib turadi.

Qozoq xalqining marosim qo'shiqlari yuqorida qayd etilgan qo'shiqlar bilan chegaralanmaydi. Ulardan tashqari yangi yil bilan qutlov kabi qo'shiqlari ham mavjud. Bunday qo'shiqlar bahorda, Navro'z bayramida ijro etilgan.

Bolalarga aytilgan "Besik jiri", "Bo'pem-ay", "Aldi bo'pe", "Aq bilek" qo'shiqlari o'zining ixchamligi, kichik diapazoni, ohang iboralarining o'zaro yaqinligi bilan ajralib turadi (2/4, 6/8, 9/8 o'lchovlarida). Bolalar tomonidan ijro etiladigan namunalardan "Jaz keledi, alaqay", "Qarlig'ash" kabi yoz qo'shiqlari "Kim qalay daustay biledi", "Andardin aytisi" kabi o'yin qo'shiqlarini ko'rib chiqish mumkin.

Jodugarlik marosimlari ibtidoiy jamoa bo'lib yashash davridan bizning davrimizgacha yetib kelgan bo'lib, qaytariq, fol ochish,

la'nat o'qish, afsun va tabobat aytimlari ("arbau", "badik", "bahsi sorini") qozoq folklorlarining eng qadimgi qatlamiga mansubdir. Bunday namunalar sodda, hajmi katta bo'lmagan ohanglarning ko'p marta qaytarilishi, ya'ni kuyning o'zgarishi orqali emas, balki bir xil iboralarning ketma-ket kelishi, ular miqdorining ko'paytirilishi yo'li bilan rivoj topadi.

Jodu aytimlariga yaqin bo'lgan mavsumiy marosim namunalardan "Tasattiq", "Janbirliq" kabilarni misol qilish mumkin. Qurg'oqchilik paytida ovul uchun uyushtirilgan ziyofatdan keyin maxsus katta tosh yoki qo'y kallasi ustida qozoq shomon-baxshilari "yomg'ir chaqirish" aytimini o'qishgan. Mazkur tadbir qadimgi turk qabilalarida tarqalgan "yada tosh" marosimi bilan bog'liq.

Maishiy qo'shiqlar guruhiga alla, bolalar, lirik, hazil qo'shiqlari kiradi va qozoq qo'shiqchilik ijodiyotining katta qismini tashkil etadi. Asosiy va nisbatan boy mazmunli namunalar - lirik qo'shiqlardir. Lirik qo'shiqlar band shakli, keng rivojlantirilgan kuy tuzilishi bilan ajralib turadi.

Maishiy qo'shiqlar guruhidan joy olgan bolalar qo'shiqlari va allalar musiqa ijodiyotining dastlabki namunalaridan sanaladi. Ular mehnat va marosim qo'shiqlari janrlariga yaqin. Maishiy qo'shiqlar tarkibiga "aytisuv" shaklidagi qo'shiqlar ham kiradi. "Aytisuv" dialog shaklida bo'lib, ijrochilar o'zaro topqirlik, aqllilikda bellashadilar. Bunday janrdagi qo'shiqlarning mavzu doirasi ancha keng. Yoshlar "aytishuv"i muhabbat, hazil-mutoyiba mavzularida bo'lsa, aqinlar "aytishuv"ida ko'proq so'z va musiqiy mahoratga urg'u beriladi.

Qozoq dialog qo'shiqlarining she'riy matni improvizatsiya tarzida, xalq to'rtliklari shaklida ijod qilinadi. Dialoglar yarim ohang, yarim rechitativ tarzda ijro etilib, sodda band shaklida tuziladi. Ikkala ijrochi ham odatda bir kuy tuzilmasidan foydalangan holda, uni ko'p marotaba takrorlash jarayonida variatsiyalar hosil qiladilar.

Qozoq xalq qo'shiqlarining yana bir keng tarqalgan ko'rinishi "qara o'len" shaklidir. U xalq to'rtliklariga asoslangan oddiy band shaklini tashkil etadi.

"Terme" shaklidagi qo'shiqlarning tuzilishi boshlang'ich kuy iborasi, asosiy ohang jumlasining ko'p marta takrorlanishi hamda

qo'shiqning yakunlovchi qismidan iborat. Mazkur qo'shiqlar diapazoni sekstadan oktavagacha bo'lib, bu ko'rinishdagi namunalar nasihat qo'shiqlari, rivoyat aytimlari kabi janrlar qatoridan joy olgan.

Birinchisi dastlabki mehnat, marosim, alla, bolalar, hazil qo'shiqlarida qo'llanilgan bo'lsa, ikkinchisi lirik va boshqa chuqur ma'noli qo'shiqlarda qo'llanilgan.

Qozoq xalq qo'shig'i uchun asos sifatida diatonik ladlar tizimi xizmat qiladi: miksolidiy, ioniy, eoliy, doriy, frigiya va ba'zan pentatonika.

Qo'shiqlarning she'riy matnlari kuy rivoji uchun qulaydir. Qozoq xalq qo'shiqlarida kuy harakatlanishining ikki toifasi aniqlangan: a) quyi harakatlanuvchi; b) yuqoriga so'ngra yana quyiga harakatlanuvchi.

Qozog'iston hududining kattaligi, turli shevalar, turli yashash tarzi natijasida qo'shiqchilikning ham turfa uslublari vujudga kelgan. Qozog'istonning janubiy hududlaridagi qo'shiqlar shaklan sodda, aniq ritmga ega. G'arbda esa aksincha, lirik qo'shiqlarning kuy diapazoni keng, rechitativ shaklidagi termalar rivojlangan. Ma'lumotlarning barchasi qozoq xalqining ko'p asrlik boy musiqa merosiga ega ekanligidan dalolat beradi.

Qozoq xalq musiqa chog'ulari

Qozoq xalqining tarixan qaror topgan, yarim ko'chmanchi chorvachilik hayotiga asoslangan turmush sharoitlari, dunyo qarashlari musiqa cholg'ularining o'ziga xos tomonlarini belgilab bergan. Turlari ko'p bo'lmagan qozoq xalq musiqa cholg'ularida chalinayotgan xilma-xil musiqiy namunalar milliy madaniyatning barcha tarixiy bosqichlarini o'zida mujassam etgan.

Qozoq xalq cholg'ulari: a) do'mbra, b) qo'biz, v) sibizg'i; g) shangqo'biz.

Qozoq do'mbirasi torli chertma cholg'ulardan bo'lib, ikki torlidir. Torlar asosan ichakdan tayyorlanib, kvinta yoki ba'zan kvartaga sozlanadi. Dastada pardalar simlar o'rami yordamida bog'lanadi. Qozog'istonning turli hududlarida do'mbraning tovushqatori turlichadir. Tovushqator diapazoni bir oktavadan ortadi.

Do'mbraning kelib chiqishi Markaziy Osiyo xalqlari qadimgi

madaniyati bilan bog'liq bo'lib, XIX asrdan boshlab xalqning sevimli va keng tarqalgan sozi sifatida mashhur bo'lgan. Hozirda qozoq do'mbirasi ikki asosiy ko'rinishga ega. G'arbiy Qozog'istonda qorni yumaloq, ingichka dastasiga 13-14 parda bog'lanadi. Boshqa hududlarida esa do'mbiraning to'rtburchak (trapetsiyasimon) shaklidagi tana, dastaga 7-8 parda bog'langan turi tarqalgan. Do'mbira ijrochiligida ikkita asosiy - "to'kpe" va "shertpe" uslublari qo'llaniladi.. "To'kpe" uslubidagi kuylar dramatik holatlarni aks ettirish uchun qulaydir. "Shertpe" uslubida ijro etilgan asarlar o'zining kuychangligi, nozikligi va jozibadorligi bilan ajralib turadi. Ijro etishda torlarga panja bilan urish yo'li bilan emas, balki cholg'u dastasini qo'l barmoqlari bilan asta chertish orqali amalga oshiriladi. Ushbu uslubdagi kuyalarda shakl erkinligi kuzatiladi. Qo'buz - torli kamonli cholg'udir. Cholg'uning tana va dastasi bir butun daraxt bo'lagidan yasaliib, deka sifatida tuya terisidan foydalaniladi. Teri cholg'uning pastki qismiga tortiladi. Cholg'uning bukik tanasiga ikkita tor tortilib, kamon bilan tovush chiqariladi. Torlar kichik oktavadagi kvarta yoki kvintaga sozlanadi. Qo'buz - yakkaxon tarzda ijro uchun mo'ljallangan cholg'u hisoblansa-da, ba'zan vokal ijrochiligida Jo'rsoz sifatida ham qo'llaniladi.. Uning tovushqatori do'mbira tovushqatori bilan deyarli bir xil. Qo'buzning tembri qo'shma tovush (oberton)larga boy.

Qozoq sibizg'asi XX asrgacha qozoq ovullari xalq va ustozona musiqa sozi sifatida juda keng tarqalgan edi. Cho'ponlarning sozi bo'lmish sibizg'a qozoq qo'shiqchilari qo'lida turli bayram va to'ylarda yangragan. Sibizg'a uzunasiga ushlab chalinadigan naysimon cholg'u bo'lib, 50-70 sm uzunlikdagi qamish yoki yog'ochdan yasaladi, yuz tarafiga 4-5 ta teshik ochiladi. Cholg'uning tovushi mayin bo'lib, diapozoni 1,5-2 oktavani tashkil qiladi.

Damli cholg'ular qatoridan o'rin olgan "shangqo'biz" qozoq musiqa madaniyatida keng qo'llaniladi. Yuqorida sanab o'tilgan sozlardan tashqari o'tmishda qozoq musiqa madaniyatida "Soz surnay", "Uskirik", "Tastauq", "Qamis surnay", "Kerney", "Muz surnay" kabi puflama; "jetigen", "sherter" torli-chertma; "dang'ira", "dabil", "daulpaz" kabi urma sozlari mavjud bo'lib, turli marosimlar (mavsumiy, tabobat), bayramlarda qo'llanilgan.

Qozoq cholgʻu musiqasi

Qozoq cholgʻu musiqasida "Kuy" janri yetakchidir. Qozoq kuyi kasbiy darajadagi musiqaning qadimiy turlaridan hisoblanib, uning shakllanish jarayoni bir necha asrlarni oʻz ichiga oladi. Kasbiy darajadagi musiqa madaniyatining koʻrinishi sifatida kuy murakkab tizimga ega. Janrlar tizimida qadimiy marosimlar bilan bogʻliq kuylar ham mavjud. Bu "joʻqtau" kuyi (Yigʻi kuyi), "Qoʻshtasu" kuyi (toʻy marosimi) va hokazo. Qoʻbiz cholgʻusi uchun yaratilgan kuylarda qadimiy afsun-jodu aytimlarining unsurlari saqlanib qolgan. Asrlar osha kuylarning janr tizimi sayqallanadi. Mazkur tizim oʻz ichiga turli mavzudagi kuylarni oladi (lirik, hazil, raqs, falsafiy). Kuylarning texnik murakkabligi ham turlichadir (oddiy shaklli kuydan toʻ kengaytirilgan virtuoz kuylargacha).

Qozoq cholgʻu musiqasida uchta asosiy ijrochilik va bastakorlik uslublarini aniqlash mumkin: a) sibizgʻa cholgʻusi bilan bogʻliq uslub; b) uy sharoitida va konsertlarda ijro etiladigan qoʻbiz va doʻmbira cholgʻulari bilan bogʻliq uslublar. Sibizgʻa uchun yaratilgan asarlarni uch turga ajratish mumkin. Birinchisiga asosan choʻponlar ijro etadigan kuylar tegishli. Ikkinchi turiga xalq qoʻshiqklarining kuylari va uchinchisiga yirik shakldagi kompozitsiyalar, yaʼni doʻmbira uchun yaratilgan asarlarning sibizgʻa uchun qayta ishlangan variantlari kiritiladi. Sibizgʻa cholgʻusida ijro etiladigan kuylarga erkin ritmika, lad tuzilishidagi oʻzgaruvchanlik, badihagoʻylik xosdir. Qozoq cholgʻu musiqasining asosini doʻmbira uchun yaratilgan asarlar tashkil etadi. Mazkur cholgʻu uchun yaratilgan asarlar dasturlidir. Kuylarning mavzu doirasi keng qamrovli boʻlib, ularda xalqning hayot tarzi, tarixi, dunyoqarashi va ichki kechinmalari ifoda etiladi. Doʻmbira uchun yaratilgan asarlar "kuy" deyiladi. Jiddiy, badiiy yoʻnalishdagi asarlardan tashqari komik, satirik mavzudagi kuylar ham ijod qilingan. Doʻmbirada ijro etiladigan kuylarning aksariyati xalq anʼanaviy ijodiyotining yetuk namunalari deb hisoblanadi. Doʻmbira kuylari qozoq bastakorlari tomonidan ijod qilingan. Asarlar ikki ovozli boʻlib, kuy ovozlarning parallel harakati bilan rivojlantiriladi. Ikki ovozli ijroning yana bir turi mavjud boʻlib,

unda yuqori torda asosiy kuy ijro etilsa, ochiq pastki tor joʻrsoz vazifasini bajaradi. Baʼzan esa aksincha, kuy pastki torda ijro etilib, yuqori tor joʻrsoz vazifasini oʻtaydi.

Qozoq doʻmbira kuylari shakl murakkabligi bilan ajralib turadi. SHulardan biri katta uch qismli shakldir. Mazkur shakl quyidagi boʻlimlardan tarkib topadi:

1) Asosiy mavzuning ijrosi (mavzu ham murakkab ichki tuzilishiga ega boʻlishi mumkin.

2) Oʻrtaliq boʻlimida yangi mavzu yuqori registrda ijro etiladi (kvarta, kvinta yoki oktava yuqorida).

3) Asosiy mavzular takrorlanishi. Asarda kirish qism, yakunlovchi qismlar ham boʻlishi kuzatiladi. Murakkab shaklga ega boʻlgan asar misoli sifatida A.Zataevich tomonidan notaga olingan "Ov" kuyini tahlil qilish mumkun. "Ov" kuyining tuzilishi quyidagicha:

1. Kirish qismi

2. Asosiy mavzuning ijrosi

3. Ikkinchi mavzuning ijrosi

4. Uchinchi mavzuning ijrosi

5. Yakuniy qism, yakuniy qism kirish qismi ohanglaridan tuzilgan.

Mashhur cholgʻu asarlardan Yana biri "Aqsaq qulan" kuyidir. Mazkur kuy XIII asrda afsonaviy-tarixiy mavzu asosida ijod qilingan. "Aqsaq qulan" asarining tuzilishi quyidagicha:

ABAC + ABAC + A.

Kuy A. Zataevich tomonidan yozib olingan.

Qoʻbiz cholgʻusi uchun yaratilgan asarlar shaklan soddaligi bilan ajralib turadi. Qoʻbiz cholgʻusining qozoq xalq musiqa madaniyati rivojida oʻrni ahamiyatlidir. Qoʻbiz koʻproq aqinlar ijrosidagi dostonlarni joʻrsozi sifatida mashhur. Qoʻbiz yakkaxon cholgʻu sifatida ham boy repertuarga ega.

Qoʻbuz kuylari orasida dasturli ("Aqqu", "Jez kiyik" kabi) kuylar, baqsi kuylari, lirik ("toʻlgʻau", "koʻnur", kabi) kuylar mavjud. Baqsi sarinlari kvarta diapazonida boʻlib, har bir shomon-baxshining shaxsiy kuyi tarzida yuzaga kelgan. Dasturli kuylar turli rivoyat va afsonalar asosida yuzaga kelib, ulardagi umumiy mazmuni va barcha hodisalarni, asosiy qahramonlarning

harakatlarini kuy-ohang, shuningdek turli musiqiy-tasviriy vositalar yordamida ifodalangan. Masalan, mashhur bo'lgan "Aqqu" kuyi bir nechta musiqa mavzularidan tashkil topib, oqqushning osmonga ko'tarilib uchishi, ot chopishi, yigitning dushmanlar bilan jangi, yigit onasining yig'isi kabi voqealarni oddiy vositalar orqali, ammo yorqin tarzda ifodalab beradi. Eski harbiy qozoq ansamblari XVIII asrdan boshlab faoliyatini tugatgan. Ansamblar tarkibida ochiq havoda ijro etish uchun mo'ljallangan karnaylar, surnaylar va urma sozlar bo'lgan.

Tayanch so'zlar:

Qozoq xalq qo'shiqchilik ijodiyoti, an, o'len, anshi, o'lenshi, milliy cholg'ular, cholg'u kuylari

Nazorat savollari:

1. Qozoq xalq qo'shiqchiligi xususida gapiring.
2. Qozoq xalq qo'shiqchilik ijodiyoti vakillari xususida nima deya olasiz?
3. "An" va "O'len" atamalariga izoh bering.
4. Qozoq xalq marosim qo'shiqlari haqida gapiring.
5. Qozoq xalq nomarosim qo'shiqlari xususida so'zlab bering.
6. Qozoq xalq qo'shiqlarining kuy tuzilish, lad-pardasi va metro-ritmi haqida gapiring.
7. Qozoq xalq milliy cholg'ulari xususida so'zlab bering.
8. Qozoq xalq cholg'u musiqasi haqida gapiring.
9. "Ov" kuyini tahlil qiling.

4-MAVZU


QOZOQ JIROVCHILIK SAN'ATI. DOSTON VA TERMALARI

Reja:

1. Qozoq xalq dostonlari
2. Qozoq jirovchilik san'ati
3. Qozoq xalq terma va to'lg'aulari

Adabiyotlar:

1. О.Нурмагамбетова. *Казахский героический эпос Кобланди батыр*. Алма-ата. 1988.
2. *Казахский эпос*. Подред. И.Селвинского. Алма-ата. 1958.
3. Аманов Б., Мухамбетова А. *Казахская традиционная музыка и XX век*. Алматы. "Дайк Пресс" 2002.
4. Ерзакович Б.Г. *Музыкальное наследие казахского народа*. Алма - Ата. 1979.
5. Berdibayev R. *Qazaq eposi*. Almati. 1982
6. Berdibayev R. *Epos - el qazinas*. Almati. 1995



Qozoq xalqining qahramonlik tarixi qadim zamonlarda paydo bo'lib, ko'p asrlar davomida rivojlanib, o'z tarkibiga yangi tarixiy voqeliklarni kiritib borgan. Avvaliga epos janri cholg'u jo'rligisiz ijro etiladigan doston ko'rinishida bo'lgan. Keyinchalik ijrochilar jo'rsoz sifatida qo'biz yoki do'mbira cholg'usidan foydalana boshlaganlar. Qozoqlarning eposi qirg'izlarning "Manas"idan farqli

ravishda turli qahramonlar haqidagi bir nechta dostonlarga ajraladi. Ushbu dostonda asosan muhabbat mavzusi ustun bo'lib, turli maishiy xarakterdagi voqeliklar bilan to'ldirib boriladi.

Dastlabki shaklda eposdan romantik xarakterdagi dostonlarga bo'lgan jarayonda dostonlarning shakli ham o'zgardi. Avvaliga deklamatsiya-rechitativ xarakteridagi ijro uslubi, hikoya va cholg'u epizodlari kiritilgan ijro bilan almashtirildi.

Xalq orasida "Qo'zi-Ko'rpesh va Bayan-Sulu", "Qiz-Jibek", "Ayman va SHo'lpan" kabi dostonlar mashhurdir.

Mazmun jihatidan qozoq dostonlari - "batirlar jiri" hamda "turmis salt jirlari" deb nomlangan turlarga ajratiladi.

Dostonlar ijrosining ikki asosiy yo'nalishi mavjud. Qozoq jirov va jirshilari 7-8 bo'g'inli satrlardan iborat "jir" she'rlarini ohangli rechitativ tarzda ijro etadilar. Bunda kuy cholg'u muqaddimasi hamda diapazoni ixcham, ritmikasi tekis bo'lgan ohang iboralaridan qaror topadi. Ijro davomida jirov ruhlanib, ba'zi ibora va jumalarni kengaytirish yoki kichraytirish yo'li bilan ohangni o'zgartirib, musiqa sur'atini tezlashtirib kuyini yakunlovchi avjga olib keladi.

Qozoq dostonlarining ikkinchi ijro uslubi dostonning asosiy mazmunini ifodali nutq bilan bayon etish, eng muhim epizodlarni esa musiqa ohanglariga solib kuylash, ba'zida cholg'u kuylarni chalish bilan bog'liq. Masalan, jirshi SH.Abenov ijrosida yozib olingan "Qo'zi-Ko'rpesh va Bayan-Sulu" dostonida "Kirispe" ("Boshlang'ich qism"), "Saribaydi jo'qtau", "Qaribaydin qayg'isi", "Saqau kemperdin qarg'isi", "Tansiqdin qo'shtasui", "Tansiqqa sheshesinin aytqan maqali", "Qo'zi Ko'rpeshdin zari", "Bayannin jauabi" kabilar. Hammasi bo'lib o'n to'rt musiqa epizodi bo'lib, bular doston qahramonlari nomidan aytilgan. Har biri o'ziga xos ohang, janr xususiyatlariga ega, jumladan "jo'qtau", "Qo'shtasu", "zarlau" kabi xalq qo'shiqchilik janr namunalarini tinglash mumkin. Mazkur namunalarning she'riy asosini 11 bo'g'inli satrlardan iborat "qora o'len" to'rtliklari tashkil etadi.

Dostonlarning tugallovchi bo'limlarining kuyi yuqori registrda boshlanib, asta-sekin pastki registrdarga tomon harakatlanadi. Yakunlovchi bo'lim sekinlashtirilgan harakat bilan tugallanadi.

Doston namunalarining dastlabki ko'rinishlari cholg'u

joʻrligisiz va keyinroq esa qoʻbiz, hozirda asosan doʻmbira joʻrligida ijro etilib kelinmoqda. XIX asrdan boshlab "sirnay" (ikki qatorli garmon) cholgʻusi ham ishlatila boshlangan.

Epik aytim "jir" deb ataladi, doston ijrochisi esa "jirshi"dir.

Aytim shakli qozoqlarda faqat eposda emas, balki qoʻshiqchilik ijodiyotida ham qoʻllanilgan.

"Jir" shaklidagi rechitativ qoʻshiqlar "terme" va "jeldirme" deyiladi. "Jeldirme" "tez aytish" surʼatiga asoslanadi. "Terme"lar yetti boʻgʻinli satrlardan iborat boʻlsa, "jeldirme" oʻn bir boʻgʻinli satrlarga asoslanadi. "Terme"da ham "Jeldirme"da ham kuy rechitativ uslubida rivojlantiriladi.

Rivoyat, afsona va dostonlarning musiqiy ifodasi anʼanaviy ijodiyotining eng qadimgi va asosiy turlaridan biridir. Qozoq dostonchilik ijodi mazmunan "batirlar jiri" hamda "turmis salt jirlari"ga kabi turlarga ajratiladi. "Batirlar jiri"ga "Alpamis", "Er targʻin", "Qoblendi" kabi qahramonlik mavzusidagi dostonlar kiradi. Ikkinchi toifadagi ijtimoiy-maishiy dostonlar majmuasini "Qiz-Jibek", "Qoʻzi Koʻrpesh va Bayan Sulu", "Kulsheqiz", "Alman-SHolpan" ijtimoiy- maishiy dostonlar tashkil qiladi.

Dostonlarning ijro etilishining ikki xil uslubi mavjud boʻlib, qozoq jirov va jirshilari 7-8 boʻgʻinli satrlardan iborat "jir" sheʼrlarini ohangi rechitativ tarzda ijro etadilar. Bunda kuy cholgʻu muqaddimasi va diapazoni ixcham, ritm jihatidan tekis boʻlgan ohang iboralaridan qaror topadi. Ijro davomida jirov ruhlanib, baʼzi ibora va jummalarni kengaytirishi yoki kuchaytirishi, musiqa surʼatini tezlashtirishi mumkin. Ikkinchi ijro uslubida dostonning mazmunini ifodali nutq bilan bayon etilishi, muhim epizodlar esa musiqiy ohanglarga solib kuylanishi, baʼzan esa kuylar chalinishi bilan bogʻliqdir. Qadimgi zamonlardan qozoq musiqa ijodiyotining rivojlanishida aqinlarning hissasi katta. Aqinlar - kasbiy darajadagi xonandalardir. Ular sheʼr toʻqish, poetik improvizatsiya, kuy toʻqish, cholgʻu ijrosi kabi bilim va koʻnikmalarga ega boʻlganlar. Qozoq aqinlarining asosiy ijodiy janrlari: olqishlov qoʻshiqlar - "maqtau", pand-nasihat aytimlar - "toʻlgʻau" va boshqalar. Nasihat qoʻshiqlari asrlar osha shakllangan janr boʻlsa, maqtov qoʻshiqlari koʻp hollarda improvizatsiya tarzida, turli "aytishuvlar" jarayonida vujudga kelgan. Maqtov qoʻshiqlari

terme va jeldirme (rechitativ) shakllarida qaror topadi. Aqinlar boshqa janrlarda ham qo'shiqlar ijod qilishgan (lirik, tarixiy). Bunday qo'shiqlarda ijodkorlar rivojlangan band shakllarini qo'llaganlar. Qozoq aqin va anshilar ijodi ayniqsa XIX-XX asrlarda keng rivoj topgan. Bulardan aytisuv ustalari SHoje, Tubek, Japaq, Birjan-sal, Jambul Jabaev kabilar mashhur bo'lib, o'z asarlari bilan qozoq xalq musiqasini boyitgan.

Tayanch so'zlar:

Qozoq xalq jirovchilik san'ati, terma, tolg'au, doston.

Nazorat savollari:

1. Qozoq xalq dostonlari haqida so'zlab bering.
2. Qozoq xalq jirovchilik san'atining o'ziga xos qirralari xususida nima deya olasiz?
3. Qozoq xalq jirovlarining ijodiy faoliyati haqida gapiring.
4. Qozoq xalq terma va tolg'aulari qanday janrlar?

5-MAVZU

QIR'IZ XALQ MUSIQA AN'ANALARI. MAROSIM VA NOMAROSIM JANRLARI




Reja:

1. Qirg'iz madaniyati tarixi xususida
2. Qirg'iz xalq musiqasining ilk nashrlari
3. Qirg'iz xalq marosim janrlari
4. Qirg'iz xalq nomarosim janrlari

Adabiyotlar:

1. Абдраев М., Юсупов С. Киргизские народные песни: Ошская область; Кыргыз эл ырлары: Ош областы (на рус. и кырг. яз.). - Фрунзе, 1972.
2. Айнагул: Ырлар жыйнагы / Сост. Б. Феферман. - Фрунзе, 1969.
3. Айтматов Ч. Байыркы кыргыз рухунун туу чокусу // "Манас": Сагымбай Орозбаковуулунун варианты боюнча. 1-китеп. - Фрунзе, 1978.
4. Айтыштар. 2 томдук. - Фрунзе, 1972.
5. Акындар чыгармачылыгынын тарыхынын очерктери. - Фрунзе, 1988.

6. Алагушов Б. Ырдагы емурлер. - Фрунзе, 1988.
7. "Ала-Тоо тацшыйт": Обондуу ырлар / Тузген Б. Алагушов. - Фрунзе, 1986.
8. Ауэзов М. Мысли разных лет. - Алма-Ата, 1961.
9. Байджиев М. Стихотворный ритм и музыкальная метрика народных песен и речитативов // Известия АН Кыргызской ССР. - 1961. - Т. 3. - Вып. 1.
10. Балдар фольклору: "Эл адабияты" сериясы. 20-том. - Бишкек, 1998.



Qirg'iziston - tog'lar o'lkasidir. Qirg'izistonning geografik joylashuvi xalq tarixining rivojlanishida alohida ahamiyatga ega edi. Buning ta'siri musiqa sohasida ham kuzatiladi. Qirg'izistonning yaylovlari va tog'lari bilan Qirg'izlarning iqtisodiyoti va kundalik hayoti chambarchas bog'liq. Xalq ijodiyotida Olatov va Yaylov mavzulari keng qo'llanilgan. Qirg'izlar asosan chorvachilik va ovchilik bilan shug'ullanib, hayot kechirganlar.

Qirg'izlarning hayoti va ijodiyoti haqida yetarlicha adabiyotlar mavjud. Ammo Qirg'iz musiqasi haqida adabiyotlar nisbatan oz. Qirg'iz musiqasiga bag'ishlangan dastlabki tadqiqotlar XX asrning birinchi yarmiga tegishlidir. XX asrning 20-30 yillarida Aleksandr Viktorovich Zataevich 400 ga yaqin xalq musiqa ijodi namunalari

tinglash jarayonida notaga tushirgan. 1934 yili "250 киргизских инструментальных пьес и напевов" deb nomlangan to'plami nashrdan chiqdi. To'plamdagi cholg'u kuylariga bag'ishlangan bob (125 ta kuy) alohida ahamiyatga egadir. To'plamdagi 18 ta cholg'u pyesa To'qto'gul Satilg'ano'vdan yozib olingan. Zataevich ish jarayonida so'z matnini yozib olish imkoniyati bo'lmaganligi sabab bajarilgan ishning qiymati biroz pasaygan.

1937 yili A. Maldibaevning "Irlar" nomli nashrdan chiqqan to'plamida muallifning asarlaridan tashqari 13 ta xalq qo'shiqlari ham kiritilgan. Shu yo'sindagi yana bir nechta to'plamlar, musiqaga oid kitoblar, monografiyalar ham mavjud.

Tarixchilarning ma'lumotiga ko'ra, Qirg'iz xalqi janubiy Sibir va Markaziy Osiyoda yashagan qabilalardan vujudga kelgan ekan. Qirg'izlar Markaziy Osiyoda yashagan qadimiy xalqlardan biri deb hisoblanib, ular haqidagi dastlabki ma'lumotlar, eramizdan avvalgi 209-201 yillarga tegishli voqeliklar Xitoy yilnomalarida yozilgan. Qirg'iz qabilalari o'sha davrda Yenisey daryosining yuqori oqimi bo'yida yashaganlar. Xitoy transkripsiyasi bo'yicha ular ge-gunь, gyanь-gunь, xyagas deb yuritilardi. Yenisey bo'yida Qirg'izlar yashagan hududlar olimlar e'tiborini o'zining boy va qiziqarli arxeologik topilmalari bilan jalb qilgan edi. Olimlarning ta'kidlashicha, bu yerlarda yashagan odamlar turli xil metallarni topish bilan ham shug'ullangan.

1949 yili nashrdan chiqqan S.V. Kiselyovning "Drevnyaya istoriya Yujnoy Sibiri" deb nomlangan kitobida muallif eramizdan avvalgi III-II ming yilliklardan eramizning VIII-X asrlarigacha bo'lgan davr mobaynida janubiy Sibir xalqlarining tarixiy rivojlanish bosqichlari haqida qimmatli ma'lumotlar bergan. Eramizning boshlarida Qirg'izlar davlati vujudga kela boshlagan ekan. Davlat o'jo yoki bek tomonidan boshqarilib, avval harbiylar, oddiy xalq, keyin esa qullar turishgan, ya'ni o'sha davrda davlat ancha keng rivojlanganligi, ijtimoiy differentsiatsiyaning mavjudligi ahamiyatlidir. Qirg'izlar asosan chorvadorlik bilan shug'ullanganlar, ammo yerga ishlov berilishi haqidagi ma'lumotlar arxeologik topilmalar (qo'l tegirmonlar, o'roqlar) yordamida ma'lum bo'ladi. Qadimgi Qirg'izlarning diniy tasavvurlari va marosimlari juda sodda shaklda bo'lganligi olimlar tomonidan aniqlangan. Alohida

xurmatga sazovor ayol ilohi Umay uy va bolalar qo'riqchisi sifatida izzatlangan. Ushbu afsonaviy ilohning nomi hozirgi davr maqollarida ham uchraydi. Arxeologik qazish ishlari natijasida temir doirasimon skoba topilgan. Unga qo'ng'iroqlar, shaqildoqlar ilingan bo'lib, shomon qo'llaydigan asbob deb taxmin qilinadi. Demak, qadimgi Qirg'izlarda shomonchilik ham rivojlangan deb taxmin qilish mumkin.

Eramizning boshlarida Qirg'izlarning tasviriy san'at sohasi ham ancha rivojlangan edi. Aynan shu hududlarda "Skif-sibir hayvon uslubi" rivojlangan. Ko'pgina topilgan tasvirlarda hayvonlarning turli holati aks ettirilgan (ov, o'tlash).

Ko'rib chiqilayotgan davrda Qirg'iz qabilalarida musiqa ham ancha rivojlanganligi ma'lum bo'ladi. Musiqa ko'pgina xalqlardagi kabi mehnat jarayonlari bilan bog'liq holda (sinkretik) rivojlangan.

Yaqin davrlargacha Qirg'izlarning hayotida qadimgi davr unsurlari saqlanib qolgan. Bular, animistik tasavvurlar va dinlar, turli afsonlar, ular bilan bog'liq repertuarlardir. Masalan, yuqorida aytib o'tilgan Umay, Arbak - o'tgan qavmlar ruxi, Jer-su - yer-suv, jinlar - yovuz kuchlar, yaxshi kuchlar va hokazo.

Qirg'iz xalqining ma'lum arxaik musiqiy-poetik janri mavjud bo'lib, unda barcha animistik qarashlar, qadimgi davr unsurlari o'z aksini topgan (afsun o'qishlar, marosimlar rechitatsiya uslubidagi aytilmalar yordamida o'tkazilgan). Ehtimol, rechitatsiyaning qadimiy turlari ham o'sha davrda shakllangan. Bundan tashqari sodda marosim qo'shiqlari (chorvachilik bilan bog'liq), yig'i aytilarlari, lirik qo'shiqlar ham mavjud bo'lgan.

Qirg'izlar qo'shni xalqlar bilan ham turli munosabatlarda bo'lganlar. Eramizning II-VI asrlarida Qirg'iz xalqining turmush tarzi qanday bo'lganligi haqida ma'lumotlar deyarli yo'q. VI asrga kelib tarixda turk-o'g'uz qabilalari vujudga kelganligi ma'lum. Ular Xitoydan Vizantiyagacha bo'lgan yerlarni egallagan edilar. Turk xoqonligi tarkibiga Yenisey Qirg'izlari ham kiritilgan edi. Bir qator urushlardan so'ng VI-VII asrlar mobaynida Qirg'izlar o'z avtonomligini saqlay olishdi. IX-X asrlar Qirg'izlar tarixida xarbiy yutuqlar va hududlarning kengayishi bilan ta'riflanadi.

Qadimgi Qirg'iz xalqining yozuvlari ham ancha qiziqarli masaladir. Qirg'iz tili turkiy tillar tizimiga tegishli bo'lib, bir qator

o'ziga xos qirralari bilan ajralib turadi. Masalan, eramizdan VI-VIII asrlariga tegishli qadimgi Qirg'iz yozuvlari tarixchilar, tilshunoslar uchun juda qiziqarli materialdir. Tilshunoslarning maxsus tahlilidan ma'lum bo'lishicha, topilgan madaniy yodgorliklardagi yozuvlar ko'p hollarda badiiy shaklga ega bo'lib, ularda timsol, o'xshatish kabi qirralar mavjud. Taxmin qilinishicha ushbu yozuvlar badiiy ijodiyot turi bo'lmasdan, balki qo'shiq tarzida rivojlangan.

X asr improvizatsiya tarzidagi qo'shiqchilik san'ati XIX asr ijrochiligi bilan bir xil deyilsa, mubolag'a bo'lmaydi. O'sha davr epitafiyalari (bag'ishlov) ancha murakkab shaklda bo'lib, yuqori saviyali musiqiy ifodani talab qilardi. Ta'kidlash mumkinki, bu davrda ma'lum shakllar, ijodiy an'analar va shu an'analarning namoyandalari bo'lmish qo'shiqchi (improvizatorlar) ham mavjud bo'lgan, ular o'tgan hukmdorlar nomiga bag'ishlovlar (panegirik odalar) ijod qilishgan. Qo'shiqchilar albatta boshqa janrlarda ham, masalan, "arnov" - qahramonlar maqtovi, "qordov"larda esa yomonlikni qoralashgan. Aqinlarning o'zaro baxslashuvi kabi ijro shakllari shu davrlarga tegishlidir.

Qo'shiq improvizatsiyasi san'ati xalq orasida ham keng tarqalgan edi. Masalan, ma'lum usulga solingan o'qish uslubi asosan ibodat vaqtida qo'llanilgan. Tarixiy hujjatlarning guvohlik berishicha o'sha davrda musiqiy cholg'ular ham bo'lgan ekan. Masalan, qiyof cholg'usida qiyofchilar bola yig'isi, chol va kampirning mojarosi, ona va bolaning so'zlashuvini aks ettira olganlar. Turli tarzidagi ovoz o'xshatishlar qomuzda ham ijro etilgan.

Qirg'izlarda ularning chorvadorlik va ovchilik sharoitlari bilan bog'liq ko'pgina cholg'u kuylari ham mavjud. Mazkur kuylarning kelib chiqishi qadimiy qo'shiqlar paydo bo'lgan davrlarga tegishli ekanligi ta'kidlanadi. Qadimgi epik aytimlarda bayramlar bilan bog'liq ziyofatlar haqida hikoya qilinadi. Ularda xalq qo'shiqchilari va musiqachilar ishtirok etishgan.

Mehnat bilan bog'liq, ya'ni yerga ishlov berish, dehqonchilik jarayonlari bilan bog'liq qo'shiqlar aynan o'sha davrda juda urf bo'lgan. Ehtimol "Op mayda" (xo'p mayda) qo'shig'i o'sha zamonlardan bizning davrimizgacha yetib kelgandir. Hozirda unutilgan "Shamol chaqirish" ham qadimgi marosimlardan hisoblanadi.

IX-X asrlarda Qirg'iz xalqi batamom har sohada yetuklikka erishdi deyish, noto'g'ri. Hujjatlarda ta'kidlanishicha, ijtimoiy va iqtisodiy notenglik haqida xalq eposi "Manas"da ham ma'lumot berilgan. Sinfiy notenglik xususida "O'rxun-Enasoy" xatlarida ham eslatib o'tilgan. Qadimgi yozuvlarda "Osmon sifat", "Osmon elchisi" kabi iboralar uchraydi, bu shundan dalolat beradiki, o'sha davrda qo'shiqning o'ziga xos janri mavjud bo'lib, ular hukmdorlar sharafiga ijro etilgan. Bundan tashqari esa xalq orasida mehnat, marosim, lirik, cho'pon qo'shiqlar rivojlangan. Bizning davrimizgacha yetib kelgan "Jilqichi" qo'shig'i otboqar SHirildon nomi bilan bog'liq.

Chingizxon bosqinchiligi davridan to XVIII asrgacha bo'lgan vaqt mobaynida qirg'iz xalqining hayoti haqida tarixiy ma'lumotlar kam. Yenisey bo'ylariga rus xalqi kelgan vaqtda Qirg'izlar alohida xonliklarga bo'linib ketgan edilar: ba'zilar mo'g'ul, ba'zilar esa qalmiqlarga o'xshar edilar. Akademik Bartoldning yozishicha XVIII asrda qirg'izlarning madaniyati X asrdagiga nisbatan ancha past edi. Ruslar bu yerlarda na shahar, na yozuv topa olganlar. Qirg'izlar yana ko'chmachilik hayot tarziga qaytib, ovchilik bilan shug'ullana boshlagan edilar.

Tarixdan ma'lum bo'lishicha, Chingizxon bosqinchiligi davrida nafaqat qirg'izlar, balki Markaziy Osiyodagi barcha xalqlarning hayoti, madaniyat saviyasi pasayib ketgan edi.

Yenisey qirg'izlarining tarixi juda fojeaviy yakunlangan. 1703 yili Rossiyaga kelgan xabar ko'ra Qirg'iz yeriga 2500 ta qalmiq kelib ularni qirib yuborgan. Ammo ko'pchilik olimlarning fikricha, Qirg'izlar Yeniseydan Tyan-Shan vodiylariga ketishgan (XVIII asr) ekan.

Qirg'iz musiqasi tahlil etilganda, u koproq Shimoldagi turkiy xalqlarga yaqinligi aniqlanadi. Musiqa tarixi nuqtai nazaridan, qirg'iz xalqining shakillanishi, uning madaniyati rivojida Oltoy va Yenisey bo'ylarda yashagan turk qabilalarining ta'siri katta bo'lgan. Ammo qirg'iz xalqining tarixini faqat Yenisey Qirg'izlari tarixi bilan chegaralash albatta xato bo'lardi.

1941 yili Chu kanali qurilishi davrida juda katta arxeologik materiallar topilgan. Bu yerdan topilgan narsalarning aksariyat qismida Shimoliy Qirg'iz xalqlari bilan bog'liqlik ishoralari bor edi.

Xitoy manbalardan ma'lum bo'lishicha, eramizning II asrida Qirg'iziston hududida Usuni nomli ko'chmanchi xalq yashagan ekan. Usunilar Sak qabilalarining avlodi hisoblanadi. O'tgan davrida Chi-gun shahri usuniy qabilalarining markazi bo'lib, u Issiq-ko'l bo'yida joylashgan edi.

VI asrda vujudga kelgan Turk xoqonligi Qirg'iziston hududidagi xalqlarni ham o'ziga bo'ysundirgan. Ammo urushlar Qirg'izistonning madaniyatiga yomon ta'sir ko'rsatmagan.

Xitoyga yaqin bo'lgan ushbu xudud musiqasi haqida Xitoy manbalarida ma'lumotlar keltirilgan. Mazkur manbada Turk xoqoni Xitoy hukmdori sharafiga bergan ziyofati haqida yozilgan: "Ziyofat davomida turli nozu-ne'matlar dasturxonga tortildi, ziyofatda musiqa ham yangrab turdi. Xitoylar uchun ushbu musiqa yovvoyiroq tuyulsada, Qirg'izlarga juda yoqayotgani bilinib turardi".

Qirg'izistondagi turklar hukmdorligi o'rnini qora-xitoylar egalladilar. Bu xalq tunguz-manchjurlardan kelib chiqqan edi. Ammo bosqin natijasida mahalliy musiqiy an'analar deyarli o'zgarmagan.

XIII dan XV asrgacha bo'lgan davr Chingizxon bosqinchiligi davri sifatida tarixga kiritilgan. XVI-XVII asrlar qirg'izlar qalmiq, o'zbek va mo'g'ullar bilan olib borgan urushlar haqida ma'lumotlar bor. Qirg'iz qabilalari o'zaro ham totuv yashamadilar. Bunga yaxshi yaylovlar ko'proq sabab bo'lardi.

Qirg'iz urug'lari va qabilalariga biylar boshchilik qilardilar. Undan so'ng esa manaplar, qabila boshlig'i turardi. Manapning atrofida o'zining qo'shiqchi, musiqachi va aytimchilari bo'lgan. Manap tantanali chiqishlari vaqtida ular yonida bo'lib, olqishlab borishgan.

Bu davrda qirg'iz xalqi juda qiynalib yashagan. Buning natijasida g'am va alamga to'la "Armon" qo'shiq janri vujudga keldi.

XIX asrda Rossiya bilan siyosiy-iqtisodiy munosabatlar boshlanganda qirg'iz madaniyatiga yangiliklar kirib keldi. Bu davrda ham chorvachilik asosiy o'rinda turar edi. Kuzga yaqin mollar qishlovga vodiylarga qaytardilar. Qishlov vaqtida o'tovlarda ertak, afsonalar aytilardi ("Manas" eposidan). Ba'zida katta to'y yoki osh marosimi o'tkazilardi. Ular asosan boylar tomonidan uyushtirilib, bunda xalq ijrochilari o'z ijod namunalari bilan chiqishlar qilardilar. Ular aqinlardir.

Tarixiy hujjatlarda Qirg'izlar (XVII) kofirlar deb yuritilgan. Islom dini Qirg'iz xalqiga nisbatan kechroq singdirilgan. Qirg'izlar hayotida shomonchilik va ajdodlarga sig'inish kabi topinishlar ustunlik qilgan. SHu sababli Qirg'izlar shamol va yomg'ir chaqirish afsunlari, tabiatga sig'inishning turkumli marosimlarini o'tkazib, kasalni davolash uchun afsunlar o'qir edilar. Bu marosimlarni sanab o'tilishining sababi, ularda ma'lum darajada musiqaning ishtirok etishidir.

Boshqa xalqlardagi kabi qirg'izlarda ham qo'shiq insonning butun hayoti davomida hamroh bo'lib kelgan va hayotiy voqeliklar turli musiqiy janrlarda aks ettirilgan.

Qirg'iz musiqasi asosan epik xarakterda bo'lib, soddalik, aniqlik uning qirralaridir. Qirg'izlarning musiqiy dunyoqarashida hayotiy voqeliklar muhim ahamiyat kasb etadi. Qirg'izlarning cholg'u musiqasi dasturlidir. Qadimiy afsonalarga ko'ra, Qirg'iz musiqasining asoschisi deb ovchi Qambarni aytishadi. U birinchi bo'lib, daraxtdan qomuz yasab, qo'yning qurigan ichaklarini tortib, kuy ijro etgan ekan. Kuy uning sharafiga "Qambarqan" deb nom olgan ekan.

Har bir ijro etilgan musiqiy asar haqida ijrochi kuy qaysi voqelikka atalgani, unda nima haqida "bayon" etilayotganini so'zlab beradi. Qirg'izlarda "Jeldirme" so'zi mavjud bo'lib, asli ma'nosi - "mushuk yurish". Mazkur termin rechitativ - tez aytuv uslubiga nisbatan ishlatiladi. Bunday ijro uslubi aqinlarining ijrochilikda qo'llaydigan sevimli uslubidir. Mazkur uslub xalq ijrochiligida ham ishlatiladi.

Qirg'iz musiqasida ko'pgina quvnoq, o'yinqaroq qo'shiqlar, jadal raqs kuylari, xajviy timsollar mavjud. Faqat "Manas" ijrosidagina keng ekspressiyani kuzatish mumkin. Qirg'iz musiqasida mayin lirik kuylar ham bor. Ayniqsa, cho'pon kuy va qo'shiqlari bunga misol bola oladi.

Qirg'iz musiqasi Markaziy Osiyo xalqlaridan koproq turkmanlarning musiqa madaniyatiga yaqin (ayniqsa cholg'u janrlari bo'yicha): dastur, o'zgaruvchan metrika va hokazo. O'zbek va tojik musiqasi bilan o'xshashlik tomonlari esa, ko'proq xalqlar aralashgan holda yashaydigan hududlarda uchraydi. Qozoq musiqasi bilan umumiylik qirralari terminologiya, cholg'ular, ijro etish shakllarida namoyon bo'ladi.

Turli janrlarning kuyi solishtirilganda, qirg'iz musiqasidagi qirralar diapazoni kichikligi seziladi. Masalan, qadimgi bir qo'shiqning kuyi qahramonlik eposida, lirik qo'shiqda, cholg'u asarda uchrashi mumkin. Melosning noturg'unligi, ma'lum bir she'r va janrga biriktirilmaganligi qirg'iz musiqasining muhim qirrasidir. Qo'shiqchi biror bir kuyga o'zi hohlagan so'zlarni moslashtirib ijro eta olgan.

Avvaliga Qirg'iz xalq musiqa ijodiyotida solo ijrochiligi rivojlangan. Turli xildagi ijrochilik tanlovlari o'tkazilib, cholg'uchi va qo'shiqchilar ketma-ket tarzda chiqishlar qilardilar. Qirg'iz xalq musiqasida asosan bir ovozli faktura qo'llanilardi.

Qirg'iz musiqasining yuragi - kuydir. Kuy bosqichma-bosqich, to'liqsimon tarzda rivojlantiriladi. Qirg'iz musiqasining ladlari turli-tuman emas. Cholg'u kuylari ko'proq major ladida berilsa, qo'shiqlarning ladi esa o'zgaruvchan. Qo'shiq va cholg'u kuylarning tahlili major (miksolidiy) ladi ko'p qo'llanishini tasdiqlaydi. Undan so'ng esa doriy va frigiylar ladlari nisbatan ko'p qo'llaniladi..

Qirg'iz kuylaridagi lad o'zgaruvchanligi ko'proq jonli ijro jarayonida seziladi. Qirg'iz kuylari xuddi ladlar singari diatonikdir. Ammo xromatizm umuman yo'q deyish ham mumkin emas.

Qirg'iz musiqasining ritmikasi o'zbek ritmlaridan farqli ravishda murakkab emas. Ammo qirg'iz musiqasining metrikasini umumiy sxemalarga tushirib bo'lmaydi, ularni taktlarga ham ajratish mushkullik tug'diradi. Qo'shiqlarda metrika she'r vaznlari bilan bog'liqlikda bo'lsa, cholg'u musiqasida metrika juda erkin. Raqs xarakteridagi musiqada esa metrikani aniqligini kuzatish mumkin. Qirg'iz musiqasining uslubiy qirralari umumiy rivojlanish jarayonida o'zgarib, boyitib borilgan.

Janrlar

Qirg'izcha **ir** so'zi tarjima qilinganda qo'shiq ma'nosini anglatadi. Vokal janridagi asarlar ana shu so'z bilan ataladi. Faqatgina doston janriga nisbatan **jomoq** atamasi qo'llaniladi.. Ir so'zidan - irchi, jomoqdan esa jomoqchi-dostonchi (baxshi) so'zlari kelib chiqqan. Qirg'iz xalqi poetik-qo'shiqchilik improvizatsiya lariga moyilligi baland bo'lgani uchun, ba'zan qo'shiq qayerda tugab, ba'zida qayerda boshlanganligini tushunish mushkul. Xattoki ertaklar ham qo'shiqlar

shaklida aytiladi. Qadimiy merosda turli afson va jodularning o'zni alohida bo'lgan. Tabiblar kasalni tuzatish maqsadida afsonlar o'qiganlar. Masalan, bahorda birinchi momaqaldiroq bo'lgan kuni, ayollar tashqariga yugurib chiqib, temir idishlarni taqillatib, yarim gapirish, yarim-kuylash uslubida yomg'ir yog'ishini, o't-o'lanlar chiqishini, qo'y-qo'zilar uni yeb, sut berishini so'raganlar. Bu tarzda afson o'qish Dambirtash deyilgan.

Qo'shiq ham yig'i ham kelinni kuyovnikiga ketar chog'ida ijro etiladigan qo'shiq ham bo'lishi mumkin. Odam vafot etganida uyga Yig'i beruvchi ayollar (kasb) taklif qilinib, ular o'lgan odamni hayotlik vaqtida bajargan jasoratlari, yaxshiliklarini maqtab yig'lashgan. Yig'i-qo'shiqlarning kuylari mashhur bo'lib, ular ijrochi tomonidan uning ijro mahoratiga qarab o'zgartirilgan. Masalan, boy odamga atalgan Yig'i va oddiy odamga aytiladigan Yig'ilar orasida katta farq bo'lgan, ya'ni boy odamga atalgan Yig'ilarida uning xayotiy jasoratlari bo'rttirib ko'rsatilgan. Ba'zan Yig'i-qo'shiqlarini aqinlar ham ijod qilishgan.

Shirildan ham vokal janr bo'lib, u otboqarlar (jilqichilar) qo'shig'idir. Shirildan, cho'ponlar tog'lardan ovulga kelayotgan vaqtida ijro etilgan. Shirildan kechasi, otda o'tirgan holatda ijro etilgan. Qo'shiqni eshitgan uy egasi ehson olib chiqib yilqichiga bergan. Mazkur janr ijrosi she'r o'qishga o'xshab ketadi. Ammo u ma'lum ritm, qayta-qayta takrorlanib keladigan motivdan tuziladi. Shirildan bir yoki bir guruh yilqichilar tomonidan ijro etilgan.

Shirildanga o'xshash yana bir vokal janri Jaramazandir (Yo, Ramazon). Jaramazon ro'za oyida ijro etilgan. Jaramazan boy xonadonlar oldida yoshlar tomonidan ijro etilib, nazr-niyoz so'ralgan.

To'ylarda ijro etiladigan qo'shiqlar ham alohida o'ringa ega bo'lgan. Markaziy Osiyo xalqlarining aksariyati ijro etadigan "Yor-yor" aytimi qirg'izlarda ham mavjud.

Ta'kidlab o'tish joizki, ba'zi bir marosim bilan bog'liq kuyni, boshqa marosimlarda ham eshitish mumkin. Bunda she'riy matn o'zgartirilib, kuyga moslashtiriladi.

Xalq orasida keng tarqalgan va sevimli janrlardan yana biri, ayollar tomonidan ijro etiladigan "Bekbekey" qo'shig'idir. Qo'shiq kechasi qo'ylarni qo'riqlovchi ayollar tomonidan ijro etiladi.

Qo'shiq uxlab qolmaslikka, bo'rilar ni yaqinlashmasligiga yordam bergan. Qo'shiq kuyi g'amgin bo'lib, ayolning ichki kechinmalarini ifoda etgan. Mazkur qo'shiqda "Ey", "Oy duyt" kabi so'zlar ham bo'lib, ular ayollar bir-birini chaqirish, bo'rilar uchun esa qo'rqitish ma'nosidagi qichqiriqni anglatgan. Bekbekey ham xuddi SHirildan kabi bir ijrochi yoki guruh tarzida ijro etilgan.

Qadimiy qo'shiqlardan biri "Op-mayda"dir. "Op-mayda" qo'shig'i don yanchish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, qo'shiq jadal sur'atli, harakatchan xarakterlidir. Metro-ritm aniq belgilangan. Ba'zi birlari SHirildanga o'xshab, rechitativ xarakterda bo'lsa, boshqalari qo'shiq shakllariga yaqin. Yuqorida marosim va mehnat qo'shiqlarining keng tarqalgan turlari haqida fikrlar bayon etildi. Ularning umumiy tomonlari: a) qadimgi tur; b) she'r va kuyning bir-biriga bog'liqligi; v) rechitativ ijro usubi.

Qirg'iz xalqining lirik qo'shiqlarining turlari:

a) "Ashiqtiq irlari", ya'ni muhabbat kuylari. Ashiqtiq irlari sirasiga "kuyg'an" (sevgidan kuygan) va seketbay (sevgilim) qo'shiqlari kiritilgan.

b) Arman (armon) - alam va dardni ifodalovchi qo'shiqlar.

v) Jilqichi va qo'ychulardan iri - yilqichi va cho'ponlar qo'shiqlari.

g) Qizdar iri - qizlar qo'shiqlari.

d) Kelinder iri - ayollar qo'shiqlari.

e) Jigitder iri - yigitlar qo'shiqlari.

Qayd etilgan guruh qo'shiqlari bir-biridan ko'pincha faqat she'riy matni bilan farqlangan, kuylari esa o'zaro yaqin. Ya'ni, bir kuyga bir necha turdagi she'rlar moslashtirilgan. Qirg'iz cho'ponlarining hayoti musiqa bilan bog'liqdir. Ularning qo'shiqlari melodik jihatdan yaxshi rivojlangan.

Yoz kechalarida yoshlar yaylovlarda yig'ilishib turli qo'shiqlar aytib, o'yinlar o'ynashgan. Bunday yig'ilishlarning o'z repertuari bo'lib, "Selkinchek" qo'shig'i mashhurdir. Qo'shiq yengil, sodda va harakatchan xarakterga ega. Qo'shiq kuyiga turli to'rtliklar moslashtirilib ijro etish mumkin. "Selkinchak" eng keng tarqalgan va mashhur aytimdir.

Qirg'iz folklor musiqasining bolalar uchun repertuari ham bor.

Eng keng tarqalgan janr "Beshik iri"dir (Alla). "Beshik ir"larida onalar o'z o'g'illarining kelajakdagi qahramonliklarini kuylashadi.

Allalar ona tomonidangina ijro etilib kelingan bo'lsa-da, qirg'iz xalqida ota, aka va opa allalari ham mavjud. Alla aytimlarining so'zlari improvizatsiya tarzida ijro etilsada, kuylari turg'un, ma'lum darajada xalq orasida tarqalgan bo'ladi.

Vokal janridan biri - aqin aytimlaridir. Aqin-shoir, ijrochi-improvizatsiyachi bo'lib, u o'zi bastalagan qo'shiqlarni aytib, o'ziga qomuzda jo'rsoz bo'lgan. Aqin ijodiga rechitativ tarzidagi ijro uslubi xosdir.

Aqinlarning repertuari turli mavzulardagi asarlarni qamrab oladi. Markaziy o'rin didaktik, pand-nasihat xarakteridagi asarlariga beriladi. Bunday asarlar sanat (nasihat) deyiladi.

Sanatlardan keyin "Arnoo" (bag'ishlov qo'shiqlari), so'ngra "Quttuqtoo" (olqishlov qo'shiqlari) turadi. "Qordoo"lar - "Qoralovchi", yomonlovchi qo'shiqlardir.

Aqinlar ijodida aytishuv shakli alohida ahamiyatga ega. Aytishuvlarda ikki aqin ijrochilikda bellashadi va yakunida bir aqin g'alaba qozonadi. Aqinga baho berishga uning ijro mahorati, repertuarning turli asarlariga boyligi, ovozning kuchi ahamiyatlidir.

Aqinlar Qirg'iz xalqi hayotida muhim rol o'ynaydi. Ulardan turli yig'ilishlar uchun jarchi sifatida ham foydalaniladi. Xalq hayotidagi har bir muhim voqelik albatta, aqin ijodida o'z aksini topadi.

Vokal janridan yana biri - eposdir. Qirg'iz xalqining eng monumental qahramonlik eposi - "Manas" bo'lib, bosh qahramon nomi bilan atalgan. Eposning markaziy, rivojlantiruvchi g'oyasi - Qirg'iz xalqining erkinlik uchun kurashidir. "Manas"dan tashqari hajm jihatidan kichikroq bo'lgan, lirik-romantik mavzulardagi dostonlar ham mavjud. Xalq orasida lokal dostonlar ham tarqalgan bo'lib, ular ma'lum bir tuman chegarasida ijro etiladi.

"Manas" eposining ijrochilari manaschilar deb ataladi. Manaschilar yodlarida minglab she'riy misralar, ko'plab ismlar, voqe'liklarni saqlaydilar. Ular poetik improvizatsiya iste'dodiga ega bo'lib, an'anaviy shakl doirasida, eposning boshqa variantlarini ham ijod qiladilar.

Kichik hajmdagi dostonlar aqinlar tomonidan ijro etiladi. Manaschilar cholg'u jo'rligisiz ijro qilsalar, aqinlar qomuz yoki qiyoy cholg'ulari jo'rligida ijro qiladilar.

Epos rechitativ uslubida ijro etiladi. "Manas"da o'ziga xos

bo'lgan, xarakterli epik aytimlari mavjuddir. Kichik xajmdagi dostonlar esa ma'lum ifoda vositalariga egadir. Shu bilan birgalikda manaschi va aqinlarning ijrochiligida o'zaro umumiy qirralar ham kuzatiladi.

Qirg'iz xalq musiqasi ijodiyotida vokal janrlar asosiy o'rinni egallaydi. Cholg'u musiqasi vokal musiqasi kabi keng rivoj topmagan. Cholg'u janrlarining vokal janrlari bilan bog'liqlik tomonlari ko'p. Cholg'u asarlarining aksariyatida qo'shiqning qirralari seziladi.

Qirg'izlarda "kuy" musiqiy atamasi mavjud bo'lib, asosan mumtoz cholg'u asarlariga nisbatan qo'llaniladi.: Qambarqan, Shingrama, Kertolg'oo, Botoy va boshqalar. Yuqoridagi har bir asarga qo'shiq xarakteridagi kuy asos qilib olingan.

Musiqiy janrlar bilan birgalikda xalq orasida keng tarqalgan boshqa turdagi janrlar ham mavjud. Mazkur janrlar musiqachi va qo'shiqchilar tomonidan ijro etiladi. Bunday ijrochilar "quudul"lar deyiladi. Quudullar - qiziqchilar bo'lib, ular ovozlari taqlid qilishni, hazil xarakteridagi qo'shiq aytishni, qiziqarli hikoya aytishni, qomuzda yumoristik asar ijro etishni bilishgan.

O'tmishda qirg'iz xalqining kasbiy darajadagi teatri bo'lmagan. O'zbek xalqining masxarabozlik, qo'g'irchoqbozlik kabi xalq tomoshalari Qirg'izlarda rivojlanmagan. Ammo teatrlashtirish qirralari ko'pgina xalq musiqachilari, manaschi va quudullar chiqishlarida kuzatiladi.

Aytim janrlari

Umumiy tavsifnoma

Qirg'iz xalqining vokal ijodiyotida uning boy tarixi, ma'naviy va mehnat tajribasi aks ettiriladi. Qo'shiq xalqning kundalik yo'ldoshi. Qo'shiqqa bo'lgan muhabbat umummilliy xarakterga ega. Og'zaki an'anadagi vokal madaniyati ming yillar davomida shakllangan, rivojlangan va sayqallangan. Natijada uning badiiy-ifodaviy va mantiqiy-konstruktiv tamoyillari va vositalari shakllandi. Keng ma'noda xalq ijodiyotining vokal tarmog'i epik asarlar, aqinlar kompozitsiyalari va xalq qo'shiqchiligining turli janrlarini o'z ichiga oladi. Hattoki cholg'u musiqa ham qo'shiqchilik nafasi bilan yo'g'rilgan.

Qadimiy musiqiy an'analarga ko'ra, ijodkorlik va ijrochilik hamjihatlikda kechgan. Vokal folklorining asosiy atamasi - "ir". "Ir" atamasi (qadimgi turkiy so'z) "qo'shiqni" anglatadi. Mazkur atamaning boshqa ma'nosi "she'r"dir.

Qo'shiqchilik san'ati vakillarini "irchi"lar deyishgan. Irchilar uch toifaga ajratilgan: chon irchi - katta qo'shiqchi; orto irchi - o'rtamiyona qo'shiqchi; kichine irchi-kichik qo'shiqchi. Bunday tarzidagi toifalashtirish, ijrochining ijodkorlik mahorati va ovozinin g kuchi bilan bog'liq edi.

Qirg'iz xalq qo'shiqchilik madaniyati ikkiga ajratiladi. Birinchi guruhga mehnat jarayoni bilan bog'liq qo'shiqlar kiradi. Ikkinchi guruhga esa lirik janrlar; bolalar, yoshlar, hazilnamo qo'shiqlar; tarixiy qo'shiqlar kiradi. Qirg'iz musiqasi monodiya (bir ovozli) tarzida rivojlanib kelgan.

Mehnat qo'shiqlari

Qadim zamonlarda qo'shiq folklori mehnat jarayoni bilan bog'liqlikda rivoj topgan. Mehnat bilan bog'liq uchta janr ajralib turadi: "bekbekey", "shirildan", va "op mayda". Mazkur janrlar taxminan Bronza davrida vujudga kelganligi aniqlangan.

"Bekbekey" - cho'pon qo'shig'ining qadimiy turidir. Mazkur janr ayollarning uy hayvonlarini qo'riqlash jarayonida vujudga kelgan. Bekbekey erta bahor, qish va kech kuz paytlarida ijro etilmagan. Chunki bu mavsumlarda qo'y-qo'zilar qishlovda, ya'ni ovulda bo'lar edi. Mollar asosan yoz oylarida, yaylovlarga chiqqanda qo'riqlanardi. Ayollar guruh tarzida qo'riqchilik qilib, "bekbekey" qo'shig'ini ijro etadilar.

1920-1940 yillari A.Zataevich, V.Vinogradov, A.Maldibaevlar "bekbekey" janri namunalarini yozib olishga muvaffaq bo'lganlar. CHunki XX asrga kelib, mazkur janr deyarli yo'qolib ketgan.

Qadimiy otboqarlarning mehnat qo'shiqlaridan biri "shirildan" bo'lib, tadqiqotchilar V.Vinogradov, A.Zataevichlarning fikricha "shirildan" qo'shiqlari kuz mavsumida, ya'ni otboqarlar tog'lardan ovulga tushgan vaqtida ijro etilgan. Mazkur janrning dastlabki nota yozuvi A.Zataevich tomonidan amalga oshirilgan.

Shirildan janri paydo bo'lgan va rivojlangan davrini aniqlash mushkul. Bu masalaga oydinlik kirituvchi aniq tarixiy ma'lumotlar

yo'q. "Shirildan" janri ham, "Bekbekey" singari XIX asrning oxiriga kelib umuman ijro etilmay qo'yilgan.

"Shirildan" qo'shiqlarining kuyi sodda ritmik va ohang tuzilmalaridan tashkil topadi. V.Vinogradov va A.Maldibaevlar tomonidan yozib olingan ushbu janrdagi qo'shiqlarning kuyi va she'riy matni turlicha bo'lsa-da, umumiy rechitativsimon tuzilishda ekanligi aniqlangan.

"Op mayda" ham qadimiy aytim janrlaridan hisoblanadi. "Op mayda" janri Qirg'izistonning avval janubida vujudga kelib, so'ngra shimoliy hududlariga tarqalgan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Bronza davrida dehqonchilik Janubiy Qirg'iziston xalqlarining asosiy ishi bo'lgan. SHimolda esa chorvachilik rivojlangan. SHunga ko'ra, dehqonchilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari shu xududlarda vujudga kelib, rivojlangan.

"Op mayda!" - don yanchish jarayoni bilan bog'liq aytim bo'lib, u solo yoki unison bo'lib ijro etuvchi guruh (ansambl) tomonidan kuz mavsumida ijro etilgan.

"Op mayda" janridagi aytilar, V.Vinogradov va A.Maldibaevlar tomonidan notaga tushirilgan. V.Vinogradov notalashtirgan "Op mayda" namunasida aytim diapozoni kichik septimani tashkil qiladi. Ijro etish uslubi esa rechitativ rubato tarzida kechadi. Metriritm erkin tarzda, urg'u ham noaniq berilgan.

"Op mayda" - musiqiy poetik janr bo'lib, Markaziy Osiyo xalqlarining qo'shiqchilik ijodiyotida keng tarqalgan.

XX asrga kelib, hayot tarzi rivojlanishi bilan "Op mayda" aytimi uchun shart-sharoitlar yo'qoladi.

Marosim janrlari

Inson hayoti marosimlar bilan chambarchas bog'liq. Marosimlar oilaviy-maishiy, diniy, mavsumiy turlarga bo'linadi. Asosiy marosimlar farzand tug'ilishi, nikoh to'yi, diniy bayramlar, inson vafot etishi bilan bog'liq. Farzand tug'ilishi bilan bog'liq marosimlar bir nechta bosqichlarni tashkil qiladi: jentek to'y (bola tug'ilishi bilan bog'liq yo'qlov), at qo'yu (ism berish), beshik to'yu (beshik to'y), sunnetke o'turg'uzu (sunnat to'y), chach alduru (birinchi soch kesish) va boshqalar. Beshik to'yi marosimi bizning davrimizgacha yetib kelgan.

Qirg'iz xalq an'anaviy qo'shiqchilik madaniyatining muhim bo'limi deb nikoh to'yi aytm va qo'shiqlari hisoblanadi. Mazkur aytm va qo'shiqlar shaklan turli-tuman bo'lib, qirg'iz xalqining urf-odatlar, oilaviy an'analari, dunyoqarashini aks ettiradi.

Nikoh to'yi odatga ko'ra bir necha kun davom etgan va ikki asosiy qismlarga ajratilgan. "Qiz to'yi" kelinning xonadonida bo'lib o'tgan. Ikkala qism ham o'zida bir qator marosimlar, yoz o'yinlar, qo'shiqlar va cholg'u musiqani mujassam etadi.

Nikoh to'yidan avval yana bir marosim "Quda tushuu" o'tkazilgan. Kuyovning otasi qizning ota-onasiga sovchi yuborgan. Sovchi ijobiy javob olib qaytgandan so'ng kelinga "Qalin" berilgan.

Nikoh to'yi marosimi bazm bilan boshlanib, unda qo'shiqchilar, aqinlar, qomuzchilar ishtirok etishgan. Dastlab "Toy bashtar" qo'shiqlari ijro qilinib, kelin va kuyovni qutlab, yaxshi tilaklar bildirilgan. Undan so'ng turli o'yinlar o'tkazilgan. O'yinlar umumiy tarzda "Qiz o'yun" deyilgan. O'yinlarda qizlar va yigitlar ishtirok etishgan va to'y hazilomuz qo'shiqlar bilan yanada "qizdirilgan". Qo'shiqlar yakkaxon yoki dialog shakllarida ijro qilingan.

"Qiz uzatuu" marosimida qayg'uli xarakterdagi qo'shiqlar kuylangan. Kelinning yaqinlari yangi oilaga kuzatishda turli nasihatlar qilib, "Xayrlashuv" qo'shig'ini aytganlar. Ba'zan qo'shiq kelin tomonidan ijro etilgan.

Qo'shiq kuyining tuzilishi rechitativ tarzda bo'lsa-da, bo'g'inlarning cho'zib aytilishi natijasida kantilena qirralari vujudga keladi. Marosimning ikkinchi qismi yuqorida aytib o'tilganidek, kuyov xonadonida o'tkaziladi. Kuyov tomon kelinni "Jar ko'ruu" ("Kelinni ko'rish") qo'shig'i bilan kutib oladi. SHunday janr qozoq ("Jar-jar"), o'zbek, tojik ("Yor-yor"), uyg'ur ("Yar-yar"), qoraqalpoq va tatar ("Yar-yar"), ozarbayjon ("Er-er") xalqlarida ham mavjud.

To'y davomida nasihat, o'yin, xayrlashuv aytimlari kuylangan. SHular qatorida "Bet achar" ("Yuz ochdi") qo'shig'i ijro etilib, kelinni yuzi ochiladi.

Oilaviy marosimlar qatoridan dafn marosimi ham o'rin olgan. Dafn marosimi bilan bog'liq aytimlardan biri - "qoshoq" dir. Qoshoq - qadimiy oilaviy marosim aytimlaridan bo'lib, u qayg'uli,

g'amgin rechitativ tarzda ijro etiladi. Qoshoqlar dafn marosimida, keyin "qirq", "yil" marosimlarida ham aytib turilgan. Qoshoq ayollar tomonidan (qarindosh ayollar) ijro etilib, unda o'tgan odamni eslatuvchi voqealar bayon etilgan. Qoshoqlar ikki asosiy turda: dafn marosimi bilan bog'liq va yoqlov tarzida ijro etiluvchi qoshoqlar ("jo'qto'u").

"Jo'qto'u" - ham ayollar, ham erkaklar ijro etadigan marosim janridir. "Qoshoq" va "Jo'qto'u" larda vafot etgan odamning insoniy qirralari, mehnat qahramonliklari kuylangan.

Dafn marosimi bilan bog'liq yana bir Yig'i-aytimi - "o'kuruu"dir. "O'kuruu" (baqiriy) erkaklar va bolalar tomonidan aytiladi.

Dafn marosimida Yig'i berishni o'ziga kasb deb bilgan ayollar "qoshoqchi" deyiladi. Dafn marosimlari ham, to'y marosimlari ham qadimiy milliy madaniyat turlari dab hisoblangan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, "qoshoq"larning kelib chiqishi paleolit davridan boshlangan ekan.

Mazkur janrning keng tarqalganligini ko'pgina tadqiqodchilar ta'kidlaydilar. A.Zataevich 16 ta "qoshoq" yozib olgan. "Qoshoq"ning kuychangligi va she'riy sifati qoshoqchining mahorati bilan bog'liq bo'lgan ekan. Ayollar ijro etadigan Yig'i-aytimlar ifodaviy, keng nafasli bo'lsa, erkaklar va bolalarning Yig'ilari rechitativ tarzida ijro qilinadi. Erkaklarning Yig'i-aytimlari faqat dafn marosimi paytida ijro etiladi. Hozirgi davrda "Qoshoq" janri parda ortida qolmoqda. Mazkur janr ijrochilari ham kamayib bormoqda.

Taqvim bayramlari qadimiy zamonlardan vujudga kelib, hozirgi davrimizgacha rivojlanib kelmoqda. Masalan, Navro'z bayrami er.av. to'rtinchi ming yillikda nishonlanganligi ma'lum. Shu davrdan boshlab Navro'z bayrami Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan. Sharq taqvimi bo'yicha Navro'z Yangi yilning boshlang'ich kunidir. Navro'zda bajarilishi kerak bo'lgan ishlar quyidagicha: uylarni tozalash va yasatish; tansiq taomlar tayyorlash. SHunday taomlardan biri - Sumalak. Sumalak taomi Qirg'iz marosim aytimiga nom bergan.

Qirg'iz xalqining bahor-kuz mavsumlarida yer ishlari bilan bog'liq marosimlari umumiy tarzda "Chechkor" nomini olgan.

Chechkor o'ziga xos mehnat qo'shiqlari, o'yinlari, afsun o'qishlar bilan o'tkazilgan. Yoz oylarida chorvadorlarning "Ulush" bayramlari o'tkazilgan. Bu bayramlarning ham o'ziga xos aytimlari bo'lgan.

Musulmon bayramlari bo'lmish O'rozo ayt (Ramazon xayiti) va Qurman ayt (Qurbon xayiti)lar vaqtida marosim aytimi bo'lmish "Jaramazan" aytilgan ("Yo, Ramazon").

Evropa va Rossiya xalqlarida keng tarqalgan "Kolyadalar" bilan "Yo, Ramazon" aytimini taqqoslash mumkin.

"Yo, Ramazon" Markaziy Osiyo xalqlarining an'anaviy qo'shiqchilik folkloridagi janrlardan biridir.

Qadimiy, maxsus marosim janrlariga afsun o'qish ham kiradi. Ularda Qirg'izlarning kosmogonik tasavvurlari aks etgan. Odamlar afsun o'qish orqali yomon kuchlardan panoh topib, yaxshilik kuchlarini chaqirishgan.

Afsun o'qishda qisqa hajmli matnlar rechitativ tarzda, ma'lum usulga solib ijro etilgan. Ijro jarayonida usul tezlashib borgan. "Dambir tash" (bahorgi afsun), "Qut tushuu" (baxt keltiruvchi tosh haqida), "Joychi" (yomg'ir chaqiruvchi afsun), "Aydar kel" (shamol chaqiruvchi afsun), "To'n chiq" (teridan kiyim tayyorlash vaqtida o'qiluvchi afsun), "Badik aytuu" (baxshining davolovchi afsuni) va boshqalar.

Diniy topinishlar bilan bog'liq milliy musiqaning katta qatlami tarixda o'ziga xos bo'lgan iz qoldirdi. Ular baxshi va duvana (qalandar) aytimlari ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Baxshi - Qirg'iz xalq tabibi. Baxshi so'zi umumturk "bahs" esa sanskritcha "baxshish" so'zidan ("sovg'a , in'om ") kelib chiqqan.

Duvana (dubana, dumana) - islom dini bilan bog'liq so'fiylik ta'limotini targ'ib etuvchilar, Qirg'iz darveshi.

Shu nomlardan janrlarning yo'nalishlari ham kelib chiqqan: baxshi-shomon va duvano-darvish aytimlari. Duvano - darvish aytimlari , "ziki" atamasi bilan ham yuritiladi.

Duvana (Devona) va baxshilar ijodida umumiylik qirralari bo'lsa-da, har biri o'zining badiiy qonuniyatlari chegarasida ijod qilganlar. Shomonchilik (evenk "jazavaga tushish") - qadimiy diniy shakl va sinkretik san'at bo'lib, u o'zida diniy va estetik funktsiyalarni birlashtirgan.

Qirg'iz shomonlari o'zlari bilan asa-musa (xassa tayoq) ko'tarib yurganlar. Asa-musaga ovoz chiqaruvchi narsalar ilib qo'yilgan.

Baxshi san'atining muhim tomonlarini aytib o'tish joiz. Baxshilarning o'ziga xos raqsi bo'lgan. Raqs vaqtida baxshi sakrama va gimnastik harakatlar bajarib, atrofdagilarda gallyutsinatsiya holatini paydo qilishi kerak bo'lgan.

Shovqin, musiqa, ritmga solingan so'z matni, o'ziga xos kiyim, plastika va mimika baxshilarning maxsus sinkrezis san'atini tashkil qiladi. Baxshi o'tkazadigan marosim - individual ijodiyot hisoblanadi, shu sababli uni "bir aktyor teatri"ga tenglashtirish mumkin.

Baxshi marosimlarini o'tkazish murakkab jarayon bo'lib, baxshidan alohida iqtidor, tajriba talab qilardi. Tajribali baxshi bo'lib yetishish uchun ancha vaqt ketgan. Shuning uchun xalq baxshilarni ikki toifaga ajratgan. Tajribali, kuchli baxshilar "qora baxshi" nomini olgan. Shogird qatorida bo'lgan baxshilar esa "Aq bahshi" degan nom olgan.

Baxshichilik an'anaviy tarzda erkaklar kasbi hisoblangan. Kam holatlarda baxshichilik bilan ayollar ham shug'ullanganlar. Ular "bibi" deb nomlangan.

Qirg'izlar Islom dinini qabul qilgan holda, qadimiy diniy e'tiqodlarini ham saqlab qolgan xalqlardan biridir.

Qirg'iz xalqi Islom dinini qabul qilgandan so'ng, hayotning ko'p jabhalarida o'zgarishlar sodir bo'ldi, jumladan musiqada ham ijodiyotning yangicha shakllari vujudga kelib, rivojlandi. Devonalar (duvana) san'atida islomiy tendensiyalar namoyon etilsada, mahalliy xurofiy va shomon an'alarining ham ta'siri bo'ldi.

Duvanalar san'atida so'fiylik ta'limoti o'z ifodasini topgan. "Duvana" (devona) eroncha so'z bo'lib, "g'arib" ma'nosini anglatadi. Keyinchalik keng ma'nosi shakllandi. Keng ma'noda "duvana"-ijrochi, so'fiylik oqimining namoyandasi sifatida anglanadi.

Ovullarda duvananing paydo bo'lishi mahalliy hayotni jonlantirgan. Duvana o'zining kelganini "Aq-aq-aq-aq!" hayqiriqlari bilan bildirgan. Odamlar duvonaning yaxshilik olib kelgan elchi sifatida qabul qilishgan.

Duvana o'z atrofida odamlarni to'plab, diniy aytimlarni kuylagan. Jo'rsoz sifatida ijrochi asa-musadan foydalangan.

Yuqorida aytib o'tilgan marosimlar va duvana san'atidan tashqari qur'on o'qish ham rivojlangan. Qur'on o'qishning qiroat va tilovat shakllari musulmon dunyosining barcha hududlarida tarqalgan.

Lirik janrlar

Qirg'iz xalq ijodiyotida qo'shiq lirikasi janrlari turli-tuman tarzda namoyon bo'ladi. Eng rivojlangan va tarqalgan janrlar lirik janrlar hisoblanadi.

Lirik qo'shiqlar qomuz jo'rligida va jo'rsozsiz ham ijro etilishi mumkin. Jo'rsozsiz qo'shiq ijrochiligi xalq orasida juda keng tarqalgan bo'lib, bunday qo'shiqlar ko'proq oilaviy marosimlarda ijro etilgan. Marosim ishtirokchilarining har biri bittadan qo'shiq ijro etishi majburiy hol bo'lgan.

Lirik janrlarning yana bir yo'nalishi kasbiy darajadagi ijrochilar ijodiyoti bilan bog'liq. Ijrochilar qo'shiqlarni jo'rsoz yordamida ijro etishgan. Bunday ijrochilar "irchi"lar deb yuritilgan.

Irchilar ma'lum qo'shiqlarning talqinchisi bo'libgina qolmay, o'zlari ham qo'shiqlar ijod qilganlar.

Lirik qo'shiqlar bir necha turlarga ajratilgan. Muhabbat mavzusidagi qo'shiqlar "Ashiqtiq irlari" yoki "Suyuu irlari" deyilgan. Avvaldan rivojlanib, xalq orasida keng tarqalgan lirik qo'shiqlar uch turli bo'lgan: "Seketbay" ("Sevgilim") "Kuygen" ("Sevgi dardi") va "Arman" ("Armon"). Har bir tur guruhga bir-biriga yaqin bo'lgan qo'shiq variantlari jamlangan. Shu tarzda har bir qo'shiq nomi, qo'shiq janriga nisbatan ham qo'llanilgan.

Seketbay ommalashgan qo'shiq janridir. Mazkur janr ijodkorlari seketbaychilar deyilgan. XIX asrda Bo'g'achi, Abdurahmon, Sirtboy, Musaqan kabi seketbaychilar mashhur bo'lganlar.

A.Zataevich, V.Vinogradov, A.Maldibaevlarning to'plamlarida "seketbay" janrining namunalari ko'p.

"Seketbay" janri qo'shiqlarida turli majoziy o'xshatishlar, timsollar qo'llaniladi. Qo'shiqlarning nomlarida ham shunday qirralar mavjud: "Bo'to ko'z", "Qara ko'z", "Qizil gul", "Qizil o'ruk" va boshqalar.

"Seketbay" qo'shiqlarida Ona zamin go'zalliklari ham madh etiladi. Bunday qo'shiqlar nomlanishi ovul, tog', yaylov, soylar bilan bog'liqdir: "Aq-soy", "Tiyon-shon", "Talas", "Erkin to'o'", "Kerme to'o'", "Chatir ko'l", "Sari barpi" ("Sayroqi qushcha") va boshqalar.

"Seketbay" qo'shiqlarida baxtli muhabbat haqida kuylansa, "Kuygen" janrining qo'shiqlari javobsiz, bir tomonlama muhabbat haqidadir.

"Arman" - lirik janr bo'lib, unda ham g'amgin, ham yorug' orzular haqida kuylanadi. "Arman" janridagi qo'shiqlar mashhur aqin To'qto'gul Satilg'anovning ijodida yorqin namoyon bo'lgan. "Arman" - murakkab va ko'p qirrali lirik vokal janr bo'lib, murakkablik kuy rivoji davomida kuzatiladi.

Umuman, lirik qo'shiqlar mehnat va marosim qo'shiqlaridan farqli ravishda XX asrda nisbatan ko'proq rivojlanadi. Qadimiy lirik qo'shiqlar o'rnini yangi mavzudagi murakkab kuyli qo'shiqlar egalladi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab hozirgi davrgacha ellikka yaqin ijodkorlar nomlarini sanash mumkin. Ular "Seketbay", "Kuygen", "Arman" janrlarida ijod qilib, Qirg'iz an'anaviy vokal madaniyatini rivojlantirganlar.

Xalqqa tanilgan lirik qo'shiqlarning kattagina qismi aqin To'qto'gul Satilg'anovga (1864-1933) tegishlidir. "Alimqan", "Quluyna, Quljar", "Qizil ko'ynek", "Guldepal", "Erke sari" kabi qo'shiqlar B.Satilg'anov ijodiy merosi tarkibidan o'rin oladi.

"Seketbay" va "Kuygen" janrlarida Bo'g'achi Jaqilbekov (1866-1935) ham ijod qilgan.

Lirik qo'shiq "O'y to'bo'" ("Yo, tavba") Esenali Qo'shchuev tomonidan yaratilgan. Ushbu qo'shiq hamyoshlar, ham kattalar tomonidan birdek sevilib ijro etilgan.

Yoshlarning qo'shiq janrlari

Hajviy janrlar

Qirg'iz yoshlarining qo'shiq janrlariga "Jigitter irlari" (14 -25 yoshgacha bo'lgan "Yigitlar qo'shiqlari").

Yoshlar qo'shiqlari ma'lum qirralarga ko'ra, janrlarga ajratiladi. Eng mashhur janrlardan biri - "Selkinchek" ("Arg'imchoq")

nomidan kelib chiqib aytish mumkinki, mazkur janr qo'shiqlari arg'imchoqda uchish paytida ijro etilgan. "Selkinchek" so'zi aniq qo'shiq yoki o'yin nomi sifatida ham qo'llanilishi mumkin.

Hozirgi davrda "Selkinchek" o'yin sifatida unutilgan, ammo musiqiy janr sifatida keng rivojlanib kelmoqda.

"Selkinchek" qo'shig'i yigitlar va qizlar tomonidan unison tarzida, tez tempda ijro etiladi. Qo'shiq ritmi - aniq, raqssimon, kuy yuqoriga va pastga harakatlanuvchi tuzilmalardan tashkil topadi. Hozirda "Selkinchek" qo'shig'i guruh tarzida xavaskorlik to'garaklarida ijro etilmoqda. "Selkinchek"ning yakkaxon tarzda, qomuz jo'rligida ijro etiluvchi variantlari ham mavjud. Ansambl tarzida ijro etiluvchi qo'shiqlar "Qiz-jigit" xalq bayramlari va kichik yig'ilishlarda ijro etilgan. "Qiz-jigit"ning ikki turi mavjud bo'lib, biri - duet, ikkinchisi - guruh tarzida kuylanadi. "Qiz-jigit" ning marosim varianti "Jarjar-ay" aytimidir. "Qiz-jigit" qo'shiqlari dialog ko'rinishiga ega. Ijro jarayonida improvizatsiya uslubi ham qo'llanilgan.

Ba'zan qo'shiq sahnalashtirilgan kompozitsiya tarzida ham namoyish etilgan. Misol qilib, "Chal-kempir" duetini keltirish mumkin. Ushbu namuna raqs harakatlari bilan ijro etilgan.

"Qiz-jigit" janrining boshqa xalqlar madaniyatiga tegishli "Chastushka" (rus xalqi), "Lapar" (o'zbek xalqi) janrlari bilan o'xshashlik tomonlari bor.

"Qiz-jigit" qo'shiqlari kuplet shaklida bo'ladi. Qizlar va yigitlar partiyalari bir xil, ammo turli tessiturada yangraydi.

Ushbu janrning qadimiy namunalari saqlanib qolmagan.

"Qiz-jigit" janrining bir turi "aqiynek" ("aytishuv")dir. "Aqiynek" - ikki ayol tomonidan kuylanadigan dialog qo'shiq. "Aqiynek" qo'shiqlari ham xalq sayllarida, yig'ilishlarda aytilgan.

Ommaviy folklor qo'shiqlarning barchasida xajviy qirralari bor. Ular umumiy nom "Tamasha iri" deb nomlanadi. Jumladan, milliy madaniyat tarkibida "Quudullar" ijodiyoti ham ahamiyatlidir.

"Quuddul" ("Taqlidchi", "Qiziqchi") - qirg'iz milliy badiiy ijodiyotining o'ziga xos namoyandasidir. Quudul badiiy, aktyorlik va musiqiy iqtidor sohibi bo'lgan. Quudullar ba'zan qo'g'irchoq teatri spektakllarini ham sahnalashtirganlar. Kasbiy darajadagi quudullar qiziq voqealar aytish jarayonida odamlar va hayvonlar ovozigina taqlid qilganlar.

Mashhur quudullardan Jo‘o‘shbay Bo‘rsalov (1840-1919), Ko‘katoy Bo‘to‘ev (1849-1916), Qarachunaq SHalidirov (1862-1933) nomlarini keltirish mumkin.

Bolalar qo‘shiq janrlari

Bolalar qo‘shiqlari guruhi ikkiga, ya‘ni, bolalar qo‘shiqlari va bolalar uchun yaratilgan qo‘shiqlarga ajratiladi. Birinchi guruh namunalari bolalar tomonidan ijod qilinsa, ikkinchi guruh qo‘shiqlari kattalar tomonidan bolalar uchun yaratiladi.

"Beshik iri" ("Alla") - qadimiy janrlardan bo‘lib, hozirgi davrimizgacha saqlanib kelinmoqda. Alla aytimlarida ona o‘z bolasining yorqin kelajagini ifodalagan. Bolaning jinsiga qarab allaning she‘riy matnlarining variantlari vujudga kelgan.

"Baldar irlari" bolalar tomonidan ijro etilgan. Masalan, "O‘yun iri", "Chimchikep iri", hayvonlar va qushlar haqidagi qo‘shiqlar.

Yuqorida aytib o‘tilgan "Aqiynak", "Jaramazan", "O‘kuruu" janrlarining bolalar aytadigan variantlari ham bo‘lgan.

Tayanch so‘zlar:

Qirg‘iz xalq musiqa ijodi, ir, marosim, nomarosim, lirik janrlar, bolalar qo‘shiqlari.

Nazorat savollari:

1. Qirg‘iz xalqining qadimiy madaniyati xususida gapiring.
2. Qirg‘iz xalq musiqa an‘analarining o‘ziga xos qirralari xususida nima deya olasiz?
3. Qirg‘iz xalq marosim janrlari qaysi qardosh xalq marosim qo‘shiqlariga yaqin?
4. Qirg‘iz xalq nomarosim janrlarining o‘ziga xos tomonlari nimada?

6-MAVZU

QIRG'IZ AQINLARI IJODI MANASCHILAR FAOLIYATI

Reja:

1. Qirg'iz xalq eposi xususida
2. Katta epos - Manas haqida
3. Kichik epos dostonlari
4. Qirg'iz aqinlari ijodi
5. Manaschilar faoliyati

Adabiyotlar:

1. Кыдырбаева Р. Генезис эпоса "Манас". - Фрунзе, 1980.
2. Кыдырбаева Р. Сказительское искусство манасчы. - Фрунзе, 1984.
3. Кырбашев К. "Манас" - баатырдык эпостун классикалык улгусу. - Бишкек, 1997.
4. Кыргыз эл ырчылары. - Бишкек, 1994.
5. Легендарлуу ырчылар жана сынчылар. - Бишкек, 1994.
6. Малдыбаев А. Ырлар. - Фрунзе, 1937.
7. Малдыбаев А. Кыргыз элинин ырлары. - Фрунзе, 1972.
8. Манас: Киргизский эпос. "Великий поход". - М., 1946; Бишкек, 1994.
9. Манас. В 3-х томах // Эпос народов СССР. - М., 1984-1990.
10. "Манас" - героический эпос киргизского народа. - Фрунзе, 1968.
11. Манас. Семетей. Сейтек / Вариант С. Орозбакова. В 3-х томах. - Фрунзе, 1989.
12. Манас Энциклопедия. В 2-х томах. - Бишкек, 1995.
13. "Манас" эпосу жана искусство. Эпос "Манас" и искусство (на кырг. и рус. яз.). - Бишкек, 1994.
14. Манасчылар - кыргыз элинин руханий инсандары. - Бишкек, 1993.
15. Молдобаев И. Эпос "Манас" как источник изучения духовной культуры киргизского народа. - Фрунзе, 1989.
16. Молдогазиев Т. Каныкейдин Тайторуну чапканы: Атактуу манасчы С. Каралаевдин айтуусу обон кайрыктары менен. - Бишкек, 1995.



Qirg'iz eposi-xalq og'zaki musiqiy-badiiy ijodiyotining kasbiy turidir. Eposlarda, boshqa janrlarga nisbatan xalq dunyoqarashini, hayotini tasvirlab berish imkoniyatlari kengroq bo'lgan.

Epos xalqning badiiy yilnomasi sifatida kasbiy darajadagi ijrochi-improvizatorlar ijodiyotida namoyon bo'ladi. Eposni ijro etish san'ati eng murakkab jarayonlardan biridir. Eposning ahamiyati juda katta. U xalq hayoti va san'ati "Ensiklopediyasi"dir. Epos ko'p asrlar mobaynida sayqallangan.

Eposlar qahramonlik, lirik, dramatik, satirik, fantastik mavzularda ijod etilgan. Avvalombor unda xalq falsafasi jamlangan.

Epos so'zi (yunoncha) qirg'iz adabiyotshunosligiga 1920-1930 yillari kirib kelgan. Ushbu so'z sekin-asta "jamoq" (ertak, afsona) so'zini siqib chiqaradi. Epos atamasi keng ma'noda ertakdan tortib, to "Manas" gacha bo'lgan janrlarga nisbatan qo'llaniladi.

Markaziy Osiyoda doston atamasi keng tarqalgan. Qadimgi turkiy xalqlarda doston deb rechitativ shaklda ijro etiluvchi badiiy va she'riy asarlarga aytiladi. Ma'no jihatidan dostonga poema atamasi (yunon.) yaqin turadi.

Qirg'iz eposini o'rganish amaliyotida yuqorida aytib o'tilgan uchta atama uchraydi. Qirg'iz eposi ikkita yirik qatlamdan tashkil topadi: katta va kichik epos.

Katta epos deganda, albatta "Manas", kichik epos deyilganda esa hajman kichik bo'lgan doston va poemalar nazarda tutiladi. Epos va dostonlarning she'riy misralari sanalganda, katta tafovutni

ko'rish mumkin. Masalan, Sayaqbay Qaralaev ijrosida yozib olingan "Manas" varianti 400 mingdan ortiq she'riy misradan iboratligi aniqlangan. Jumladan, "Er Teshtuk", "Seyitbek", "Qurmanbek", "Er Tabildi", "Er Sultanoy", "Jo'darbeshim", "Kedeykan", "Janil Mirza", "Janish-Bayish", "Qo'jojash", "Sarinji-Bekey", "Oljoboy menen Kishimjon", "Gulgaqi", "Aq Meer" asarlarining umumiy hajmi 84319 she'riy misrani tashkil qiladi.

Folklorning o'zga janrlari orasida epos alohida ajralib turadi. Bunda badiiy-estetik qirralar, qahramonlik mavzulari, badiiy timsollar diapazoni, ijrochilar mahorati katta rol o'ynaydi.

Katta epos

Qirg'iz xalqi epik madaniyatining asosiy janri katta epos hisoblanadi. Katta epos umumiy tarzda "Manas" deb nomlanib, u bir nechta yirik qismlardan iborat. Har bir qism bosh qahramon nomi bilan atalgan. Qismlar Manas boshchiligidagi ulusning bitta qahramoni hayoti va faoliyatiga bag'ishlanadi.

Manas tarixiy shaxs bo'lganmi? Er. VII-VIII asrlarida qirg'iz qabilalari birlashish arafasida turganida Manas ismli odam ularga boshchilik qilgan. "Manas" eposi mifologik toifadagi asardir. Eposdan Manas ko'p qirrali obraz sifatida ko'rsatilgan. Jang vaqtida u bamisoli vahshiy yo'lbars, hayotda esa Manas - odil hukmdor, mehribon oilaboshi sifatida gavdalantiriladi.

Xon Manas atrofida unga yaqin odamlari turgan: Qariya Baqay- donishmand maslahatgo'y, umr yo'ldoshi Qanikey - Eron xonining qizi, do'st va aqlli yordamchi, hamfikir Almanbet - millati Xitoy, Sirg'ak - yaqin do'sti va 40 ta cho'ro' - harbiy boshliqlar.

Manasning vorislari - o'g'li Semetey va nabirasi Seytek, Manas ishlarini davomchilari bo'lganlar. Shu tarzda mashhur epik trilogiya uchta asosiy qismdan iborat bo'lgan: "Manas", "Semetey", "Seytek".

Epos mavjudligining asosiy tamoyili - uning doimiy rivojlantirishidir. Yirik ijrochi-ijodkorlar eposga yangi epizodlar, faktlar kiritadilar. Natijada epos kengayadi. XX asrda katta eposning uchinchi qismi bo'lmish "Seytek" davom ettirilgan. Sayaqbay Qaralaev "Kenen" (Seytekning o'g'li), "Alimsariq, Qulansariq" (Seytekning nabiralari) kabi qismlarni rivojlantirgan.

"Manas" eposining ijrochilari "Manaschi"lar deyiladi. "Semeteychi", "Seytekchi" kabi atamalar ham mavjud bo'lib, ular ijodkor eposining qaysi qismini ijrochisi ekanligiga ishora qiladi. "Manaschi" atamasi ilmiy leksikonga va xalq tiliga XX asrda kiritilgan. Avvallari esa epos ijrochisi "Jomoqchi" deyilgan.

"Manas" (400-500 ming she'riy misradan iborat) hajman Gomer "Iliada"sidan 32 marta, o'zbek-tojik eposi "SHohnoma" dan 4 marta, hind "Mahobhorat"idan 100 ming misra ortiq. Eposning bir qismi bir nechta hafta davomida ijro etilishi mumkin bo'lgan. Ammo shu vaqtgacha "Manas"ning to'liq ijrosi yozib olinmagan.

"Manas" turkumli tuzilishga ega. Unda musiqiy folklorning lirik, tarixiy, marosim, komediya, aqin janrlari, maqollar, topishmoqlar, ertaklar va afsonalar jamlangan.

Katta eposning ohang tuzilishi - bu o'ziga xos qirg'iz rechitativining antalogiyasidir. Qirg'iz xalq rechitativini tahlil qilgan V.Vinogradov uning to'rt turini aniqlagan. Rechitativning birinchi turi musiqiy bo'lmagan.

Rechitatsiyaning bunday turi kam uchraydi va notatsiya qilinmaydi.

Rechitativning ikkinchi turi - melodiylashtirilgan deklamatsiya bo'lib, unda tovush balandligi, metroritmik va kompozitsion qirralar aniq. Rechitativ tovushqatori trixord yoki tetraxordga teng.

Rechitativning uchinchi turi ikkinchisiga yaqin. Ammo unda lad - ohang qirralari aniqroq. Musiqiy iboralar nisbatan ifodalibroq.

Va nihoyat, rechitativning to'rtinchi turi - kuychan rechitatsiyadir.

Shimolda epos ko'chmanchi hayot tarzi bilan bog'liq holda, Janubda esa o'troq tarzi bilan bog'liq holda rivojlandi.

Manas ijrochilari: Sayaqbay Qaralaev, To'g'o'loq Moldo (Bayshibet Abdrahmonov), Mo'ldo'basan Musulmanqulov, Mambet Cho'qmo'rov, Jusup Mamay, Urkash Mambetaliev va boshqalar.

Kichik epos

Kichik epos 30 ga yaqin doston va poemalarni o'z ichiga oladi. Kichik epos hajman kichik bo'lsa-da, mavzular, syujetlar qomrovi kengligi bilan ajralib turadi. Kichik epos qahramonlik, maishiy, ertak, lirik va marosim folklor musiqiy janr va aytimlaridan kelib chiqqan.

Kichik epos o'zining maxsus qirralariga ega. Ushbu qirralar doston va poemalarning mavzular doirasi va ijrochilik variantlari bilan bog'liq.

Kichik epos jomoqchi (hozirda dastanchi)lar tomonidan tinglovchiga yetkazilgan. Kichik epos ikki uslubda ijro etilgan: poetik, musiqasiz ijro. Doston boshidan oxirigacha deklamatsiya qilinib, mimika, plastika bilan to'ldirilgan. Ijroning bunday shakli katta epos ijrosiga yaqin. Qahramonlik mavzusidagi "Janish-Bayish" dostoni bu tarzda ijroga misol bo'la oladi.

Ikkinchi shakl qomuz yoki qil qiyoq cholg'ulari jo'rligida ijro etiladi. Bunday ijroda aktyorlik unsurlari qo'llanilmaydi.

Kichik epos ijrochiligining yana bir turi mavjud bo'lib unda deklamatsiya tarzidagi va jo'rsoz bilan ijro etiluvchi uslublar aralashib ketgan. Bunday ijro uslubi keng tarqalgan.

Kichik epos ijrosida qomuz yoki qil qiyoq ikki funktsiyani bajaradi: yakkaxon ijro (kirish, yakunlov va vokal pauzalarini to'ldirish) va jo'rsozlik.


Kichik eposning yirik janr turi qahramonlik mavzusida bo'lib, u ko'p sonli epik dostonlardan tashkil topadi. "Er Tabildi", "Qurmanbek", "Janish-Bayish", "Er Soltanoy", "Janil Mirza" va boshqalar. "Qurmanbek" dostoni mashhurdir. Doston XVI-XVII asrlarda qalmlar bilan olib borilgan urushlar davriga tegishli bo'lib, qahramonlik mavzusi bilan birgalikda "Otalar va bolalar" mavzusi ham rivojlantiriladi.

Lirik-romantik dostonlarga "O'ljo'bay menen Kishimjan", "Gulgaaqi" va "Aq Moor"larni misol qilish mumkin.

Aqin ijodiyoti janrlari

Aqin ijodiyoti - qirg'iz xalqi qo'shiqchilik an'alarining alohida qatlamidir. Aqinlar ijodiyotida turli san'at unsurlari ishtirok etadi. An'anaviy ma'noda aqin-ko'p qirrali ijodkor bo'lib, u ham ijrochi, ham cholg'uchi, ham ijodkordir.

Aqin so'zi qadimiy etimologik ildizlarga egadir. Lingvistlarning fikriga ko'ra, ushbu so'z qozoq, uyg'ur, tatar, eron-fors leksikasini birlashtiradi. "Aqin" so'zi "Axun" ("Axund") so'zining transformatsiyalangan variantidir. "Axun" so'zi "ustoz, donishmand" degan ma'nolarni anglatadi.



Bundan tashqari "aqin" tushunchasi "aq" ("oq", "sof") va "agin, agim" ("oqim") soʻzlaridan kelib chiqqan. Qirgʻiz tilida "aqin" soʻzi "shoir, ijrochi-improvizator" maʼnolarini anglatadi.

Aqin - qadimiy badiiy kasblardan boʻlgan.

Aqin sanʼati ustoz - shogird anʼanasi tarzida rivojlangan.

Aqin ijrochilik madaniyatiga improvizatsiya va individual uslublar turli-tumanligi xosdir.

Terme - aqinlarning eng asosiy ijrochilik vositasidir. Koʻchma maʼnoda aytganda, aqin sheʼriy misra va aytimlarni "teradi" va maʼno jihatdan umumiy badiiy asar yaratadi.

Terme - aqinning barcha janrlardagi improvizatsiyasi asosi, ijrochilik uslubi va yoʻnalishidir. Ana shu mezonlarga tayanib, tinglovchi aqinning ijro mahoratini baholaydi.

Aqin sanʼati serqirradir. Aqin ijodiyotining janrlar qamrovi mavzular boyligi bilan taʼminlanadi.

Aqin uchun qomuz eng zarur "yoʻldosh"idir. Uning umumiy vazifasi - joʻrnavezlik.

Yakka tarzda ijro etiluvchi janrlar

Yakkaxon janrlarda aqin oʻzining yoki boshqa ijodkorning sheʼrini kuylaydi yoki rechitatsiya tarzida bayon qiladi. Joʻrsoz vazifasini qomuz yoki qil qiyofa bajaradi. Aynan shunday janrlarda aqin oʻziga xos ijodiy uslubini koʻrsata oladi.

Aqinlarning yakkaxon tarzidagi janrlari quyidagi guruhlarga ajratiladi: pand-nasihat, olqishlov, komediya, tarixiy. Birinchi guruh (pand-nasihat) o'z o'rnida yana turlarga bo'linadi: "ulgu iri" (namunali qo'shiq), "sanat iri" (o'rgatuvchi qo'shiq), "nasiyat iri" (nasihat qo'shig'i).

"Ulgu iri"da inson intilishi kerak bo'lgan fazilatlar haqida kuylanadi.

"Sanat iri" falsafiy aforizmlar yordamida nasihat, tarbiya beradigan janrdir.

"Nasiyat iri"da hayotiy haqiqatlar haqida kuylanadi.

Yakkaxon tarzda ijro etiluvchi aqin janrlarining ikkinchi guruhini tantanavor-olqishlov mavzusidagi janrlar tashkil qiladi. "Quttuqto'v iri" yetakchi janr hisoblanadi. Bu janr konkret odam yoki bir guruh odamlarga bag'ishlangan o'ziga xos madhiya (oda)dir.

"Salamdashuu iri" "Quttuqto'v iri"ga yaqin. Qirg'iz aqinlari "Salamdashuu iri" bilan o'zlarining an'anaviy chiqishlarini boshlar edilar. Yana bir janr turi "Jar chaqiruv" ("Jar solish"). Ushbu aytim bilan aqin "Osh" yoki "To'y"larga odamlarni jalb qilgan.

"Maqto iri" - o'tmish yoki zamonaviy shaxslarni olqishlash uchun ijro etiladigan madhiya.

Yakkaxon tarzda ijro etiluvchi aqin qo'shiqlarining uchinchi guruhiga "terme"lar kiradi. Buguruh asarlarida, masalan "qordoviri"da odamning yomon xislatlari qoralanadi. "Qordov iri"ning klassik namunalari XX asrning boshlarida To'qto'gul Satilg'anov tomonidan ijod qilingan.

"Terme"larning yana ikki xil turi ham uchinchi guruhga kiritiladi: "tamasha iri"da do'stona hazil namoyon bo'lsa, "taqmaza iri"da esa masharalash kabi harakatlar namoyish etiladi.

To'rtinchi guruhni "eskerme iri" (eslash aytimlari) kabi janr tashkil etadi. "Eskerme iri" tarixiy janr sifatida toifalashtiriladi. "Eskerme iri"da aqin qadimda yashab o'tgan biror bir shaxsni obrazini kuylaydi. "Bayandov iri" (bayon etish) kabi janr ham to'rtinchi guruh tarkibiga kiritiladi. "Bayandov iri" ham tarixiy qo'shiqlar turlaridan biridir.

Aqinlar "Shing'irama", "Botoy", "Qambarqan" kabi cholg'u janrlarni ham mahorat bilan ijro etadilar.

Aytishuv janrlari

Umumiy tarzda "qayim" deb nomlanuvchi qo'shiq aytishuvlari - aqinlar dialogik janrlaridir. Aytishuvlarning ikki turi mavjud: ijodiy, bellashuv; bellashuv unsurlari bo'lmagan ijodiy uchrashuv.

"Aytishuv" - aqinlar san'ati rivojining yuqori darajasi ko'rsatgichidir. "Aytishuv" - omma oldida ikki yoki ko'proq aqinlarning dialog shaklidagi bellashuvi bo'lib, unda qomuz jo'rsoz sifatida qo'llaniladi. Bellashuv cholg'u jo'rligisiz ham o'tkazilgan.

Bellashuv 20-40 minutdan bir necha soatgacha davom ettirilgan.

"Aytishuv" amaliyotida ijro turlari ko'paygan. Bular: zalqar aqin aytish (yirik aqinlar aytishuvi, klassik aytishuv);

ayal - erkeq aytish (erkak - aqin va ayol - aqin aytishuvi);

eki, uch, to'rt aqin aytish (ik, uch, to'rt aqinning aytishuvi);

mayramdiq, saltanat aytish (tananovor xarakterdagi aytishuv);

tamasha, qo'rdo'o' aytish (hazil, satirik xarakterdagi aytishuv);

tabishmaqtuu aytish (topishmoqli aytishuv);

"Aytishuv" janrining yirik turlaridan biri "alim sabaq" deyiladi.

Mazkur aytishuv shakli o'ziga xos bo'lib, aqinlar uzun impravizatsion tuzilmalar o'rniga, qisqa, lekin chuqur ma'noni anglatuvchi aytilmalar ijro etishadi. Har bir aytilma oldidan aqin qomuzda hajman kichik kuy chaladi.

"Alim sabaq" ijrochilarida badiiy iqtidor darajasi baland bo'lishi darkor. Tili o'tkir bo'lgan aqin aytishuvda g'olib chiqadi.

Har bir aqinning improvizatsion tizimi, ohang lug'ati va rechitatsiya uslubi bo'ladi.

Xalq xotirasida Jaysan, Ketbuqa, Asan Qayg'i, To'qto'gul kabi aqinlarning nomlari saqlanib kelmoqda.

Tayanch so'zlar:

Qirg'iz xalq epik ijodi, kichik epos, katta epos, aqinlar, Manas, manaschilar.

Nazorat savollari:

1. Qirg'iz xalq epik ijodiyotining o'ziga xos qirralari xususida nima deya olasiz?

2. Kichik epos deganda nimani tushunasiz?

3. Katta epos nima?

4. Manaschilar kim?

5. Aqinlar ijodi haqida nimalarni bilasiz?

7-MAVZU

QIRG'IZ MILLIY SOZLARI VA CHOLG'U KUYLARI

Reja:

1. Qirg'iz xalq cholg'ulari xususida
2. Torli cholg'ular
3. Damli cholg'ular
4. Zarbli cholg'ular
5. O'zi sadolanuvchi cholg'ular


Adabiyotlar:

1. Алагушов Б. Кыргыз комузчулары жана комуз куулеру. - Фрунзе, 1961.
2. Алагушов Б. Тациты, комуз. - Фрунзе, 1968.
3. Алагушов Б. Кыргыздын эддик музыкалык аспаптары. - Фрунзе, 1974.
4. Алагушов Б. Комузчулар енеру. - Фрунзе, 1976.
5. Алагушов Б. Кыргыз мамлекеттик Карамолдо Орозов атындагы эл аспаптар оркестри. - Фрунзе, 1976.
6. Аманов Б. Композиционная терминология домбровых кюев // Инструментальная музыка казахского народа. - Алма-Ата, 1985.
7. Арзыкулова А., Байсабаева Г. Образовательно-воспитательные возможности эпоса "Манас": О музыкальных инструментах // Активные методы обучения и воспитания. - Бишкек, 1995.
8. Бейшембиев Б. Комузда ойноо. - Фрунзе, 1973.
9. Субаналиев С. Чоорлор. - Фрунзе, 1988.
10. Субаналиев С. Генезис термина "кыяк": Проблемы комплексного изучения киргизского инструментального фольклора // Народная музыка: История и типология. -Л, 1989.243
11. Субаналиев С. Киргизские музыкальные инстру-менты. - Фрунзе, 1986; Кыргыз элдик музыкалык аспаптары. - Бишкек, 1991.

Qirg'iz xalq cholg'ulari milliy madaniyatning muhim tarkibiy qismidir. Musiqa cholg'ularining ahamiyati haqida "Manas" trilogiyasida ham ma'lumotlar keltiriladi.

Qirg'iz cholg'ulari to'rtta asosiy guruhga bo'linadi:

1. torli (qil aspaptar - xordeofonlar);
2. damli (uyneme aspaptar-aerofonlar);
3. urma (urma aspaptar-membranofonlar);
4. o'zi sadolanuvchi (qagma aspaptar -idiofonlar) cholg'ular.



Torli cholg'ular

Qirg'izlarning an'anaviy torli cholg'ulari - qomuz va qil qiyodir. Ular bir-biridan tovush chiqarish usuli bilan farqlanadi. Qomuz chertib chalinadi, qil qiyod esa kamon bilan chalinadi.

Qomuz - hozirgi davrda ham keng tarqalgan va mashhur torli - chertma cholg'u hisoblanadi. Qirg'izistonning janubiy hududlarida "chertmek" deb yuritiladi. Afsonalarga ko'ra, uni qadimiy ovchi Qambar yasab, birinchi qomuzchi bo'lgan ekan.

Qomuz - uch torli cholgʻu boʻlib, Markaziy Osiyo xalqlari musiqiy cholgʻularidan torlarining soni bilan ajralib turadi. Qomuzchi cholgʻuni gorizontal holatda ushlab turadi. Qomuz oʻtirgan holatda chalinadi. Baʼzan esa turib ham chalinadi.

Anʼanaviy qomuz noksimon shaklga ega. U butun daraxt boʻlagidan yasaladi (oʻrik, archa, yongʻoq daraxtlari). Qomuzning dekasida rezonator teshigi boʻladi. XX asrgacha torlar qoʻy ichagidan, keyinchalik esa plastmassa leskalardan tayyorlangan.

Qomuzning kattaligi lokal anʼanalar va ustaning individual uslublari bilan bogʻliq

Qomuz uzunligi oʻrtacha 85-90 smni tashkil qiladi.

Qomuz cholgʻusi ikki kategoriya boʻyicha sozlanadi: asosiy va yordamchi. Sozlanish ohang, garmonik va janr qirralar bilan bogʻliq.

Eng koʻp qoʻllaniladigan sozlanish turi quyidgicha: birinchi tor - re (kichik oktava), ikkinchi tor - lya (kichik oktava), uchinchi tor - mi (kichik oktava). Qomuzning ishchi diapazoni bir yarim oktavani tashkil qiladi. Qomuz partiyasi skripka kalitida notatsiya qilinadi.

Cholgʻuning tembr palitrasi nihoyatda boy.

1960 yillarda qomuz turlari koʻpaytirildi:

qomuz-prima, qomuz-sekunda, qomuz-alt, qomuz-bas, qomuz-kontrabas. Bu turdagi cholgʻular xalq cholgʻulari orkestri tarkibiga kiritilgan.

Qil qiyoq (qil qiyoq) - anʼanaviy torli - kamonli cholgʻu.

Bu cholgʻu oʻrik yoki yongʻoq daraxtidan yasalgan. Ikkita tor va kamonga ega. Qiyoqning shakli choʻmichsimon. Korpusning yuqori qismi ochiq, pastki qismiga esa tuya terisi tortiladi.

Cholgʻuning taxminiy uzunligi 60-70 smni tashkil qiladi. Torlar ot qilidan tayyorlanadi. Kamon ham ot qilidan tayyorlanadi.

Qiyoqchining ijrochilik usullari qomuzchiga nisbatan kamroq. Qil qiyoq oʻtirib, cholgʻuni vertikal tarzda ushlagan holatda chalinadi.

Qil qiyoq ikkita interval boʻyicha sozlanadi: sof kvarta va sof kvinta. Cholgʻuning ishchi diapazoni - kichik oktava "re" dan, ikkinchi oktava "lya" gacha. Qil qiyoq partiyasi skripka cholgʻusida notatsiya qilinadi. Cholgʻuning tembri yumshoq va boʻgʻiqroq.

XX asrning 30-yillarigacha qil qiyoq yakkaxon cholgʻu sifatida tarqalgan. Filarmonik orkestr tashkil etilishi munosabati bilan cholgʻu modernizatsiyalashtirilgan (qiyoq-prima, qiyoq-alt, qiyoq-bas, qiyoq- kontrabas).

Damli cholgʻular

Qirgʻiz damli cholgʻular tarixi qadim zamonlardan boshlanadi. Dastlabki damli cholgʻular chaqiriq vazifalarini bajargan. Keyinchalik badiiy va estetik zavq olish maqsadida foydalanilgan. Damli cholgʻular guruhini bir nechta qiziqarli cholgʻular tashkil etadi. SHulardan eng qadimiysi choor cholgʻusidir.

Choor - qirgʻiz anʼanaviy aerofoni. U qadimiy cholgʻulardan biri deb hisoblanadi. Ushbu cholgʻuni ijrochisi choorchu deyiladi. Choor Qirgʻizistonning janubiy hududlarida, choʻponlar cholgʻusi sifatida keng qoʻllanilgan. Shimolda uzoq vaqt mobaynida choordan foydalanilmagan. Hozirgi davrda, folklor-etnografik ansambllar faoliyati bilan, mazkur cholgʻudan shimoliy hududlarda ham foydalanilmoqda.

Choorning turlari koʻp. Cholgʻuning turlari koʻpligi, uning tayyorlanadigan materiali bilan bogʻliq. Masalan, chogoyno choor, qamish choor, shilbi choor, sari jigʻach choor, bantirqan choor, jez choor. Tayyorlanadigan materialdan tashqari konstruktiv tamoyillar ham mazkur cholgʻuni turlarini bir-biridan farqlaydi.

Choor cholgʻusining uzunligi 40-100 smni tashkil qiladi. Teshiklari toʻrttagacha boʻladi. Ishchi diapazon bir - bir yarim oktavani tashkil qiladi.

Choorning tembri uning turlari bilan bogʻliq.

Chopo choor (loydan yasalgan choor) - qirgʻiz xalq damli cholgʻularining bir turi.

Cholgʻuning bu turi asosan janubiy hududlarda tarqalgan. CHopo choor cholgʻusining shakli - erkin.

Cholgʻuning tovush qatori oʻta kichik (tertsiya - kvinta oraligʻida). Tembri - chuqur, yumshoq, rom qiluvchi. Chopo choor bolalar uchun musiqiy oʻyinchoq vazifasini ham bajaradi. Folklor ansambllarida teng huquqli cholgʻu sifatida ham qoʻllaniladi.

Hozirgi davrda cholgʻu mukammallashtirilgan.

Sibizgʻi - qirgʻiz xalq damli cholgʻularining yana bir turidir. Mazkur cholgʻu koʻndalang tarzda ushlab chalinadi. Sibizgʻining ham ikki turi mavjud: anʻanaviy va modernizatsiyalashtirilgan.

Sibizgʻi - tut, oʻrik, barbaris, qamish, mis kabi materiallardan tayyorlanadi. Asosiy qismining uzunligi 50 smgacha, diametri esa 2 smni tashkil qiladi. Cholgʻuning 6-7 teshigi boʻlib, modernizatsiyalashtirilgan turlarida 10 tagacha boʻlishi mumkin. Sibizgʻining tovushi yorqin, hushtaksimon va nisbatan yuqori tessiturada.

Sibizgʻining bir turi jeznay deyiladi (mis nay).

Surnay - Qirgʻiz xalq damli cholgʻusidir. Cholgʻuning uzunligi 40-65 sm boʻladi va oʻrik, tut daraxtlaridan, misdan yasaladi. Cholgʻuning keng tarqalgan diapazoni birinchi oktava "re"-ikkinchi oktava "mi" ni oʻz ichiga oladi.

Qamish surnay tuzilishi jihatdan biroz soddaroq. Qamish surnayning uch yoki toʻrtta teshigi boʻlib, uzunligi 25 sm, trubka diametri 0,8 smni tashkil etadi.

Surnayning tovushi keskin va uning bunday tarzda tovushidan chaqiriq (signal) sifatida qoʻllanilgan. Surnay baʼzan harbiy cholgʻu ansambllari tarkibiga ham kiritilgan. Surnayni kasbiy darajadagi musiqachilar chalishgan, chunki surnay tovushini chiqarish katta jismoniy kuch talab qilgan.

Hozirgi davrda surnay cholgʻusi deyarli qoʻllanilmaydi.

Kernay (karnay) - qirgʻiz damli cholgʻulari turidir. Kerneyning ikki turi mavjud boʻlib, bular muyiz kerney - hayvon shoxidan tayyorlangan karnay; jez kerney - misdan ishlangan karnay. Ular bir-biridan farq qiladi, oʻxshashlik tomoni esa, ikkala turida ham teshiklari yoʻq.

Muyiz kerney - qadimiy cholgʻu. Kerneyning bunday turi togʻ echkisi shoxidan yasalgan, uzunligi 30-40 sm oraligʻida boʻlgan. Ushbu cholgʻuning mundshtuki yoʻq. Muyiz kerneyning tovushi mayin va yoqimli.

Jez kerney 1-2 m uzunligidagi truba boʻlib, uning mundshtuki boʻladi (mundштуksizlari ham bor). Trubaning kengaytirilgan qismi diametri 20 sm ga teng. Jez kerney oʻzbek va uygʻur karnaylari bilan oʻxshashlik tomonlari ham boʻlib, bunday holat hududlarning bir-biriga yaqinligi bilan izohlanadi. Kerneyning

tovushi juda baland, o'tkir va ochiq havoda chalinish uchun mo'ljallangan. Qadimda kerneyning funksiyasi muhim voqeliklar haqida xabar berish bilan chegaralangan. Hozirda esa katta xalq sayllarida qo'llaniladi.

Aerofonlarning alohida guruhini nisbatan kam qo'llaniladigan cholg'ular tashkil etadi. Ular shovqinli cholg'ular deyiladi. Ular tabiatda mavjud bo'lib, ustalar tomonidan yasalmaydi. Bunday cholg'ularning tovushi ham musiqiy emas, ular musiqiy bo'lmagan tovushlar chiqaradi. Masalan, ishqiriq (hushtak), barildaq (til osti aerofoni), chinirtqi (ovchining jalb qiluvchi moslamasi) va boshqalar. Ushbu cholg'ular o'ziga xos ovoz chiqaruvchi o'yinchoqlar sifatida ham qo'llaniladi.

Urma-zarbli cholg'ular

Qirg'iz xalq urma cholg'ulari son jihatidan ko'p emas. Folklor urma cholg'ulari uchta membranafon: Dobulbash, do'o'l va qarsildoqdan iborat. "Manas" eposida dap va chilmardan cholg'ulari haqida ham eslatib o'tilgan. Ular usul beruvchi cholg'ular sifatida inson va hayvonlarga qattiq ta'sir etuvchi vositadir.

Dobulbash - bir tomonli baraban bo'lib, u teri bilan qoplangan. Korpusning balandligi 50-60 sm, membrana diametri 25-30 smni tashkil qiladi. Cholg'uning korpusi archadan, membrana esa tuya terisidan tayyorlangan. Tovush qamchi yoki panja urilishi yordamida chiqarilgan.

Hozirda dobulbash yumshoq yostiqchali tayoqchalar bilan urib chalinadi. Cholg'uning ovozi kuchli va o'tkir. Dobulbash tovushidan harbiy signal sifatida ham foydalanilgan.

Dool - uncha katta bo'lmagan yog'ochli yoki metall membranofon. Hozirgi davrda uning ikki turi mavjud: an'anaviy va rekonstruktsiyalashtirilgan. An'anaviy doolning ko'rinishi dubulg'asimon bo'lib, membrananing diametri 30 smga yaqin. Korpusning balandligi esa 20 sm bo'ladi. Kuchli, past tovush yog'och tayoqchalar bilan doolga urish yo'li bilan chiqarilgan. Do'o'lning ikki tomonidagi moslamalar bilan ot egariga mahkamlanib, tantanavor chiqishlar va ov jarayonida chalingan.

Qadimgi zamon an'analarini o'rganuvchi tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, do'o'l cholg'usi diniy-maishiy funksiyani bajargan.

Uni shomon-baxshi shaytonlarni haydash uchun chalgan. "Manas" eposida esa do‘o‘l signal rolini bajarishi eslatib o‘tiladi. Bundan tashqari mazkur cholg‘u urma va damli cholg‘ular ansambli tarkibiga ham kiritilgan.

Modernlashtirilgan do‘o‘l qozon-baraban ko‘rinishida bo‘lib, O.Kenchiboev tomonidan rekonstruktsiya qilingan. Hozirda zamonaviy ansambl tarkibiga kiritilgan.

Qarsildaq - ikkita qoshiqsimon yog‘ochli moslamalar bo‘lib, ular o‘zaro mahkamlangan. Bittasining kengligi 10 sm, uzunligi 20 smni tashkil qiladi. Ikkinchi "qoshiq" nisbatan kichikroq. Ularni yengil urib qo‘yilganda, turli balandlikdagi sharqiroq tovushlar chiqadi.

O‘zi sadolanuvchi cholg‘ular

O‘zi ovoz chiqaruvchi cholg‘ular-idiofonlar ham mavjud bo‘lib, tovush chiqaruvchi vosita sifatida korpusning o‘zi xizmat qiladi (sim, membrana kabilar tovush chiqaruvchi vosita sifatida xizmat qilmaydi). Qirg‘iz musiqa madaniyatida bunday cholg‘ular guruhiga og‘iz qomuzi, qo‘ng‘iroqlar, shaqildoqlar kiradi.

Ushbu guruh cholg‘ularidan faqat tovush chiqarish vositasi emas, balki tumor, bezak sifatida ham foydalanilgan. Ularda sehrli kuch bor deb hisoblanib, turli marosimlarda ham ahamiyati muhim bo‘lgan.

O‘zi ovoz chiqaruvchi cholg‘ularning asosiy qismi metallardan ishlanganligi sababli, ularni temirchi ustalar yasaganlar.

Temir og‘iz qomuz (qisqa - temir qomuz yoki og‘iz qomuz) - metallardan yasalgan og‘iz chertma cholg‘usi. U yoysimon shaklga ega bo‘lib, uzunligi 6-7 sm bo‘ladi. Bu cholg‘u temir, mis, bronzadan yasalgan. Mazkur cholg‘uni chaluvchilar temir qomuzchu yoki og‘iz qomuzchu deyilgan. Temir qomuz chaluvchilar an‘anaga ko‘ra ayollar va bolalar bo‘lishgan.

Cholg‘uning tembri yumshoq, sharqiroq, flojolet qirralariga ega.

Temir qomuz - qadimiy cholg‘ulardan biri deb hisoblanadi. U respublikaning barcha hududlarida ma‘lum. Temir qomuzning jahon bo‘ylab talaygina "qarindoshlari" bor. Rossiyada - vargan, nemischa nomi - maultrommel, italyancha - scaccia - pensieri,

fransuzcha - quimbarde, ispancha - virimbao, ukraincha - drimba, moldavancha - drombule, qozoqcha - shan qabiz, o'zbekcha - chanqobuz va hokazo.

Jig'och soz qomuz (yog'och og'iz qomuz) - temir soz qomuzga yaqin bo'lgan cholg'u. Ushbu cholg'u Qirg'izistonning janubida tarqalgan. Yog'och og'iz qomuz uchi toraytirilgan yog'och plastina bo'lib, uzunligi 13 smdan 20 smgacha bo'lishi kuzatiladi. Toraytirilgan tomonining kengligi 1 sm, keng tomoni 2 smga teng. Tilcha vazifasini vibratsiyalanuvchi ingichka plastinka bajaradi. Yog'och og'iz qomuz **barbaris, jimolost** kabi o'simliklardan yasalgan.

Ijro oldidan yog'och og'iz qomuz ingichka tomonidan chap qo'l bilan og'izga jipslashtiriladi. O'ng qo'l bilan tilcha tortib turiladi. Bunday tarzda chiqarilgan tovush og'iz bo'shlig'idagi havo rezonansi tufayli kuchaytiriladi.

An'anaga ko'ra, yog'och og'iz qomuzni ayollar chaladilar. Hozirda erkak ijrochilar ham bor.

Yog'och og'iz qomuzning tovushi temir qomuzga nisbatan bo'g'iqroq.

Zamonaviy yog'och og'iz qomuzning to'rt turi mavjud. Bu cholg'u nafaqat yakkaxon tarzda, balki ansambllarda ham qo'llaniladi.

Jilajin - hozirda kam ishlatiladigan cholg'u bo'lib (idiofon), chalish jarayonida silkitiladigan qo'ng'iroqcha. Uning ichidagi sharcha erkin harakatlanadi.

Jilajin kundalik hayotda ishlatilgan. U bir tomondan musiqiy cholg'u bo'lsa, ikkinchi tomondan chaqiriq uchun qo'llanilgan. Ba'zan jilajin ayollar soch turmagini bezagi sifatida ham qo'llanilgan. Ushbu cholg'u o'zining yoqimli tovushi tufayli keng tarqalgan.

Jilajin temir, bronza, kumush va mis kabi metallardan tayyorlangan.

Qo'ng'irou (qo'ng'iroq) - hajman kichik bo'lgan qo'ng'iroqcha. Qo'ng'iroqcha ko'proq ko'chmanchi tarzda yashovchi xalqlarda ishlatilgan. Ko'chish paytida qo'ng'iroqcha otlarga taqib qo'yilgan.

Qo'ng'iroqchalar ham turli metallardan yasalib, ustalar ularni chiroyli naqshlar bilan bezashgan. Qo'ng'iroqlarning hajmiga qarab ovoz tembri ham o'zgargan.

Zamonaviy folklor va konsert amaliyotida qo'ng'iroq ansambl-larda qo'llaniladi.

Shaldiroq (shaqildoq) - bu cholg'uning ko'rinishi quyidagicha: tayoq ko'rinishidagi temirga uchta katta temir xalqalar o'rnatilib, katta xalqalarga mayda xalqachalar o'tkaziladi. Silkitish paytida moslama ovoz chiqaradi. Bu ritmik-shovqinli idiofon marosim cholg'usi sifatida butun Qirg'izistonda tarqalgan edi. Hozirda esa u kam uchraydi.

Asa tayaq (asa-musa) - ramka yoki xassa tayoq shaklidagi idiofon.

Tovush chiqaruvchi vosita sifatidaturli osma moslamalar ishlatilgan.

An'anaviy asa-tayaq - yog'och xassa bo'lib, uning uzunligi taxminan 50 sm. Uning yuqori qismiga turli o'zi ovoz chiqaruvchi narsalar o'rnatilgan: diametri 3 sm bo'lgan metall disklar, tugmalar, mato parchalari, ot yoli, yog'och brusoklar, qo'y suyaklari ("oshiq" suyak).

Qirg'iz shomonlari (baxshilari) va darvishlari (duvana) uchun xassa tayoq turli davolovchi marosimlar o'tkazish uchun qo'llaniladigan vosita hisoblanadi.

Hozirgi zamonda mazkur cholg'uning funktsiyasi ham konstruksiyasi ham o'zgargan. U folklor cholg'u ansambllarida qo'llaniladi.

Dildirek (dirildoq) - kam qo'llaniladigan metall idiofon. Uning diametri 5-7 sm, qalinligi 1 mm bo'lgan yumaloq ikkita plastinkadan iborat. Dirildoq echki, qo'y, sigir bo'yniga signal beruvchi vosita sifatida osib qo'yilgan. Plastinkalar hayvonning harakati vaqtida bir-biriga urilib, tovush chiqargan. Cholg'uga nafaqat musiqiy-maishiy bezak sifatida, balki mollarni yomonlikdan asrovchi tumor sifatida ham qaralgan.

Zuuldoq (zuvidoq). Bu moslama musiqiy cholg'uga nisbatan, ko'proq tovush chiqaruvchi o'yinchoqqa o'xshaydi. Avvallari u qamishdan yasalgan, endi esa unda yog'och detal yoki tugma ham qo'shilgan. Tugma yoki yog'och detal 20-30 smli ipga o'tkazilib, ip tortiladi. Ip tortilgan payt zuvillagan tovush chiqadi.

Yuqorida o'rganib chiqilgan cholg'ular guruhlariga nazar tashlab, shuni aytish joizki, Qirg'iz xalq cholg'ulari turli-tuman. Ular o'zining konstruktiv tuzilishi, badiiy imkoniyatlari bilan ajralib turadi.

Tayanch soʻzlar:

Qirgʻiz xalq musiqiy cholgʻulari, torli cholgʻular, damli cholgʻular, urma cholgʻular.

Nazorat savollari:

1. Qirgʻiz xalq cholgʻulari necha turga boʻlinadi?
2. Qirgʻiz xalq torli cholgʻulari haqida gapiring.
3. Qirgʻiz xalq damli cholgʻulari xususida soʻzlab bering.
4. Qirgʻiz xalq zarbli cholgʻulari xususida soʻzlang.
5. Oʻzi sadolanuvchi cholgʻular haqida nimalarni bilasiz?

8-MAVZU

TOJIK XALQ MUSIQA AN'ANALARI. MAROSIM VA NOMAROSIM JANRLARI. TOJIK XALQ DOSTONCHILIGI



Reja:

1. Tojik xalqi madaniyati tarixidan
2. Marosim janrlari
3. Nomarosim janrlari
4. Tojik xalqining epik ijodi

Adabiyotlar:

1. Шукуров М. История культурной жизни Таджикистана. Душанбе. 1970.
2. Музыкальная жизнь Таджикистана. Подред. Н. Нурджанова, З. Таджиковой. вып. 3-4. М., 1970-1974
3. Ульмасов Ф. О некоторых современных аспектах теории и таджикской традиционной музыки // Борбад, эпоха и традиции культуры. Душанбе, 1990
4. Кароматов Ф., Нурджанов Н. Музыкальное искусство Памира. Тт. 1-2. М., 1978

5. Таджикова З. Некоторые особенности таджикской народной музыки // Сурудҳои халқи тоҷики. Душанбе. 1966
6. Хакимов Н. Музыкальная культура таджиков (древнейшая, древняя и ранне средневековая история). Худжанд. 2001
7. Фирдоуси А. Шахнаме. Подред. А.Н.Болдырева. В 6 тт. М., 1989



Tojiklarning ajdodlari o'rta osiyolik sharqiy eron qabilalari va elatlari edi. Ular bizning eramizga qadar hozirgi Samarqand va Buxoro hududlarida So'g'd yoki So'g'diyona, Pomir hamda shimoliy Afg'oniston (Balx) tumanlarida, Baqtriya kabi qadimiy davlat birlashmalarini barpo etganlar. Bu birlashgan davlatlarning siyosiy markazlari ayni paytda Markaziy Osiyoning yirik madaniy o'choqlari hisoblangan.

Azaldan kelib chiqishi g'arbiy eronliklar (forslarning ajdodlari)dan bo'lgan tojiklarning ajdodlari o'z madaniyatlarini yaratgan holda, forslar bilan ham muntazam uzviy madaniy aloqada bo'lganlar.

Bu xalqning tarixidagi eng yirik voqeliklar - bu eramizdan avvalgi VI-IV asrlarda Eron axmoniylari bilan bo'lib o'tgan urushlar va eramizning IV-II asrlarida Aleksandr Makedonskiy boshlab bergan yunon-makedon bosqiniga qarshi janglar edi. Shu davrning adabiy yodgorliklari madaniyat, shahar hayoti, badiiy va musiqiy sohalarining yuksak rivoji xususida so'zlaydi.

Keyingi davrlarda tojik xalqi tarixi, qolaversa, butun Markaziy Osiyo tarixida So'g'd yetakchi rol o'ynadi. Shahar hayotining o'sishi, So'g'd va Baqtriya aholisi o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalar, sharqiy eron qabilalarini yagona tojik xalqiga birlashtirish uchun zamin yaratdi. Bunga intilish eramizning ayniqsa VII-IX asrlariga kelib, arablar Markaziy Osiyoni bosib olgan davrda yanada mustahkamlandi. O'troq madaniyat va ona tilining arablar tomonidan ayovsiz toptalishiga qarshi tojik xalqi jon-jahdi bilan kurashdi. Arab istilosidan ozod bo'lish natijasida Buxoroda Somoniylarning (875-999) tojik feodal markazlashgan davlati barpo etildi va tojik xalqining shakllanish jarayoni ham shuning bilan yakun topdi.

Bu bilan parallel ravishda mazkur hududda turkiy tilda so'zlashuvchi o'zbek xalqining ham rivojlanish jarayoni birga kechdi. Bu kabi tarixiy sharoitlar tufayli tojik xalqining ham, o'zbek xalqining ham katta qismi ikki tilda, ya'ni tojik va o'zbek tillarida so'zlasha boshladi. Bu ikki xalqning har biri o'z madaniyatini barpo etishi bilan birga, o'zaro madaniy aloqalarni ham uzmati. Mazkur madaniyatlar, xususan she'riyat va musiqa san'ati o'rtasidagi katta qardoshlik ham shu yerdan boshlangan.

Tojik xalq qo'shiqchiligi janrlari

Tojik xalq qo'shiqchilik ijodiyotining asosini mehnat qo'shiqlari tashkil etadi. Bu xalqda deyarli har bir kasbni ifoda etuvchi qo'shiqlar mavjud, masalan, dehqonchilik, chorvachilikdan tashqari, taqachilik, etikdo'zlik, to'quvchilik, naqqoshlik, temirchilik va h.k. kabi.

Tojiklarning mehnat qo'shiqlarida ularning hayot tarzi, qiyinchiliklari, ichki kechinmalari ham ifoda etiladi. Ular lirik, didaktik, hajviy va boshqa mavzularda bo'lishi mumkin. Xususan, "Ashulai bofandagi" - "To'quvchi ayol qo'shig'i" tojik ayolini o'ta ifodali obrazlarda tasvirlaydi.

Tojiklarning marosim qo'shiqlarini oilaviy va maishiy turlarga bo'lish mumkin.

Maishiy qo'shiqlar - bu asosan bayramona kayfiyatli, yil davomida ijro etiluvchi dehqonchilik marosim qo'shiqlari, shuningdek, tabiat kuchini jodu qilish, ya'ni qurg'oqchilik vaqtida yomg'ir chaqirish, olov (gulxandan sakrash) va suv (g'usl qilish) orqali poklanish, shifobaxsh marosimlardir. "Guligardon", ya'ni ko'klamni chaqirish va Navro'z - yangilanish kabi bayram marosimlari tojiklarda keng nishonlangan.

Ko'klamni chaqirish marosimi quyidagicha bo'lgan: bir guruh o'smirlar erta bahor gullari bo'lmish boychechak, binafsha, lolalardan tuzilgan ulkan guldastalarni ko'tarib qishloqning har bir uyiga kirib chiqishgan va childirma hamda dutor jo'rligida tabrik qo'shiqlari kuylashgan. Bu kunni nishonlash odatiy bazm bilan yakunlangan. Unda sozanda, xonanda va raqqoslar muhim o'rin egallagan.

Navro'zni nishonlash bahoriy kun tengiligi bilan belgilangan va ko'klamni chaqirish marosimi bilan ulanib ketgan. Navro'z katta xalq saylidan iborat bo'lib, unda to'kin dasturxon atrofida kuy-qo'shiqlar kuylangan, askiyalar aytilgan. Shuningdek, turli xalq o'yinlari, musobaqalar uyushtirilib, bo'lajak hosil haqida bashorat qiluvchi follar ko'rilgan.

Qadimiy bahor bayramlarining o'ziga xos qirralari hozirgi kunga qadar saqlanib kelmoqda. Jumladan, "lola sayli" aynan shunday bayramlardan bo'lib, bu bayramning birinchi kunida shoxlari lolalar bilan bezatilgan ulkan daraxtlar ostida ko'p ommali sayllar uyushtirilgan. Musiqiy cholg'ular jo'rligida qo'shiq va raqslar ijro etilgan. Bunda erkaklar ansambli ijrosidagi "Sarnaqsh" aytimi yetakchi rol o'ynagan. Muhim marosim qo'shiqlaridan yana biri "Naqshi kalon" bo'lib, tabiatan madhiya ruhida yaratilgan.

Bayramning ikkinchi kuni o'tganlarni xotirlashga bag'ishlangan. Bu marosim raqqos va cholg'uchilar ishtirokida, qabristonlarda o'tkazilgan. Shuningdek, daryoda cho'milib, poklanish marosimi ham amalga oshirilgan.

Qadim zamonlarda yuzaga kelgan bu marosimlar, tojik xalqi orasida islom dini keng tarqalgach katta o'zgarishlarga uchradi. Ammo bu ularning asosiy mazmun va mohiyatiga ta'sir ko'rsatmadi.

Oilaviy marosim qo'shiqlariga nikoh to'yi, beshik to'yi, muchal to'yi, shuningdek motam qo'shiqlari kiradi. Kambag'al oilalarning to'ylari kamtarona o'tsa, boylar sozanda, xonanda va baxshilarsiz to'y o'tkazishmagan. Bu ko'ngil ochar marosimlar oqshomda o'tkazilsa, kunduzi turli o'yinlar, darboz va masxarabozlarning chiqishlari yig'ilganlarni xushnud qilgan. To'ylar odatda kuzda dala hosilining yig'im-terimidan so'ng o'tkazilgan.

Mehnat qo'shiqlari ham, marosim qo'shiqlari ham xalq ijodining eng qadimgi turlaridan sanaladi. Qo'shiqlarning keyinchalik yaratilgan takomillashgan turlari musiqiy-uslubiy jihatdan ham avvalgilariga tayanadi.

Boshqa xalqlardagi kabi tojiklarda ham maishiy qo'shiqlar keng o'rin tutadi. Ular mazmunan boy lirik qo'shiqlarni o'zida jamlagan. Maishiy qo'shiqlarning ohangdor kuyi she'riy matn vazni bilan uzviy bog'langan bo'lib, o'zining rivojlanganligi bilan ajralib turadi.

Lirik qo'shiqlar orasida ikki ijrochi (ko'pincha yigit va qiz) qo'shiq-aytishuvi - laparlar muhim o'rin tutadi. Ular barmoq vaznidagi oddiy xalq so'zlariga bog'lab aytiladi. She'riy matnlar ko'pincha o'zgarib turadi. Lirik mazmundagi laparlardan tashqari, hazilomuz, hajviy ma'noli laparlar ham juda ommalashgan. Lapar odatda raqs jo'rligida ijro etiladi.

Tojikistonda raqs san'ati keng rivojlangan bo'lib, ayollar raqslari maishiy, ishlab chiqaruvchi (mehnat jarayonini aks ettiruvchi) yohud marosim, erkaklar esa virtuoz, hajviy va xarbiy (qilich raqsi) xarakterga ega. Raqslar qarsak, doira yoki xalq cholg'ulari ansambli jo'rligida ijro etiladi.

Tojik xalq raqs ohanglari odatda qisqa motivning ko'p marotaba takrorlanishidan iborat bo'ladi.

Tojik qo'shiqlarida kuy harakatining ikki toifasi kuzatiladi: a) kuy diapazonini chizib beruvchi sakramadan keyingi pastlovchi harakat, b) ko'tarilib-pastlovchi. Har ikki vaziyatda ham kuy harakatining asosi - bu "alla" janri bilan muvofiqlashuvchi ovozning pog'onama-pog'ona yurishidir. Kuyning har ikki turi tojik qo'shiqlarida alohida ko'rinishda, ya'ni oddiy tuzilma ohanglarida va birmuncha murakkab strukturali qo'shiqlarga xos bo'lgan bir-biri bilan mutanosiblashgan ko'rinishida ham birdek uchraydi.

Tojik xalq musiqasi asosida diatonik lad-pardalar tizimi yotadi.

Unga major ladiga moyil miksolidiy, ioniy va minor ladiga mansub bo'lgan eoliy, doriy va frigiylar kiradi.

Diatonika bilan bir qatorda yagona tonikani saqlagan, almashinuvchi pog'onali, xromatizatsiyalashgan ladlar ham keng rivoj topgan.

Tojik qo'shiqlarining yana bir muhim shakllantiruvchi vositasi - bu she'r vazniga mos keluvchi vazn-usuldir.

Tojik xalq qo'shiq usuli asosida "bak, bum" (hozirda Saraxbor usuli nomi bilan mashhur) kabi 2 murakkab xoreik zarb yotadi. Bu usul negizi tojik musiqasi nazariyasida "zarbi qadim", ya'ni qadimiy zarb, deb nomlanadi.

Tojik qo'shiqchiligidagi "ba-ka ba-ka, ba-ka ba-ka" ko'rinishidagi sakkiz zarbli usul ko'proq qo'llanadi.

Tojik xalq qo'shiqlaridagi she'riy matnlarning asosiy turlari - bu to'rt misrali ruboiy va chorbaytdir. Ularda satrlar a a b a ko'rinishida kelsa, "tarona" nomli ruboiylar a a a a singari bir qofiyali bo'lib keladi. To'rtliklarning har ikki turi ham xoreik strukturaning 8, 7 va 11 murakkab zarblariga to'g'ri keladi.

Tojik xalq dostonchiligi

Tojik epik ijodi ham o'z ildizlari bilan qadim davrlarga borib taqaladi. Tojik xalqining ajdodlari tomonidan yaratilgan qahramonona mifologik xarakterdagi epos, ya'ni dostonlar turkumi Firdavsiyning (934-1020) "Shohnoma" asaridan o'rin olgan. Tojik xalqi ajdodlarining yorqin madaniy ijod mahsuli, ular tomonidan yaratilgan qahramonlik dostonlari va ertaklaridir, - deb yozadi B.G.Gafurov. Yorug'likning zulmatga qarshi abadiy kurashi, yaxshilik va yomonlik iblislarining o'zaro jangi, olov hamda ajdahoga qarshi kurashlar xususidagi doston va ertaklar shu jumlagi kiradi. Bu dostonlar orasida "Rustam haqida doston" kabi turkumli asar juda mashhurdir. Yaqin vaqtlargacha tantanalarda uning siymosi aks ettirilgan ulkan qo'g'irchoqlar o'ynatilgan.

Tojikistonda hozirgi kunga qadar shu dostonga o'xshash ertak ommalashib, uni zarkokil Zarina haqidagi doston deyishadi. Bu asar Zarina ismli sak qahramon ayoli haqida.

Tog'li Tojikiston hududida hanuzgacha ommalashib kelayotgan doston - bu "Dostoni Go'ro'g'li sulton"dir. Mazkur asar mazmunining yoritilishida xalq qahramoni - Go'ro'g'lining yaqin donishmand maslahatchisi hofiz Soqiy muhim rol o'ynaydi.

Tojik xalqida qahramonlik, jasurlik, vatanparvarlik mavzuidagi dostonlardan tashqari ishqiy-lirik mavzudagi dostonlar ham keng tarqalgan. Bular "Layli va Majnun", "Toxir va Zuhra", tog'li hududlarda "Toshbek va Gulqurbon" kabi asarlardir.

Tayanch so'zlar:

Tojik xalq musiqa ijodi, marosim janrlari, nomarosim janrlari, Tojik xalq dostonlari.

Nazorat savollari:

1. Tojik xalq musiqa an'analarining o'ziga xos qirralari xususida nima deya olasiz?
2. Tojik xalq musiqa ijodi qaysi qardosh xalqnikiga yaqin?
3. Tojik xalq marosim janrlari haqida gapiring.
4. Tojik xalq nomarosim janrlari xususida so'zlab bering.
5. Tojik xalq dostonlari xususida so'zlang.

9-MAVZU

POMIR TOJIKLARINING MUSIQA MEROSI. MUSIQIY SOZLARI

Reja:

1. Pomir xalqlarining o'ziga xos madaniyati va urf-odatlari
2. Pomir xalq musiqa janrlari
3. Pomir xalq musiqa cholg'ulari

Adabiyotlar:

1. Шукуров М. *История культурной жизни Таджикистана*. Душанбе. 1970.
2. Музыкальная жизнь Таджикистана. Под ред. Н. Нурджанова, З. Таджиковой. вып. 3-4. М., 1970-1974
3. Ульмасов Ф. *О некоторых современных аспектах теории таджикской традиционной музыки // Борбад, эпоха и традиции культуры*. Душанбе, 1990
4. Кароматов Ф., Нурджанов Н. *Музыкальное искусство Памира*. Тт. 1-2. М., 1978
5. Таджикова З. *Некоторые особенности таджикской народной музыки // Сурудҳои халқи тоҷики*. Душанбе. 1966
6. Хакимов Н. *Музыкальная культура таджиков (древнейшая, древняя и раннесредневековая история)*. Худжанд. 2001
7. Фирдоуси А. *Шахнаме*. Под ред. А.Н.Болдырева. В 6 тт. М., 1989

Pomir - O'rta Osiyodagi eng baland tog' bo'lib, u Tojikistonning avtonom o'lkasi hisoblanadi. Va Tog'li Badaxshon deb ataladi. Pomir Xitoy va Afg'oniston bilan chegaradosh.

Sharqiy Pomir vodiysi - Murg'ob tumanida chorvador-qirg'izlar istiqomat qilsa, Panj daryosi qirg'oqlari, g'arbiy Pomirda tojiklar yashaydi. Ular "pomiroidi xalqlar" guruhini tashkil etadi.

O'zining moddiy madaniyati, iqtisodiyoti va rivojlanish tarixi bilan pomirliklar Tojikistonning boshqa tog'li hududlarida yashovchi tojiklarga o'xshaydi. Shunga qaramay, pomirliklarning hayot tarzi, urf-odatlari o'ziga xos qirralari bilan ajralib turadi.



Xususan, ular hozirda ham tojik tili bilan bir qatorda sharqiy eron tillarida soʻzlashib, Islom dinining shiyalar mazhabiga mansubdir.

Pomirning asosiy qismi chorvachilik bilan birga dehqonchilik bilan shugʻullanadi. Va barcha mashaqqatli jismoniy mehnatni qoʻl kuchi bilan bajaradi.

Togʻ aylanma yoʻllari va toshqin daryolar bu oʻlkani tashqi dunyodan uzib qoʻygan. Pomirning tumanlari ham bir-biridan andoza olib yashaydi, qishloqlari esa umuman taraqqiyotdan uzoqda qolgan. Bularning barchasi xalqning musiqiy folklorida va umuman butun pomirliklar sanʼatida aks etmay qolmagan.

Pomirliklarning xalq musiqa va teatr sanʼati koʻp yillar davomida oʻrganilmay qolib ketgan. Pomir folklori xususidagi ilk qaydlarni rus sayohatchilari, geograflari, biologlari, etnograflari, lingvistlari-ning XIX asr mobaynida chop etilgan asarlarida koʻrish mumkin.

Pomirdagi musiqiy, raqs va teatr tomoshalari bir necha qarindosh oilalar istiqomat qiluvchi katta uylarda oʻtkazilishi odat boʻlgan.

Bunday katta uylarning o'rtasida loysuvoqli "nog'a", ya'ni "supa"lar qurilgan. Unda san'atkorlar o'z chiqishlarini namoyish etishgan. Tomoshabinlarning o'tiradigan joylar "do'kon" deyilgan. Ayollar odatda, o'choq oldida bir-birlariga tiqilishib o'tirishgan, ularning ro'parasida, do'konlarda esa erkaklar o'tirishgan.

Xalq musiqa, raqs va teatr san'atining deyarli barcha sohalari erkaklar faoliyati bilan bog'liq. Ayollar esa yuzlarini berkitmasdan barcha tomoshalarni ko'rsalar-da, raqs tushish va qo'shiq aytishga ruxsat berilmagan. Beva ayollar bundan istisno edi, ularga ba'zan qo'shiq aytib, raqsga tushish man etilmagan.

Ayollar dam olishi nihoyatda chegaralangan bo'lib, faqat ayrim chekka qishloqlardagina nikoh to'yida kuyovning onasi va opasigina mehmonlar oldida raqsga tusha olgan. Ba'zan esa to'y marosimlarida ayollarning o'zlarigina ichkarida bazmu-jamshid uyushtirishgan.

Tojik xalq musiqasining asosi - bu qadimiy turlari tog'li Tojikiston aholisi orasida saqlanib qolgan xalq qo'shiqlaridir.

SHu bilan birga tog'li hududda dostonlarning rechitativ shakllari ham keng tarqalgan. Tojik musiqa san'ati rivojidadagi yuksak muvaffaqiyatlardan biri - bu o'troq sharoitda, tashqi ta'sirlardan holi tarzda, antik davrning keng tarqalgan epik she'riyati bo'lmish gekzametning dostonlarda vujudga kelganidir.

Xalq qo'shiqchilik ijodining qadimiy turlarini kechroq yaratilganlari bilan taqqoslaganda, ular o'rtasidagi uzviy aloqani, murakkab turlarning oddiylardan kelib chiqqanini kuzatish mumkin.

Tojik xalq cholg'u musiqasi

Asrlar mobaynida rivojlanib, takomillashib kelgan tojik xalq cholg'uchiligi nihoyatda boydir. Uni ikkita asosiy guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga yasalishi jihatdan oddiy va turlari kam sonli bo'lgan tog'li Tojikiston cholg'ulari kiradi. Ularga damli cholg'ulardan tutik va qo'shnay, torli sozlardan g'ijjak, do'mbirak va pomir rubobi, zarbli cholg'ulardan doira va tavlak mansubdir.

Tutik - uch, to'rtta barmoq teshiklari bo'lgan cho'pon nay turi.

Qo'shnay yoki juftnay - tilchali, bir juft qamishdan yasalgan nay. Qo'sh nayning har ikkida bir xil barmoq teshiklari mavjud.

G'ijak - uch yoki to'rt torli, kamonli cholg'u bo'lib, ko'pincha kvartaga sozlanadi.

Do'mbirak - ikki torli chertma cholg'u bo'lib, yakkaxon soz sifatida ham, doston ijrosiga jo'mavoz sifatida ham qo'llaniladi.

Pomir rubobi - noxun bilan chalinadigan, dastasidagi parda o'rinlari ajratilmagan torli cholg'u. Uning uchta asosiy tori bo'lib, ulardan yuqorgi ikkitasi kvarta bo'yicha sozlanadi.

Doira - ichki tomoniga temir xalqachalar bog'langan zarbli cholg'u.

Tavlak - ko'zasimon, bir yoqlama tablani yodga soluvchi cholg'u bo'lib, uning katta qismiga membrana (teri) tortilgan.

Tojik xalq musiqa cholg'ularining ikkinchi guruhi asosan Tojikiston vodiysi, xususan shahar aholisi orasida keng tarqalgan. U o'z toifasiga ko'ra ko'p sonlidir. Cholg'ular o'zining tashqi go'zalligi bilan ham e'tiborni tortadi. Bu guruhga qo'shnaydan tashqari, nay, surnay, karnay kabi damli cholg'ular; torlilardan g'ijakdan tashqari, dutor, tanbur, rubob va chang, zarbli sozlardan doiradan bo'lak qayroq va nog'oralar kiradi.

Tayanch so'zlar:

Pomir xalq musiqa ijodi, pantomimo, raqs, teatr, raqqos, milliy cholg'ular.

Nazorat savollari:

1. Pomir o'lkasi Tojikistonnig qaysi hududida joylashgan?
2. Bu o'lkada tojiklardan tashqari yana qanday xalq yashaydi?
3. Pomir tojiklari musiqasining o'ziga xos qirralari xususida nima deya olasiz?
4. Pomir musiqa cholg'ulari haqida gapiring.

10-MAVZU

TURKMAN XALQ MUSIQA AN'ANALARI. MUSIQIY CHOLG'ULARI



Reja:

1. Turkman xalqining kelib chiqishi tarixi
2. Turkman xalqining o'ziga xos madaniyati
3. Turkman xalq musiqiy cholg'ulari tarixi
4. Qadimiy va zamonaviy cholg'ular

Adabiyotlar:

1. Успенский В., Беляев В. Туркменская музыка. В 2-х томах. Алматы, 2003.
2. Виноградов В. Искусство туркменского народа. "СМ", 1955. №12.
3. История музыки народов Средней Азии и Казахстана. М., 1994.
4. Т.С.Вызго. Музыкальные инструменты Средней Азии М., 1980.
5. Беляев В. Очерки по истории и музыки народов СНГ, т.1. М., 1962.

6. Н.Н.Миронов. *Обзор музыкальных культур узбеков и других народов востока. Самарканд. 1931.*

7. Гуллийев Ш. *Туркменская музыка (наследие). Алматы. 2003.*



Turkmanlarning kelib chiqishi Osiyo hududining aksariyat qismini egallagan turkiy qabilalari bilan bog‘liq. Tarixda turkiy og‘uz yoki g‘uz qabilalari haqidagi dastlabki ma‘lumotlar VI asrga tegishlidir. O‘g‘uz qabilalari asosan chorvachilik bilan shug‘ullanib, hayot kechirganlar.

Turkman an‘anaviy musiqasining paydo bo‘lishi va rivojlanishi turkman xalqining etnik tarixi bilan bevosita bog‘liq. Turkman xalqining kelib chiqishi bilan bog‘liq barcha masalalarga aniqlik kiritilmagan bo‘lsa-da, etnografik, arxeologik va boshqa izlanishlarning natijalariga ko‘ra, Turkmaniston hududida eng qadimgi odamlar yashaganligiga tegishli dalillar topilgan. Masalan, mezolit davrida (er.av. X-VII ming yilliklarda) Kaspiy dengizining

sharqiy qirg'oqlarida, Katta Bolqon tog'larida ovchilik, baliqchilik bilan shug'ullanuvchi qabilalar yashaganliklari aniqlangan.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, turkman xalqining kelib chiqishi tarixi ana shu hududda yashagan qadimgi qabilalar va xalqlar (parfyanlar, marg'iyonaliklar, xorazmliklar, eftalitlar, massagetlar)dan boshlanadi. Keyingi davrlarda ushbu hududga avval qadimgi turklarning, keyinchalik turkman-og'uz qabilalarining bostirib kirishi mahalliy xalqning turkiylashishiga olib keldi. Xalqning shakllanish jarayoni ma'naviy hayotga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Turkman xalqining qadimgi musiqasiga oid dastlabki ma'lumotlar Parfiya, Marg'iyona, Xorazm madaniyati bilan bog'liq arxeologik yodgorliklardan olingan. Arxeologik yodgorliklarda torli, damli va urma cholg'ularning tasvirlari bo'lib, aks ettirilgan syujetlarda qadimgi Turkmaniston xalqlari ana shu cholg'ularni turli diniy, bayram marosimlarida qo'llaganliklari aniqlanadi.

"Turkmanlar" so'zi musulmon adabiyotida X asrda paydo bo'ldi. Bu davrga kelib, turkmanlar Movarounnahr hududiga kirib keldilar va islom dinini qabul qildilar.

XVI-asrga kelib hozirgi Turkmaniston hududida turkmanlarning soni ancha ko'paydi. Turkmanlarning Turkmaniston yerlariga joylashuvi nihoyatda murakkab kechgan. Yer uchun mahalliy xalqlar bilan kurashlar olib borilgan va nihoyat XIX asrga kelib joylashuv jarayoni nihoyasiga yetdi.

Turkmanlarning o'ziga xos madaniyati bormi va u qanday paydo bo'lgan?

Turkman xalqining turli janrlarga boy bo'lgan badiiy merosi ko'p asrlik an'analarga ega. Musiqiy meros mohiyatan xalqning tarixiy yodgorligi bo'lib, bunda musiqaning o'rni salmoqlidir. An'anaviy san'atning boshqa turlari kabi turkmanlarning ham musiqasi yorqin milliy qirralariga ega. Unda xalqning dunyoqarashi, maishiy hayotining lavhalari, o'ylari o'z aksini topadi.

Turkmanlar hayotida musiqaning ahamiyati haqida Turkmanistonga kelgan olimlar va sayohatchilar ma'lumotlar yozib qoldirganlar. XIX asrda nashr qilingan kitoblardan birida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: "Turkman xalqining deyarli barchasi o'yinga tushishini, cholg'u chalishni va qo'shiq aytishni bilishadi".

Turkmanlar musiqasi xalqning psixologiyasini aks ettiradi. Musiqa tinglovchi ba'zan mamlakatning tabiati (vokal musiqa, tuyduk navolari), yoki uy sharoitini (dutor navolari) ko'z oldiga keltiradi. Masalan, ikki tuydukchi bir-biriga qarama-qarshi holatda turib (ochiq havoda), ko'proq tinglovchilar to'plash maqsadida chaqiriq ohanglarini ijro qiladilar. Dutor ijrosidagi musiqa o'zining mayinligi, dilkashligi bilan qulay uy sharoitini eslatadi.

Turkman musiqasida jimjimadorlik, yorqinlik yo'q. Dastlab bu musiqa zerikarlilik tuyuladi. Ammo tinglovchi e'tibor bilan tinglaganda, musiqada chuqur mulohazalarni, teranlikni anglashi mumkin.

Kelib chiqishi uzoq o'tmishga taqaluvchi turkman musiqasi yillar osha bizning davrimizgacha og'zaki tarzda avloddan-avlodga, ustozdan-shogirdga o'tib yetib kelgan. Merosda jamlangan asarlar o'zining funksiyalariga ko'ra bir - biri bilan bog'liq ikki qatlarga bo'linadi: musiqiy folklor va og'zaki an'anadagi kasbiy musiqa.

Musiqiy folklor o'z ichiga marosim, taqvim, oilaviy-maishiy, mehnat va boshqa janrlarni oladi va nisbatan qadimiy qatlam hisoblanadi. Musiqiy folklor janrlari aniq vaqt va voqe'liklar bilan bog'liq holda rivojlanadi. Ushbu janrlar xalqning kundalik hayoti bilan bevosita bog'liq, ijrochilik vazifasini xalq bajaradi.

Ko'p asrlik taraqqiyot davomida xalq orasida iqtidorli musiqachilar alohida guruh sifatida ajralib chiqib, o'zlarining ijrochilik an'analari va maktablarini shakllantirganlar. Musiqiy folklor janrlaridan farqli ravishda ular turli oilaviy marosimlarda (to'ylar), musiqiy-badiiy yig'inlarda, xalq bayramlarida qatnashishgan. Ushbu yo'nalishning asosiy namoyondalari baxshi va sozandalardir. Ular doimo xalq e'tiborida bo'lib, asrlar davomida jamlangan repertuar esa hozirgi davrda turkman musiqiy merosining durdonalari hisoblanadi.

Yana shuni ta'kidlab o'tish kerakki, bebaho meros asarlari zamonaviy madaniy hayotning ajralmas qismi bo'lib, hozirgi kunlarda ham rivojlanib, kompozitorlik ijodiyoti uchun manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Turkman an'anaviy musiqasini to'plash va o'rganish alohida masaladir. Bu borada musiqiy etnograf, kompozitor V.A.Uspenskiy va musiqashunos V.M.Belyaevlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Ikki jildlik "Turkman musiqasi" deb nomlangan kitoblari V.A.

Uspenskiy va V.M.Belyaevlar tomonidan yaratilgan. Bu kitoblarda turkman xalqi musiqasining 352 ta nota namunalari jamlangan.

Turkman musiqiy folklorini o'rganish 80-yillarda nisbatan jadal davom ettirildi. Masalan, N.N.Abubakirovaning "G'arbiy Turkmaniston xalq qo'shiqlari" (1982), "Turkman baxshilarining san'ati" (1985), M.Gapurovaning "Chorjo'y viloyati turkmanlarining musiqiy merosi" (1992), Ch.Jumaevning "Turkman an'anaviy cholg'u musiqasi" deb nomlangan ilmiy ishlarini sanab o'tish joiz.

Turkman xalqining badiiy merosi ko'p asrlik an'analarga ega bo'lib, janrlarning turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Turkman musiqasida xalqning dunyoqarashi, maishiy hayotining turli qirralari, o'ylari va armonlari o'z aksini topgan.

Turkman musiqasini o'rganishda o'rxun yozuvlari, "Qo'rqit ota" eposining ahamiyati kattadir. "Qo'rqit ota" eposida tarix, madaniyat, musiqaga oid ma'lumotlar jamlangan. Masalan, mazkur epos shakllanish jarayonida og'uz baxshilari ozanlar deb nomlangan va bosh qahramon Qo'rqit ota zamonaviy baxshi va sozandalarning prototipi bo'lgan. Shuni ta'kidlash kerakki, XVIII asrda "ozan" atamasi "baxshi" so'ziga sinonim sifatida qo'llanilgan.

Turkman musiqasidagi shakl masalasi ham ancha qiziqarli. Turkman musiqasidagi shakllarning asosiy tamoyillari sifatida quyidagi musiqiy atamalarni hisoblash mumkin: boshlamaq, yappildaq, shirvan va chikmak. "Bashlamaq" deb musiqaning boshlang'ich qismiga aytiladi va "muqaddima" so'ziga to'g'ri keladi. "Yappildak" (yopilmoq) atamasi musiqiy asarning birinchi qismiga nisbatan qo'llaniladi (bu qism ko'pincha tempi jihatidan sekin va past registrda ijro qilinadi). "Shirvan" atamasi musiqaning avj qismlariga nisbatan ishlatiladi va nihoyat, "chikmak" - musiqiy asarning yakunini anglatadi.

Qadimgi musiqiy cholg'ular

Har bir xalqning musiqa madaniyati bevosita musiqiy amaliyot bilan chambarchas bog'liq bo'ladi, bunda yetakchi o'rin musiqiy cholg'ularga beriladi. Har bir musiqa cholg'usining nomida, tuzilishida, ijrochiligida o'sha xalqning musiqiy tafakkuri o'z aksini topadi.



Ma'lumotlarga ko'ra, I asrning boshlarida Turkmaniston hududida yashovchi xalqlar turli musiqa cholg'ularidan foydalanganlar. Cholg'ularning aksariyati diniy marosimlar bilan bog'liq holda amaliyotda qo'llanilgan. E.Xornbostel va K.Zakslarning sistemalari (tizimlari) bo'yicha cholg'ular to'rt guruhga ajratilgan: idiofonlar (o'zi tovush chiqaruvchi), membranafonlar (membranali cholg'ular), xordofonlar (torli cholg'ular) va aerofonlar (damli cholg'ular).

Idiofonlarga Nusay ritonlarida aks ettirilgan o'ziga xos cholg'uni misol sifatida ko'rish mumkin (Parfiya, er.av. II asr). Tadqiqotchilar bu cholg'uni timpanlarga o'xshatishgan. Mazkur cholg'u bir-biriga urib chalinuvchi yarim doira shaklidagi tovoqlar bo'lib, qo'lning katta barmog'iga mahkamlanib ijro etilgan. Taxmin qilinishicha, cholg'ularni ayollar diniy topinishlar bilan bog'liq marosimlarda raqs davomida urib chalishgan.

Membranafonlar guruhiga yumaloq shakldagi doiralarni (nusay ritonlari) va ikki tomoniga urib chalinadigan, qumsoat shaklidagi barabanlar (Tuproqqal'a, Xorazm)ni kiritish mumkin. Nusay doiralari zamonaviy dep cholg'ularini eslatadi va bu cholg'ularni ayollar ijro qilganlar. Ayrim ijrochi ayollar raqs harakatida aks ettirilgan.

Madaniy yodgorliklarda aks ettirilgan musiqiy cholg'ular orasida **xordofonlar** guruhiga kiritilgan cholg'ularning soni anchagina. Bu guruhga arfa, kifara va lyutnya ko'rinishidagi cholg'ular kiritiladi.

Arfa qadimgi cholg'ulardan biri hisoblanadi. Uning eng birinchi tasviriy ko'rinishi eramizdan avvalgi 4-3 ming yilliklarning boshi bilan belgilanadi. Keyinchalik arfa cholg'usining bir nechta turlari topilgan edi.

Turkmaniston hududidan topilgan madaniy yodgorliklarini o'rganilishidan ma'lum bo'lishicha, o'sha davrlarda mashhur bo'lgan cholg'ulardan biri lyutnyadir. Lyutnya cholg'usi aks ettirilgan ko'plab suratlar va haykalchalar topilgan.


Qadimiy Turkmaniston yodgorliklari orasida **aerofonlar** ham bo'lib, ular faqat nusay ritonlarida uchraydi: avlos, karnaysimon cholg'u, nay shular jumlasidandir. Olimlarning fikriga ko'ra, bunday cholg'ular bayramlarda, diniy marosimlarda ijro etilgan ekan.

Musiqiy cholg'ular haqida ma'lumotlarni "Qo'rqit ota" (taxminan VII-XI asrlar) eposidan ham olish mumkin. Eposda gopuz, surnay, boru, nog'ora kabi cholg'ular haqida qiziqarli ma'lumotlar bor. Eposning mazmunidan bosh qahramon bo'lmish Qo'rqit va ozan san'atiga dahldor bo'lgan personajlar o'z qo'shiqlarini "gopuz" jo'rligida ijro qilganlar. Gopuz cholg'usini Qo'rqit yaratgan bo'lib, u barcha ozanlarning piri hisoblangan va shu sababli gopuz cholg'usi ham muqaddas deyyilgan.

"Qo'rqit ota" eposida boshqa cholg'ular haqida ham ma'lumotlar bor. Masalan, uchinchi dostonida Birek to'yga telbanamo bo'lib kelib, surnay va nog'ora chalayotgan musiqachilarni haydab yuboradi. Surnay (zurna) damli cholg'u, nag'ora esa urma cholg'u bo'lib, ular hozirgi kunlarda ham oilaviy marosimlarda va umumxalq bayramlarida qo'llaniladi. Epos davomida bir necha bor tavil va boru cholg'ulari ham eslab o'tiladi. Epos mazmunidan ma'lum bo'lishicha ushbu cholg'ular harbiy yurishlar paytida ijro etilgan. Shu bilan birgalikda tevil va boru cholg'ulari o'z eliga omon qaytgan qahramonlarni kutib olishda ham ijro qilingan. Kontekstga ko'ra, tevil urma cholg'u bo'lib, nomi o'xshash cholg'ular o'zbek va tojiklarda (tavlak), arablarda (tabl), hindlarda (tabla) ham mavjud. Boru cholg'usi damli cholg'u bo'lib, unda chaqiriq ohanglari ijro etilgan.

Shunday qilib, qadimgi Turkmaniston hududida musiqa madaniyati yaxshi rivojlanganligini o'sha davrlarda qo'llanilgan cholg'ular orqali bilish mumkin. Ayrim cholg'ular bizning davrimizgacha o'zgarmagan holda ayrimlari esa ma'lum darajada o'zgargan holda yetib keldi.

Zamonaviy musiqiy cholg'ular



Musiqiy cholg'ular evolyutsiyasi turkman xalqi shakllanishi jarayoni bilan parallel ravishda kechdi. Yana bir bor ta'kidlash joizki, Turkmaniston hududida mavjud bo'lgan cholg'ular asosan diniy marosimlarda qo'llanilgan. Shu cholg'ularning faqat kichik qismigina o'zining dastlabki funksiyalarini saqlab qolgan. Cholg'ularning aksariyat qismi esa kasbiy darajadagi musiqachilar, ayollar, bolalar cholg'ulari sifatida "yashash"ni davom ettirmoqda. Zamonaviy turkman cholg'ularini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Afsun-jodu marosimlari bilan bog'liq bo'lgan musiqiy cholg'ular;

2. Marosimlar bilan bog'liq bo'lmagan musiqiy cholg'ular.

Marosimlar bilan bog'liq cholg'ular guruhiga dep (membranafon), shaldiraq, jang va duvme (idiofon) kabi cholg'ular kirgan.

Dep yoki deprek (tepmoq, urmoq, taqillatmoq) - urma cholg'u bo'lib, doyraga o'xshashlik tomonlari bor. Dep nusay ritonlarida aks ettirilgan urma cholg'ularning avlodi deyish mumkin. Yaqin davrlargacha mazkur cholg'u turkman ayollari tomonidan jo'rsoz sifatida qo'llanilgan.

Shaldiroq - tovush chiqaruvchi tayoq bo'lib, uni devona va darveshlar "ins-jins"larni haydash maqsadida qo'llaganlar. Tayoqqa ilingan qo'ng'iroqchalar yoki temir tangachalar tovush chiqaruvchi manba vazifasini bajargan.

Jang - xajman uncha katta bo'lmagan qo'ng'iroqcha bo'lib, "haydovchi" vazifasini bajaradi. Qo'ng'iroqcha karvonning boshida yoki oxirida ketayotgan tuyanining bo'yniga osib qo'yilgan. Nisbatan kichikroq qo'ng'iroqcha qo'y yoki echkilarning bo'yniga ham taqib qo'yilgan.

Duvme - ayollar va bolalarning kiyimiga, belanchakka taqib qo'yiladigan qo'ng'iroqchalardir. Qo'ng'iroqchilar mayin tovush chiqarib turgan va tumor vazifasini bajargan. Hozirgi davrda duvme-qo'ng'iroqchalarning vazifalari o'zgargan. Ayollar ularni milliy liboslarning bezagi sifatida qo'llaydilar. Bolalar kiyimiga taqilgan qo'ng'iroqchalar tovushi bolaning qaerda o'ynayotganidan darak berib turadi. Belanchakka taqilgan duvme esa bolani ovutish vazifasini bajaradi.

Xizlavuq qurigan qovoqdan tayyorlangan. Qovoq yumaloq disk shaklida kesib olinadi (6-8 diametr) va o'rtasida ikkita teshik ochiladi. Teshiklardan 30-40 sm uzunlikda ip tortiladi. Xizlavuq quyidagicha ishlatiladi: ipning uchi o'ng va chap qo'llar bilan ushlanadi va silkitiladi. Natijada disk harakatga kelib, "xizzz, xizzz"ga o'xshash tovushlar chiqaradi. Tuzilishining soddaligiga ko'ra, ushbu moslamani qadimgi cholg'ulardan biri deyish mumkin.

Ushgulevuk yoki juljul - unchalik katta bo'lmagan damli cholg'udir. Ushbu cholg'u tog' echkisi yoki qush shaklida loydan yasaladi. SHaklning yon tomonlaridan ikkita teshik ochiladi. O'zbek xalqida xushtak, qirg'iz xalqida ishkirik, qozoq xalqida uskirik deb nom olgan ushgulevukka o'xshash moslamalar bor.

Gopuz qadimgi musiqiy cholg'ulardan biri hisoblanadi. Hozirgi davrda gopuz ayollar cholg'usi hisoblanadi. Gopuz taqasimon shakldagi temir bo'lagidan tayyorlanadi. Ushbu shaklning o'rtasiga temir tilcha o'rnatiladi.

Gopuz repertuari murakkab bo'lmagan badiha asarlardan iborat. Gopuzda ijro qilinuvchi asarlarda taqlid elementlari mavjud (turli qushlarning ovozi, ot dupuri, inson nutqi va hokazo).

Dilli tuyduk - tilchali damli cholg'u bo'lib, u ingichka quruq qamishdan tayyorlanadi. CHolg'uning uzunligi 12-14 sm ni tashkil qiladi. Cholg'uning yuz tomonida uchta teshik ochiladi.

Sumbara vodiysida yashovchi goklan qabilalarida dilli tuyduk bo'lamon deb yuritiladi. Boshqa dilli tuyduklar bilan solishtirilganda bo'lamon nisbatan kattaroq xajmda bo'ladi va chalish uchun beshta teshik ochiladi. O'zbek xalqida ham dilli tuydukka o'xshash cholg'ular mavjud bo'lib, ular sibiziq va qo'shnay deb nomlanadi.

Dilli tuyduk garchi cho'ponlar cholg'usi bo'lsa-da, mohir ijrochi qo'lida mazkur cholg'u ijro imkoniyatlari keng, o'ziga xos qirralarga ega bo'lgan cholg'uga aylanadi. Dilli tuydukning repertuari ancha boy. Ushbu cholg'uda quvnoq, hazilomuz asarlar ham, sodda shaklli folklor namunalari ham, baxshi qo'shiqlarining cholg'u variantlari ham ijro etiladi.

Gargi tuyduk ham qadimgi cholg'ulardan biridir. Bu cholg'u ham damli guruhga kiritiladi. Gargi tuyduk gargi qamishdan tayyorlanadi. Cholg'uning yuz tomonida oltita teshigi bo'ladi, qarama-qarshi tomonida bitta "shayton teshik" ochiladi. Gargi tuydukning diapazoni seksta intervaliga teng. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra dastlabki gargi tuyduklar uzunroq, tovushi ham pastroq bo'lgan. Gargi tuyduk ham yakkaxon tarzda, ham ansambl tarkibida qo'llaniladi.

Dutor O'rta Osiyo hududida keng tarqalgan cholg'ulardan biridir. Jumladan Turkmanistonda ham mazkur cholg'u sevib ijro etiladi.

Dutor cholg'usi haqida ma'lumotlar turli afsonalarda, o'rta asrlar olimlarining risolalarida, mumtoz she'riyat namunalari mavjud.

Birinchi navbatda dator turkman baxshilarining cholg'usi hisoblanadi. Baxshilar ijrosi davomida dator jo'rsoz vazifasini o'taydi. Dutor cholg'usi ham yakka tarzda, ham ansambl tarkibida qo'llaniladi. Dutor cholg'usi repertuariga dator uchun yaratilgan alohida asarlar bilan bir qatorda baxshi qo'shiqlarining cholg'u variantlari ham kiritiladi.

G'ijjak turkman xalq kasbiy musiqachilarining cholg'usidir. G'ijjak torli-kamonli cholg'ular guruhiga kiritiladi. Xalq musiqachilarining ma'lumotlariga ko'ra, g'ijjak cholg'usi turkmanlarda XIX asrdan qo'llanila boshlagan.

G'ijjak baxshilarga jo'rnavoz cholg'u sifatida ham, ansambl tarkibida ham qo'llanilgan. G'ijjak repertuariga maxsus shu cholg'u uchun ijod qilingan asarlar, baxshilar ijro etuvchi mashhur qo'shiqlarning cholg'u variantlari kiritilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, uzoq evolyutsiya bosib o'tgan cholg'ularning ayrimlari yo'qolib ketgan, ayrimlari esa hozirgi kunlarimizgacha qo'llanilib kelinmoqda. Bizning davrimizgacha yetib kelgan cholg'ulardan dutor, g'ijjak, gargi tuyduk kabilar turkman xalqining madaniy hayotida alohida o'ringa ega.

Tayanch so'zlar:

Turkman xalq musiqa ijodi, qadimiy milliy cholg'ular, zamonaviy cholg'ular.

Nazorat savollari:

1. Turkman xalqining kelib chiqish tarixi xususida nimalarni bilasiz?
2. Turkman xalqining o'ziga xos madaniyati haqida so'zlab bering.
3. Turkman musiqa san'ati xususida qanday ilmiy ishlar va adabiyotlar mavjud?
4. Turkman xalq musiqa cholg'ulari xususida gapiring.
5. Turkman musiqiy cholg'ularining o'ziga xosligi nimada?

11-MAVZU

TURKMAN XALQ QO'SHIQCHILIGI. MAROSIM VA NOMAROSIM JANRLARI

Reja:

1. Turkman xalq qo'shiqchilik ijodiyoti
2. Turkman xalq marosim qo'shiqlari
3. Turkman xalq nomarosim qo'shiqlari
4. Mehnat qo'shiqlari
5. Bolalar qo'shiqlari


Adabiyotlar:

1. Успенский В., Беляев В. Туркменская музыка. В 2-х томах. Алматы, 2003.
2. Виноградов В. Искусство туркменского народа. "СМ", 1955. №12.
3. История музыки народов Средней Азии и Казахстана. М., 1994.
4. Т.С. Вызго. Музыкальные инструменты Средней Азии М., 1980.
5. Беляев В. Очерки по истории музыки народов СНГ, т.1. М., 1962.
6. Н.Н.Миронов. Обзор музыкальных культур узбеков и других народов востока. Самарканд. 1931.
7. Гуллиев Ш. Туркменская музыка (наследие). Алматы. 2003.

Turkman xalqining folklori uzoq o'tmishga borib taqaladi. Bunda qo'shiqchilik alohida o'ringa ega. Qo'shiqchilik ma'naviy madaniyatning yetakchi omillaridan biridir.

Ma'lumki, folklorning janr tizimi tarixning turli davrlarida uning rivojlanish darajasi bilan belgilangan.

Turkman xalqining merosini mehnat, marosim, lirik va bolalar qo'shiqlariga ajratish mumkin.



Mehnat qo'shiqlari

Qo'shiqlarning aksariyat qismi amaliy ehtiyojlar natijasida yuzaga kelgan. Bunday holat ko'proq mehnat qo'shiqlariga tegishli bo'lib, ular qadimgi davrlardan mehnat jarayonlari bilan bog'liq holda ijro etilgan. Qo'shiqlar jamoaviy va yakkaxon tarzda ijro etilgan va odamlarni jismoniy tetik bo'lishiga yordam berardi.

Qadimgi davrlar mehnat qo'shiqlari haqida bizning davrimizgacha kam ma'lumotlar saqlangan, lekin ayrim qirralariga ko'ra (rechitativsimon tuzilishi, sodda shakl, diapazon va hokazo), ularning qadimiyligi aniqlanadi. Misol sifatida qisqa musiqiy "Gurray" chaqiriqlarini (qo'ylarni bir joyga to'plash maqsadida ijro etiladi), "Gech, aylan" (echkilarni chaqirish), "Xorop" (tuyalarga suv berish) kabilarni keltirish mumkin.

Chorvachilik bilan bog'liq "Xorele, duyem, xorele" afsun qo'shig'i ham mavjud. Sigir, tuyalarni sog'ish paytida jonivorlarni tinchlantirish maqsadida ayollar "Xovlum" aytimini ijro etishgan.

1920-yillarda V.A.Uspenskiy eng qadimgi aytimlardan biri bo'lgan. "Xokudik" aytimini yozib olishga muvaffaq bo'ldi. Uning fikriga ko'ra, "Xokudik" so'zi tegirmon tovushiga taqlid bilan bog'liq.

Marosim qo'shiqlari

Qadimgi davrlardan odamlar hayoti turli marosimlar bilan bog'liq bo'lgan. Ular o'zlarini turli tabiat xodisalaridan saqlash,

moddiy ahvollarini yaxshilash va boshqa maqsadlar bilan turli marosimlar o'tkazganlar. Ko'pgina qadimiy marosimlar yaqin davrlargacha o'tkazilib kelingan. Ayrim marosimlar o'zining asos mohiyatini yo'qotgandan so'ng xalq bayramlari, o'yinlarga aylanib ketgan.

XIX asrning so'ngi va XX asr boshlarida mehnat, oilaviy-maishiy, diniy va boshqa marosimlar, turli bayramlar, o'yinlar o'tkazilib turilgan.

Taqvim marosim qo'shiqlari boshqa xalqlardagi kabi biror bir marosim davomida ijro etilgan. Bunday marosimlardan biri Navro'zdir. Ko'pgina Sharq xalqlarida Navro'z bayrami kun va tunning teng bo'lgan kuni nishonlanadi (22 mart). Janubiy - Sharqiy Turkmanistonda Navro'zning ikki turi nishonlangan. Chorva Navro'zi va dehqonchilik bilan bog'liq Navro'z bayramlari. Chorva Navro'zi 22 fevral kuni nishonlangan.

Navro'z bayramlarida ko'pgina ko'ngilochar o'yinlar va qo'shiqlar bilan bir qatorda "Monjukatdi" o'yin-qo'shig'i alohida o'ringa ega (marjon tashlash). O'yinda ishtirok etuvchi qizlar va yosh ayollar suv to'ldirilgan idishga marjonlarini tushirishgan. Shundan so'ng yoshi kattaroq ayol idishni qo'lga olib, qo'shiq aytishni boshlagan. Bir kuplet ijro etilgandan so'ng "Marjonni tort!" so'zlari bilan ishtirokchilardan biri marjon tortgan. Marjon kimga tegishli bo'lsa, ijro etilgan kuplet shu qizga (ayolga) atalgan. Suvdan tortib olingan marjon egasi navbatdagi kupletni ijro qilib, o'yin shunday tarzda davom ettirilgan.

"Monjukatdi" o'yin-qo'shig'ining mohiyati shundan iboratki, yarim kechagacha davom etgan o'yinda qatnashchilar o'zlarining kelajaklarini bilish maqsadida fol ochganlar. "Monjukatdi" qo'shig'ining kupletlarida turkman ayollarining ichki kechinmalari, muhabbat, oilaviy baxt kabi mavzular kuylangan. O'yin jarayonida dugonalar bir-birlarining orzu-istaklaridan boxabar bo'lganlar. Ayrim hollarda hazil-mutoyiba xarakteridagi kupletlar ham ijro etilgan.

Qadimgi turkman xalqining maishiy hayoti tabiat shart - sharoitlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Jumladan, yog'gan yomg'ir hosildorlikka ta'sir ko'rsatgan. Yomg'ir yog'may, qurg'oqchilik bo'lsa, dehqonlar hosilsiz, chorvadorlar mollarini yaxshi boqa olmaganlar. Shunday paytda ular yomg'ir chaqirish

uchun afsun marosimlarini o'tkazganlar. Mazkur marosimda "Suytgazan" aytimi ijro etilgan.

Yomg'ir chaqirish marosimining ildizlari qadim zamonlarga borib taqaladi. Ta'kidlash joizki, bunday marosim boshqa xalqlarda ham uchraydi.

Yomg'ir chaqirish marosimining turli variantlari Turkmanistonning hududlarida tarqalgan bo'lib, "Suytgazan" aytimi G'arbiy Turkmanistonda ijro etilishi aniqlangan. Yomg'ir chaqirish marosimi qurg'oqchilik yillarida o'tkazilgan, "Suytgazan" aytimi esa marosim ishtirokchilari tomonidan ijro etilib, qishloq ahlidan ehson uchun turli mahsulotlar yig'ishgan. Yig'ilgan ehson yomg'ir ilohi Burgut boboga atalgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, Turkmanistonning ayrim hududlarida yomg'ir chaqirish marosimi "Chemche gelin" deb nomlanadi. "Chemche gelin" va "Suytgazan" aytimlarining so'z matnlari ma'nosiga ko'ra bir-biriga yaqin. Shuning uchun ularning kelib chiqish manbalarini bir deb taxmin qilish mumkin.

Shunga o'xshash marosimlar qo'shni xalqlarda ham mavjud bo'lgan. Masalan, o'zbeklarda yomg'ir chaqirish marosimi "Sust Xotin" deb yuritilgan. Marosimlarning "Sust Xotin" va "Suytgazan" deb nomlanishida ham umumiylikni ko'rish mumkin. Ehtimol, ushbu marosimlarning kelib chiqish ildizlari umumiy bo'lib, qadimiy marosimlardan hisoblanadi.

Turkman xalqining qadimdan davom etib kelayotgan marosimlari ularning oilaviy hayoti bilan bog'liq bo'lgan: farzand tug'ilishi, turmush qurish, o'lim va boshqalar. Oilaviy marosimlarda oilaviy marosim qo'shiqlari ijro etiladi. Farzand tug'ilishi bilan bog'liq aytilar bizning davrimizgacha yetib kelmagan. Ammo to'y va dafn marosimlari bilan bog'liq aytilar va qo'shiqlarning ayrimlari hozirgi davrgacha saqlanib kelinmoqda.

To'y marosimi bilan bog'liq asosiy qo'shiq "Yor-yor"dir. Turkmanistonning ayrim hududlarida mazkur aytilar "O'lan" yoki "Leeran" nomi bilan mashhur.

"Yor-yor" ("O'lan", "Leeran") odatda kelin ota uyidan chiqib ketishiga tayyorgarlik ko'rilayotgan paytda ijro etilgan. "Yor-yor" aytimi kelinning dugonalari, yaqin qarindoshlari tomonidan ijro etilgan. Kelinning nomidan esa dugonalardan biri qo'shiq aytgan. Kelin kuyovnikiga kelgandan so'ng esa "Yor-yor" aytimini

kuyovning do'stlari va qarindoshlari ham qo'shilishib aytishgan. Shuning uchun kupletlar ham quvnoq, ham lirik, ham satirik, ham komik xarakterda bo'ladi.

Bizning davrimizgacha shunday matnlar yetib kelganki, ularga tayanib turkmanlarda "to'y yig'isi" kabi aytimlar mavjud bo'lganligini ta'kidlash mumkin. To'y marosimining asosiy epizodi kelinni uzatishdir. Xursandchilik tuyg'ulari bilan birgalikda, g'amgin kechinmalar ham ota-ona qalbini o'rtaydi. Ana shunday his-tuyg'ular bilan bog'liq kechinmalar to'y marosimi bilan bog'liq she'riy matnlarda o'z aksini topgan.

"To'y yig'isi" kelinning nomidan dugonalari tomonidan, ayrim hollarda esa kelin tomonidan ijro etilgan. Aksariyat kupletlar "ejejan" ("onajon") refreni bilan yakunlanadi.

Turkman musiqiy folklorining keng tarqalgan janrlaridan biri "Agi" aytimlaridir. "Agi" (yig'i)ga o'xshash aytimlar boshqa xalqlarda ham uchraydi. Yig'i aytimlari dafn marosimi bilan bevosita bog'liq bo'lib, uning ildizlari odamlarning qadimiy animistik qarashlariga borib taqaladi.

"Agi" aytimlari dafn marosimi kuni qarindosh ayollar tomonidan ijro etilgan. Matnlar tahlilidan aniqlanishicha, "Agi" aytimlari katta yoshli odamlarga alohida she'riy matn bilan, yosh bolalarga alohida she'riy matn bilan aytiladi. "Agi" aytimlari uchun yetti-sakkiz bo'g'inli misralar xarakterlidir. Bizning davrimizgacha yetib kelgan namunalar rechitativ-deklamatsion xarakterga ega va xajman katta emas. Aytim ijrosi paytida pastga harakatlanuvchi glissando ohanglari tez-tez qo'llanilgan. Aytim ohanglariga haqiqiy yig'i ham qo'shilib ketardi.

Ayrim hujjatli materiallardan ma'lum bo'lishicha, turkman xalqida kasbiy yig'lovchi ayollar bo'lib, ular dafn marosimi va "Agi" ijrosi an'alarini yaxshi bilganlar.

Yozma va og'zaki manbalarda islom dini bilan bog'liq ko'plab marosilar haqida bayon qilinadi. Bunday marosimlarni o'tkazilishida diniy - marosim qo'shiqlarning ahamiyati katta bo'lgan.

Hozirgi Turkmaniston hududida islom dini keng rivoj topmagan. Mazkur din qadimiy shomonchilik an'alarini siqib chiqara olmagan.

VIII asrda islom dini ichida vujudga kelgan so'fiylik oqimi butun musulmon dunyosiga katta ta'sir ko'rsatgan. Masalan,

G'arbiy Turkmanistonda XIX-XX asrlarda o'tkaziluvchi zikr marosimlari dastlab vujudga kelgan so'fiy darveshlarning aytimlaridan kelib chiqqan.

Markaziy Osiyoda o'tkaziluvchi zikr marosilarining xarakterli qirralaridan biri shomonchilik bilan bog'liq. Zikr marosimining turkman variantida ana shu qirralar kuzatiladi.

1928 yili chop etilgan "Turkmanshunoslik" deb nomlangan jurnalda zikr marosimining turkmancha varianti haqida ma'lumot berilgan. Ushbu marosimda ruhan sog' bo'lmagan odamlar davolangan. Marosim, odatda, uch, yetti yoki to'qqiz kun davom etgan. Zaruriyatdan kelib chiqqan holda zikr marosimi bir oy, uch oy, bir yildan so'ng qayta o'tkazilgan. Ma'lumotlarga ko'ra zikr oilaviy marosimlar paytida ham o'tkazilgan (farzand tug'ilishi va to'y). Zikr marosimlarida faqat erkaklar ishtirok etish huquqiga ega bo'lganlar (12 yoshdan boshlab). Har bir ishtirokchiga vazifa berilgan. Masalan, fотиha beruvchi (eshon), hofiz yoki g'azalchi. Hofiz va g'azalchi yaxshi ovoz sohibi va g'azallar bilimdoni bo'lmog'i darkor edi.

Diniy marosim aytimlari guruhiga "Yo, Ramazon" aytimini ham kiritish mumkin. Ushbu aytim ro'za oyining birinchi kuni ijro etilgan.

"Yo, Ramazon" aytimi haqidagi ma'lumotlar XX asr rus etnografi I.A.Belyaev tomonidan yozib qoldirilgan. Muallif mazkur aytimni yo'qolib borayotganini ta'kidlagan holda, "Yo, Ramazon" haqida quyidagicha yozadi: "Bu kuni 12 yoshgacha bo'lgan turkman bolalari shu aytimni ijro etadilar: ular bir to'da bo'lib yig'iladilar, o'tovdan-o'tovga o'tib, rechitativ tarzda avloddan-avlodga o'tib kelayotgan tabrik qo'shiqlarni ijro etadilar. Uy egalari esa bolalarga no'xot, qand, shirinliklar hadya qiladilar.

Bizning davrimizgacha yetib kelgan namunalardan shuni aniqlash mumkinki, "Yo, Ramazon" rechitativ-deklamatsion xarakterga ega. She'riy matn asosan yetti va o'n bir bo'g'indan iborat. Sxema: aaab va aaba. Aytimlarning mazmuni - uy egalarini muqaddas "ro'za" oyi bilan qutlash va yaxshi tilaklar bildirishdan iboratdir.

Uy egalari o'z hadyalarini berishdan avval, bolalarga turli savollar berganlar. Savollarga javob olgan uy egalari sovg'alarini bolalarga ulashganlar.

Lirik qo'shiqlar

Turkman xalqining musiqiy folklorida lirik qo'shiqlar alohida o'ringa ega. Aksariyat xalqlardagi kabi qo'shiqlar musiqa folklorining boshqa janrlariga nisbatan kechroq shakllangan. Turkman xalqining lirik qo'shiqlari yilning turli vaqtida va turli shart-sharoitlarida ijro etilgan.

Lirik qo'shiqlar ijrochiligida qadimdan o'ziga xos an'ana saqlanib kelingan. Qo'shiqlarning ayrim turlari ayollar tomonidan, boshqalari esa erkaklar tomonidan ijro etilgan.

Ayollar ijro etgan lirik qo'shiqlar orasida "Lyale" o'tgan zamonlarda keng tarqalgan edi. "Lyale" nomini kelib chiqishi qo'shiq ijrosi bilan bog'liq. Har bir ijro etilgan kupletdan so'ng "Lyale" so'zi bilan kupletning ma'lum ohanglari takrorlanadi. Manbalardan ma'lum bo'lishicha, "Lyale" aytimi qadimdan bahor oylarida, adirlarda lolalar ochilganda ijro etilgan. Qo'shiqning nomlanishi ham gullar bilan bog'liq (lyale - lola). SHunga o'xshash bayramlar O'zbekiston va Tojikiston hududlarida ham mavjud bo'lgan. Gul sayllari bir oy davomida o'tkazilgan: odamlar tabiat bag'riga chiqib turli o'yinlar va bazmlar uyushtirganlar (raqs tushishgan, qo'shiq aytishgan).

O'z ijrosiga ko'ra "Lyale" aytimining bir nechta turlari mavjud bo'lgan. Ular orasida eng qadimgisi "Ximmil Lyale" bo'lib, uning qadimiyligiga tana harakatlari va she'riy matnning yo'qligi ishora qiladi. Bunday aytim ikki guruh ayollar tomonidan ijro etilib, ular bir-biriga qarama-qarshi tarzda ikki qator bo'lib turishgan. Birinchi guruhdagi ayollar rechitativ tarzda "ix ximmil" degan, ikkinchi guruh - "ix xayn" yoki "ix xarov" deb javob qaytargan. Bunday shakldagi dialog ko'p marta takrorlangan va temp ham shunga ko'ra tezlashgan. Aytim ijrosi paytida ayollar qo'llarini bellariga qo'yib, sakrama harakatlar bilan bir-birlariga yaqinlashganlar. Ana shunday elementlar qo'shiqning qadimiyligiga (arxaik) ishora qiladi. "Ximmil lyale" ma'lum jodu - afsun marosimining tarkibiy qismi bo'lish ehtimoli ham mavjud.

"Lyale" aytimining yana bir turi "Ayaq lyale" deb nomlangan (mazkur aytim ijrosi jarayonida ikki oyoq bilan sakrama harakatlar bajarilgan). "Egin lyale" ijrosida esa yelka bilan ma'lum ritmik harakatlar amalga oshirilgan. "Enek lyale" ijrosida esa dahan

harakatlari bajarilgan. "Lyale"ning yana "Dudoq lyale", "Tomoq lyale" turlari ham ma'lum.

Yuqorida keltirilgan "Lyale" turlaridan "Tomoq lyale" bizning davrimizgacha saqlanib qolgan. Hozirgi davrda "Lyale" aytimlari asosan muhabbat mavzusidagi she'rlar bilan ijro etilmoqda.

Yana shunday she'riy matnlar borki, ularda turkman xalqlarining ota-onasiga, aka-ukalarga, opa-singillarga bo'lgan iliq tuyg'ular xaqida bayon qilinadi.

Turkmanistonning har bir burchagida keng tarqalgan "Lyale" aytimidan tashqari lokal ahamiyatga ega bo'lgan lirik qo'shiqlar ham mavjud edi. Masalan, Enev, Manish, Chuqurqal'a, Mexin kabi qishloqlarda "Donem", "Yareyjon", "Lollujon" nomli lirik qo'shiqlari ijro etilgan.

Mazkur qo'shiqlar ko'p qirralari bilan bir-biriga o'xshash bo'lib, qizlar va yosh ayollar tomonidan turli oilaviy marosimlarda, qiz bazmlarida, kollektiv tarzda ish jarayonida (masalan, gilam to'qish) kuylangan. Qo'shiqlarda asosan muhabbat mavzusi ustun bo'lib, kupletlar ma'no jihatidan bir - biriga bog'lanmagan. She'rning har bir misrasi "donem", "yareyjan", "lollujan" so'zlari yordamida sun'iy tarzda kengaytirilgan.

Qadimda turkman xalqida musiqiy-poetik tuzilishiga ko'ra nisbatan rivojlangan lirik qo'shiqlar ham mavjud bo'lgan. Ular aytim yoki goshgi (she'r) deb yuritilgan. Har bir aytim o'zining konkret ohanglari bo'lib, she'riy matnda ma'lum voqe'liklar hikoya qilingan. Masalan, "So'ldum armanli" aytimi bizning davrimizgacha yetib kelgan. Unda boy va xunuk cholga uzatilgan yosh ayolning ichki kechinmalari xaqida kuylanadi. Aytimning har bir misrasi bir hil ohangda kuylanadi, lekin har safar ohang variantlanadi.

Turkman musiqa folklorida erkaklar ijro qiluvchi lirik qo'shiqlar ham bo'lib, ular soni jihatidan ayollar lirik qo'shiqlaridan kamroq. Masalan "Galadin duybunde" deb nomlangan qo'shiq qadim ildizlarga ega. She'riy matn uzoq yurtlarda xarbiy ishlar bilan yurgan yigitning o'z yoriga bo'lgan xis-tuyg'ulari haqida bayon qilinadi. Xarakteri jihatidan bunday qo'shiqlar marshlarga o'xshash. Erkaklar ijro qiladigan yana bir lirik qo'shiq "Bibijon" deb nomlanadi.

Qadimgi davrlardan yana muhabbat mavzusidagi "Nergiz", "Olti qiz" nomli qo'shiqlar saqlanib qolgan.

Bolalar qo'shiqlari

Turkman bolalar qo'shiqlariga birinchi navbatda bolalarning o'zlari ijod etgan namunalar kiritiladi. Ana shunday qo'shiqlardan biri "Ayterek-Gunterek"dir.

Mazkur qo'shiqni ijro qilish jarayonida o'yin ham o'ynaladi. Mazkur o'yinda bolalar ikki guruhga bo'linadi (10-15ta bola). Ular o'zaro bir-birlarini qo'llarini ushlaydilar. Ikki guruh o'rtasidagi masofa 40-50 qadam tashkil etadi. Ikki guruh o'rtasida rechitativ tarzda dialog o'qiladi:

- Ayterek !
- Gunterek1
- Bizden size kim gerek?
- Sayrap duran dil gerek?
- atli oylan (giz) gerek.

Dialog davomida kimning nomi aytilsa, u bor kuchi bilan qarama - qarshi tomonda turgan bolalar "zanjiri" tomon yuguradi va "zanjir"ni uzib o'tishga harakat qiladi. Agar ishtirokchi bola "zanjir"ni uzib o'ta olsa o'z tomoniga yana bir bolani olib o'tadi, "zanjir" uzilmasa o'zi ham shu "zanjir"da qoladi. O'yin shu tarzda to biror tomonda faqat bitta o'yinchi qolmaguniga qadar davom etadi. O'zbek bolalarini ham shunday o'yinlari bor. Mazkur o'yin "Oq terakmi, ko'k terak" deb nomlanadi (o'yin qoidalari yuqorida bayon etilganidek).

Bolalar qo'shiqlari qatoriga o'yin harakatlari bilan bog'liq "Sanoq aytimlari"ni ham kiritish mumkin. Bunday aytimlarning asosiy funktsiyasi - o'yin ishtirokchilarini guruhlarga bo'lishdir.

Folklor aytimlari orasida shunday aytimlar ham uchraydiki, ular qachonlardir katta yoshli odamlar tomonidan ijro etilib, so'ngra vaqt o'tishi bilan bolalar muhitiga o'tgan. Shunday aytimlardan ayrim namunalarning kelib chiqishi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Masalan, V.A.Uspenskiy XX asrning 20-yillarida "Yagish yagara geldi" ("Yomg'ir yog'di") aytimini yozib

olgan. Dastlab qaralganda aytimning hech qanday siri yo'qdek ko'rinadi, tuzilishi sodda (diapazoni ikki-uch tovushdan iborat), she'riy matn ham oddiy (bola yog'ayotgan yomg'irdan quvonadi). Shu bilan birgalikda bu aytim sirlidek tuyuladi. Mazkur aytimni iloxiy marosimlarga tegishli ekanligi seziladi. Ma'lum bo'lishicha, qadimgi zamonlarda odamlar turli marosimlarda biror bir orzuni amalga oshirish istagida bo'lib o'tishi kerak bo'lgan voqe'likni harakatlar orqali tasvirlaganlar. Ehtimol, "Yagish yagara geldi" aytimi ham taqlid marosimlari bilan bog'liq bo'lib, yomg'ir chaqirish marosimining bir bo'laki sifatida namoyish etilgan. Marosim katta yoshli odamlar tomonidan o'tkazilgan. Keyinchalik esa bolalar o'yin aytimi sifatida ijro qila boshlaganlar.

Avval kattalar ijro etib, vaqt o'tishi bilan bolalar folklori tarkibiga kirib kelgan qadimiy aytimlarning yana biri o'simliklar, hayvonlar, tabiat hodisalariga murojaat qilib, istaklari ijobat bo'lishini so'raydigan holat bilan bog'liq. Turkman bolalari ijro etadigan aytimlarning yana biri "Aq kebelek, go'k kebelek" deb nomlanadi. Bu aytim bolalar cho'milib chiqib, quloqlaridagi suvni ko'ylaklarining bir chetiga o'ralgan qum bilan shimdirib olayotgan paytda ijro etilgan.

Turkman bolalari qo'shiqlari qatoriga "Xuvdi" deb yuritiluvchi beshik aytimini ("Alla") ham kiritish mumkin.

Mazkur aytim kattalar tomonidan bolalar uchun maxsus ijod etilgan. "Xuvdi" aytimi ham qadim zamonlarda paydo bo'lgan. Aytimning dastlabki funktsiyasi bola sog'lig'ini va hayotini tabiat kuchlaridan asrash bilan bog'liq. Vaqt o'tishi bilan beshik aytimlari badiiy-estetik xususiyatlar kasb etib, bolaning uxlashi, unda go'zallikka intilish kabi hissiyotlarni uyg'otish maqsadida ijro etila boshlangan.

"Xuvdi" aytimlari ona, buvi, katta opalar tomonidan kuylangan. Aytim mazmunida bolaga bo'lgan mehr, unga sog'liq va baxt tilash kabi istaklar bayon qilingan. Bunday aytimlarning nomi qo'shiqning har bir kupleti yakunida ijro etiladigan "xuvva - xuv" yoki "alla - xuv" so'zlari asosida kelib chiqqan. "Xuvdi" aytimlarining ritmi tebranayotgan belanchak yoki beshik ritmiga monand bo'lgan. Aytimda improvizatsiya (badiha) elementlari kuzatiladi.

Tayanch so'zlar:

Turkman xalq qo'shiqchilik ijodiyoti, marosim janrlari, nomarosim janrlar.

Nazorat savollari:

1. Turkman xalq marosim janrlari xususida nima bilasiz?
2. Turkman xalq mehnat qo'shiqlari haqida gapiring.
3. Turkman xalq lirik qo'shiqlari xususida so'zlang.
4. Turkman xalq bolalar qo'shiqlari xususida gapiring.
5. "Xuvdi" nima? U qaysi xalq aytimiga o'xshaydi?

12-MAVZU
DOSTON JANRI, IJROCHILIK MAKTABLARI.
SOZANDALIK SAN'ATI

Reja:

1. Turkman xalqining baxshichilik san'ati
2. Dostonchilik maktablari xususida
3. Turkman xalq sozandalik san'ati

Adabiyotlar:

1. Успенский В., Беляев В. Туркменская музыка. В 2-х томах. Алматы, 2003.
2. Виноградов В. Искусство туркменского народа. "СМ", 1955. №12.
3. История музыки народов Средней Азии и Казахстана. М., 1994.
4. Т.С. Вызго. Музыкальные инструменты Средней Азии М., 1980.
5. Беляев В. Очерки по истории музыки народов СНГ, т.1. М., 1962.
6. Н.Н. Миронов. Обзор музыкальных культур узбеков и других народов востока. Самарканд. 1931.
7. Гуллиев Ш. Туркменская музыка (наследие). Алматы. 2003.

Turkman xalqi og'zaki an'anadagi kasbiy musiqasining ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Og'zaki an'anadagi kasbiy musiqa xalq musiqa ijodiyotining turlari va janrlari asosida shakllangan va milliy she'riyat bilan bevosita aloqadorlikda rivojlangan.

Og'zaki an'anadagi turkman kasbiy musiqasining asosiy namoyandalari baxshilar (dutor jo'rligida ijro etadilar) va sozandalardir (xalq cholg'ulari ijrochilari: dator, gijjak, gargi tuyduk, dilli tuyduk). Baxshi va sozandalarning san'ati avloddan-avlodga, ustozdan-shogirdga o'tib ko'p asrlik yo'lni bosib o'tdi.



Baxshichilik san'ati

Turkman baxshilarining salafлари og'uz ozanlari edilar. Ozanlar o'z ijrolarini gopuz cholg'usi jo'rligida amalga oshirganlar. ("Qo'rqit ota" eposidan).

"Ozan" so'zining kelib chiqishini tadqiqotchilar turlicha talqin etadilar. Masalan, A.N.Samoylovich va F.Kopryulyuzadelarning fikriga ko'ra, "ozmak" so'zidan ("oldinga o'tib ketish", "g'alaba qilmoq") kelib chiqqan. Ammo bu so'zning kelib chiqishi haqida boshqa fikrlar ham bor: "ozan" so'zi qadimgi turk "o'z" so'zi bilan bog'liq bo'lib, go'zal, yaxshi, mohir kabi ma'nolarni anglatadi.

Bosh ozan-ustod va eposdagi barcha ozanlar yo'l boshchisi sifatida Qo'rqit ota gavdalanadi. Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, eposning muallifi Qo'rqit ozanning o'zi bo'lib, hurmatli inson, og'uzlarning donishmand maslahatgo'yi hamdir.

Eposda Qo'rqit yagona ozan emas. Bu san'atdan boshqa qahramonlarning - Gazan, Birek, Xanturali, Egrek va Segrek (aka - ukalar), Dersexanlarning ham xabari bor. Ehtimol

qilinishicha, ularning hammasi Qo'rqit ustodning shogirdlaridir. Eposning mazmuniga ko'ra, musiqa ilohiy kuchga ega. Musiqa turli qahramonliklarga da'vat qiladi, yaqinlarga mehr, dushmanlarga esa nafrat kuchini orttiradi.

"Qo'rqit ota" eposi nafaqat og'uzlarning musiqiy hayoti haqida qimmatli ma'lumotlar beradi, balki eposining o'zi ham og'uzlarning musiqiy-badiiy ijodiyoti mahsulidir. Eposning kompozitsion tuzilishi haqida alohida to'xtalib o'tish zarur, bunda she'riy va nasriy qismlar o'zaro almashinib keladi. Bunday tuzilish og'uz-turkman epik an'alariga xos bo'lgan qirradir.

"Qo'rqit ota" eposi haqida fikr yuritilganda yana shunday holatga e'tibor berish darkor: og'uz ozanlari san'ati shomonchilik an'alar bilan bog'liqlik tomonlari ham bo'lgan.

Eposda shunday epizodlar mavjudki, bunda Qo'rqit ota nafaqat donishmand maslahatgo'y, balki ozanlar piri ham edi. Ehtimol, shuning uchun ozanlar san'ati ilohiy kuchga ega deb hisoblanib, epos ijrosi davomida qo'llaniluvchi cholg'u, ya'ni "Qo'rqit gopuzi" ham ilohiylashtirilgan. Eposning shunga o'xshash tomonlari tadqiqotchilarning Qo'rqit obrazida shomon qirralarini ko'rishlariga sabab bo'lishi mumkin.

"Baxshi" so'zi ("bagshi", "baxshi", "baxsi") ko'p xalqlarning tilida uchraydi. Manbalardan ma'lum bo'lishicha, turli tarixiy davrlarda bu so'zning ma'nosi turli xalqlarda turlicha bo'lgan. Masalan, XIII-asrda yashagan venetsiyalik sayohatchi Marko Poloning yozishicha, mo'g'ul xonining saroyida sehrigar tabiblar xizmat qilishar va ular baxshilar deb nomlanganlar.

Turkshunos olimlar V.V.Bartold va A.N.Samoylovichlarning fikriga ko'ra, "baxshi" so'zining "ustoz" ma'noda qo'llanilishi mo'g'ullar davridan boshlangan va sanskritcha "bxikshu" so'zidan kelib chiqqan (buddaviylik dindorlari). Vaqt o'tishi bilan baxshi so'zi o'zgacha ma'nolarda qo'llanila boshladi. Masalan, Mo'g'ullar davrida saroy tabiblari, Temuriylar davrida kanselyariya yozuvchilari va yirik arboblari, Boburiylar davlatida esa ayrim harbiy shaxslarni shu nom bilan ataganlar. Xalq orasida "baxshi" atamasi shomon-sehrgarlarga nisbatan qo'llanilardi. Islom dini kirib kelgandan so'ng shomonchilik siqib chiqarildi va shu davrdan boshlab "baxshi" so'zi xalq qo'shiqchisi, musiqachi, bayonchilarga nisbatan qo'llanila boshlandi.

Turkman baxshilari o'z falsafalari, an'alarini davom ettirgan holda, eposning keyingi rivojiga katta hissa qo'shdilar. "Go'ro'g'li" eposi, "Sayatli-Xemra", "Xyurluga-Xemra", "Shasenem-Garip", "Nejer o'glan", "Asli-Kerem" kabi dostonlar bizning davrimizgacha turkman baxshilarining ijodiy faoliyati tufayli yetib keldi.

V.A.Uspenskiy turkmanlarning bir qator dostonlaridan parchalar yozib olgan edi: "Go'ro'g'li", "Layli va Majnun", "Shasenem va G'arip", "Sayatli Xemra", "Xyurluga va Xemra", "Yusuf va Zulayxo", "Zuhra va Tohir", "Asli va Kerem" va boshqalar.

Doston eposi baxshilarning yana bir nomi "oshiq"lar haqida ma'lumot beradi. Masalan, Oshiq Oydin ("Go'ro'g'li", "Nejep o'glan"), Oshiq Axmet, Oshiq Xemra ("Sayatli-Xemra"), Oshiq Garip ("Shasenem-Garip"), Oshiq Kerem ("Asli-Kerem") kabilar musiqiy-poetik iste'dod sohiblari bo'lib, dostonlar syujetining shakllanishida ularning xizmatlari katta. Ma'lum bo'lishicha, "Oshiq" ("ashig", "ashiq") so'zi xalq shoiri, qo'shiqchi va bayonchi kabi ma'nolarda Ozarbayjon va Antaliyada (Turkiya) qo'llanilgan. Tadqiqotchilar Ozarbayjon oshiqlari, Turkiya baxshilari, O'rta Osiyo aqinlari ijodiyotda ko'p umumiy qirralarni aniqlaganlar.

Turkman dostonlarini ijrochilari masalasiga qaytsak va shuni ta'kidlash mumkinki, O'rta Osiyo turkmanlari qadimiy "ozan" so'zining o'rniga "baxshi" so'zini ishlata boshladilar.

XVIII-XIX asrlarda turkman mumtoz adabiyoti rivojlanishi sirasida xalqning madaniy hayotida baxshilarning roli yanada kuchaydi. Baxshilar o'zlarining musiqiy-badiiy ijodiyoti bilan bir qatorda Mahtumquli va XVIII-XIX asrlar mumtoz adabiyot namoyandalarining ijodini targ'ib qila boshladilar.

Turkman musiqasining qadimiy davrdagi rivojini kuzatishda ikkilamchi ahamiyatli adabiyotlarga tayanilgan bo'lsa, XIX asrning 20-yillaridan turkman musiqasi haqida yozma ma'lumotlar paydo bo'la boshladi. Bunday ma'lumotlar rus va yevropa olimlari va sayohatchilari tomonidan yozib qoldirilgan. Ammo bunday manbalarda ma'lum bir baxshining ijodiy faoliyati haqida aniq ma'lumotlar keltirilmaydi. Mualliflar turkman xalqi hayotida baxshilarning o'rnini, repertuari, ijro uslublari, jo'rsoz cholg'ulari haqida umumiy ma'lumotlar beradilar.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga tayangan holda baxshichilik san'atini XIX-XX asr boshlaridagi rivojini Turkmanistonning asosiy hududlari bo'yicha kuzatish mumkin.

XVIII asr so'ngida SHimoliy Turkmaniston hududida asosan yomutlar va chovdurlar yashaganlar. XIX asr davomida mazkur hududga turkmanlarning yangi guruhi (emremen, garadashmen, amelin, goklen) ko'chib kelganidan so'ng (son jihatidan ko'plikni tashkil qilganlar) ularning ta'siri mahalliy madaniyat rivojida ham ahamiyatli bo'ldi.

Yomut va chovdur baxshilari epos va doston ijrochiligida o'g'uz ozanlarining an'analari saqlab qolganlar.

Yomut uslubining rivoji va targ'ib etilishida baxshilarning oilaviy maktabi yetakchi ahamiyatga ega bo'ldi. Ana shunday maktablardan biri xo'jalar avlodiga tegishli bo'lib, mazkur maktabning asoschisi Tag'tilik Xo'ja baxshidir. Keksa avlod vakillarining hikoya qilishlaricha Xo'ja baxshi Maxtumquli davrida yashab, ijod qilgan va "Go'ro'g'li" eposining mashhur ijrochisi sifatida elga tanilgan ekan. Xo'ja baxshining an'alarini XIX-XX asr boshlarida uning o'g'li Goch baxshi, nabirasi Otanazar baxshi, chevarasi Ota baxshilar davom ettirganlar. Ularning har biri "Go'ro'g'li" eposining 40 dan ortiq dostonlarini yod bilganlar.

Xo'ja baxshi maktabining ijrochilik an'alarini uch bosqichga ajratish mumkin. **Birinchi bosqich:** dastlab o'g'il dutor chalishni, eposning alohida bo'laklarini ijro etishni o'rgangan. **Ikkinchi bosqich:** o'g'il ma'lum sonli qo'shiqlarni o'rgangandan so'ng, o'g'il unga doston ijrochiligi sirlarini o'rgatgan. Bo'lajak baxshi otasi bilan turli davrlarda hamroh bo'lib, otasi ruxsat berganda bir nechta termalarni ijro etgan. Ikkinchi bosqichning davomiyligi shogirdning zehniga bog'liq bo'lgan. Mustaqil baxshi - dostonchi sifatida faoliyat boshlash uchun shogird 13-15 dostonni yod bilib, ijro eta olishi darkor bo'lgan. **Uchinchi bosqich:** shogird mustaqil faoliyat yuritish uchun ustozidan fотиha olgandan so'ng o'z repertuarini boyitib borgan.

Xo'ja baxshi maktabi vakillarining repertuarida "Go'ro'g'li" eposi dostonlari bilan bir qatorda xalq lirik dostonlaridan "Shasenem-Garip", "Xyurluga-Xemra", "Sayatli-Xemra", "Nejep Oglan", "Yusup-Zuleyha", "Baba Rovmen", "Gyul-Bilbil", "Yusup-Axmat", "Davletyar" va boshqalar ijro etilgan. Xo'ja

baxshi maktabi vakillari, boshqa baxshilar kabi o'z repertuarlariga termalar ham kiritganlar. Termalar bazmlarda, to'ylarda yoki katta doston ijro etishdan avval aytilgan.

Yomut uslubi rivojiga boshqa baxshilar ham o'z hissalarini qo'shganlar. Shulardan biri Abdulla shix bo'lib, u nafaqat baxshi, balki bastakor sifatida ham taniqli bo'lgan. Unga zamondosh bo'lgan ijodkorlardan biri Gara baxshi edi. XIX - XX asr boshlarida Isa baxshi, Gilichmat baxshi, So'pi baxshi, Amanniyaz baxshi, Begench baxshi, Kelje baxshi, Tatar baxshilarning nomlari mashhur bo'lgan.

Turkman baxshichiligidagi yana bir uslub mavjud bo'lib, u chovdur uslubi deb yuritiladi. Mazkur uslub Shimoliy Turkmanistonda keng tarqalgan. Chovdur uslubining asoschisi Petek baxshi hisoblanadi. Tadqiqotchilarning yozishicha, Petek baxshi XIX asrning uchinchi choragida yashagan.

XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshlarida chovdur an'analarining davomchilari sifatida Allanur baxshi, Ismoil baxshilarning nomlarini qayd etish lozim. Chovdur uslubining rivojiga Soyog' baxshi ham o'z hissasini qo'shgan. Sayog' baxshi 1850 yili tug'ilgan. Uning repertuaridan "Go'ro'g'li" eposining 40 ta dostoni o'rin olgan.

Janubiy-G'arbiy va G'arbiy Turkmanistonning aholisini XIX-XX asr boshlarida goklenlar va yomutlar tashkil etgan. Shu sababli mazkur hudud baxshilarining uslubi yomut-goklan uslubi deb yuritiladi.

Yomut-goklen uslubining dastlabki vakillaridan biri Kyasin kekech baxshi edi (XVIII-XIX asr boshlari). "Kyasin kekech" deb nom olgan qo'shiq hozirgi kunlargacha saqlanib qolgan.

Mazkur uslubning eng yetuk namoyandasi G'aradali goklan bo'lib, uning haqiqiy ismi Orazmamatdir. Hayotining ma'lum qismini Orazmamat baxshi xivalik turkmanlar orasida o'tkazgan. Bu davrda u mahalliy uslublarni ham o'rgangan va shu yerda ijod qilayotgan baxshilarga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Umrining so'ngi yillarida u o'z yurtiga qaytib, va 80 yoshida vafot etgan edi.

G'aradali goklan nafaqat ijrochi, balki ko'plab qo'shiqlar muallifi hamdir. Masalan, "Gendarma", "Gapigazen", "Ayriliq", "Muxannes", "Yandim" shular jumlasidandir.

G'aradali goklan XIX asr og'zaki an'anadagi turkman kasbiy musiqasining rivojiga salmoqli hissa qo'shdi.

G'aradali goklanning shogirdi Annameng'li baxshi ustoz san'atining davomchisi sifatida Janubiy G'arbiy va G'arbiy Turkmanistonda nom chiqardi.

Ta'kidlab o'tish joizki, yomut-goklan yoki yomut (Shimoliy Turkmaniston) uslublari o'zaro ta'sir ko'rsatgan. Bizning davrimizgacha damana deb nomlanuvchi qabilaning baxshichilik uslubi saqlanib qolgan.

Damana uslubining kelib chiqishi Enevlilik (1829) Durdi baxshi nomi bilan bog'lanadi. Durdi baxshi repertuariga Mahtumquli, Kamina, Zohidiy kabi shoirlar she'riga bastalangan qo'shiqlar, "Shasenem-Garip", "Zuhra-Toxir" dostonlari, o'zining she'rlariga bastalangan qo'shiqlar kirgan. "Zulpun" deb nomlangan asarlar (Durdi baxshining asari) damana baxshilari tomonidan hozirgi davrda ham ijro etilmoqda. "Durdi baxshi" deb nomlanuvchi asar esa dutorchilar repertuariga kiritilgan bo'lib, tahminlarga ko'ra, bu asar Durdi baxshi ijod etgan qo'shiqlarning cholg'u variantidir.

XIX-XX asr boshlarida Durdi baxshining ijro uslubini uning shogirdlari davom ettirdilar. Bular, Botir baxshi, G'ulov baxshi, Durdi baxshining o'g'illari Xojimurod va Xolmurodlardir.

Sozandalik san'ati

Turkman an'anaviy cholg'u musiqasi sozandalar (kasbiy darajadagi cholg'uchilar) tomonidan dutor, g'ijjak, gargi tuyduk yoki dilli tuydukda ijro qilinadi. Cholg'ularning barchasi ham yakka holda, ham ansambl tarkibida qo'llaniladi.

Turkmanlarda ansambl tarkibi aniq belgilangan bo'lganligi sababli, ularning an'anaviy ijrochiligida cholg'u ansamblarining uch turi mavjud: dutorchilar ansambli, gargi tuydukchilar ansambli, torli cholg'ular ansambli (dutor, g'ijjak). Bunday ansamblarning repertuari yakka tarzda ijro etuvchi cholg'ular bilan deyarli bir xil.

Turkman cholg'u musiqasi yo'nalishida dutor musiqasi birinchi o'rinda turadi. Dutor musiqasining rivojiga XIX-XX asr boshi baxshilar san'ati katta ta'sir ko'rsatgan. Ma'lum bo'lishicha, qadimda baxshilar dutorni o'z ijrolariga jo'rsoz sifatida hamda

turli marosimlarda ham (davolash, afsun o'qish kabi) foydalanilganlar.

Dutor baxshilarning jo'rsoz cholg'usi bo'lishiga qaramay, hozirgi kunlarda Janubiy Turkmanistonda sozandalar cholg'usi sifatida ham qo'llanilmoqda. Mazkur yo'nalishda axal dutorchilarining xizmatlari katta. Axal dutorchilari maktabi XIX asrda shakllangan. Ushbu maktabning yorqin namoyandalaridan biri Seyitmamat ussa (usta)dir. Ma'lumotlarga ko'ra, Seyitmamat ussa hozirda ham mashhurligi kamaymagan "Gyokdej mukami" asarini ijod qilgan ekan.

XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asrning boshlarida Kel baxshi ismli dutorchi mashhur edi. Kel baxshining haqiqiy ismi Allaberdi Aydog'di o'g'li bo'lib, u Izgant qishlog'idan edi. Kel baxshi hayoti haqida ayrim ma'lumotlar bizning davrimizgacha hikoya va afsonalarda yetib kelgan. Kel baxshi Amangeldi Gyonibekning shogirdi bo'lib, 28 yoshida ustozidan fotiha olgan. Tinimsiz mehnati tufayli u qisqa muddat mobaynida ustozining dasturini o'rgangan. Hikoya qilishlaricha u hech qachon ustozning ijrosiga to'g'ridan-to'g'ri taqlid qilmagan, aksincha asarga yangicha bezaklar, ritmik o'zgarishlar, ba'zan esa katta kuy bo'laklarini kiritib ijro qilgan. Ta'kidlash joizki, u ijro qilgan asarlar bir nechta variantda bo'lgan.

Dutor ijrochiligining mumtoz an'analari Gulgeldi usta, Amangeldi Gyonibek, Kel baxshilardan boshlanib, XX asrda mazkur an'alar ularning shogirdlari tomonidan davom ettirildi.

An'alar davomchilaridan biri SHukur baxshi bo'lib, u dutor ijrochiligini Axal hududidan tashqarida targ'ib etilishiga katta hissa qo'shdi. Ma'lumotlarga ko'ra, Shukur Davlatmurod o'g'li 1831 yili tug'ilgan. Uning birinchi va asosiy ustози Marvlik Ali baxshi bo'lgan ekan. Bir necha yil davomida Shukur baxshi o'z ustozining repertuarini o'rgandi va undan fotiha olib, mustaqil ijodkor sifatida faoliyat yurita boshladi. Bundan tashqari Shukur baxshi Gulgeldi usta, Amangeldi Gyonibek, Kel baxshilar bilan ijodiy muloqotda bo'ldi.

Shukur baxshining ijrochilik mahorati haqida ko'pgina afsonalar mavjud. Masalan, xalq orasida mashhur bo'lgan afsonalarning birida Shukur baxshi xon musiqachisi bilan o'tkazilgan tanlovda g'olib chiqib, o'z akasini tutqunlikdan ozod etganligi haqida bayon qilinadi.

Shukur baxshining harakatlari natijasida XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Marv hududida yosh dutorchilar maktabi shakllandi va hozirda bu maktab mariy dutor maktabi deb yuritiladi.

Turkmanlarning musiqa amaliyotiga g'ijjak cholg'usi avval baxshilar ijrosiga jo'rsoz sifatida, keyinchalik esa yakkanavoz cholg'u sifatida qo'llanila boshlandi (XIX asrda). Hozirda g'ijjak ijrochiligining ikki yo'nalishi mavjud - yomut va chovdur maktablari.

Yomut g'ijjak ijrochiligi maktabini asoschisi Xemra g'ijjakchidir. U G'aradali goklaning zamondoshi va jo'rnovozi bo'lgan. V.A.Uspenskiy yiqqan materiallarda shu ustozning repertuari haqida ma'lumotlar bor.

Chovdur g'ijjak maktabining asoschisi deb Xanjana g'ijjakchi tan olingan. U Xolniov baxshining shogirdi bo'lgan.

Gargi-tuydukchilar san'ati dastlab Janubiy-Sharqiy Turkmanistonda keng tarqalgan edi. Gargi tuydukchilar haqida gapirilganda birinchi navbatda Davlatdurdi tuydukchi tilga olinadi (1810-1870). Afsonalarga ko'ra Davlatdurdi tuydukchi nafaqat Turkmaniston, balki Eronda ham mashhur bo'lgan ekan.

XIX asrning ikkinchi yarmida esa Ersori Ussabotir o'g'lining nomi gargi tuydukchi sifatida mashhur bo'ldi.

Dutor, g'ijjak va gargi tuyduk ham yakkanavoz, ham jo'rnavoz, ham ansambl ijrochiligida qo'llaniluvchi sozlar hisoblansa, dilli tuyduk an'anaviy san'atda faqat yakka tarzda ijro qilinuvchi cholg'u sifatida qo'llaniladi. Kelib chiqishiga ko'ra, dilli tuyduk ham, xuddi garchi tuyduk singari cho'ponlar cholg'usidir. Kasbiy darajadagi musiqachilar tomonidan yaqin davrlardan qo'llanila boshlangan. Masalan, V.A.Uspenskiy XX asrning 20-yillarida Turkmanistonda o'tkazgan musiqiy-folklor ekspeditsiyasida bitta dilli tuydukchi Marvlik Xo'janazar Berdiev bilan uchrashgan. Bu paytda X.Berdiev 20 yoshda edi. U dilli tuydukda "Ah eshekli", "Zoxrejan", "Durnalar" kabi asarlarni ijro etgan. Mazkur asarlar baxshi qo'shiqlarining cholg'u variantlaridir. Sumbara vodiysida yashovchi goklanlarda dilli tuyduk bo'lamon nomi bilan yuritiladi.

Ko'rib chiqilgan adabiyotlardan ma'lum bo'lishicha turkman xalqining musiqa san'ati ko'p asrlik tarixga ega. Turkman xalqi musiqiy merosining eng qadimgi qatlamini folklor janrlari tashkil qiladi. Baxshilar va sozandalar san'ati esa kasbiy darajadagi musiqa

qatlamini tashkil qiladi. Turkman baxshilari o'g'uz ozanlarining an'alarini davom ettirgan holda, epik janrning rivojiga katta hissa qo'shganlar, XVIII asrdan boshlab esa turkman mumtoz she'riyatini targ'ib qiluvchilar sifatida faoliyat yuritganlar. Baxshilar san'ati og'zaki an'adagi kasbiy musiqaning yana bir yo'nalishi, ya'ni cholg'u musiqasining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Tayanch so'zlar:

Turkman xalq dostonchilik ijodiyoti, baxshichilik san'ti, sozandalik san'ti, dostonchilik maktablari.

Nazorat savollari:

1. Turkman xalq dostonlarining o'ziga xos qirralari nimada?
2. Turkman xalq dostonlari qaysi qardosh xalq dostonlariga o'xshaydi?
3. Turkman xalq dostonchilik maktablari haqida gapiring?
4. Turkman xalq dostonlarining ijrochilik uslublari xususida nima deya olasiz?
5. Turkman xalqining atoqli baxshilarini bilasizmi?

13-MAVZU

UYG‘UR XALQ MUSIQA AN‘ANALARI. MILLIY RAQSLARI, CHOLG‘ULARI



Reja:

1. Uyg‘ur xalqining kelib chiqishi tarixi
2. Uyg‘ur xalqining o‘ziga xos madaniyati
3. Uyg‘ur xalq musiqiy cholg‘ulari
4. Uyg‘ur xalq raqslari

Adabiyotlar:

1. Кадырбаев А. Ш. Очерки истории средневековых уйгуров, джалаиоров, найманов и киреитов. - Алматы: "Рауан", "Демеу". 1993-168 с.
2. Кызласов Л. Р. Северное манихейство и его роль в культурном развитии народов Сибири и Центральной Азии // Открытие государственной религии древних хакасов. - Москва-Абакан, 1999.

3. Литвинский Б. А. Исторические судьбы Восточного Туркестана и Средней Азии (проблемы этнокультурной общности) // *Восточный Туркестан и Средняя Азия. История. Культура. Связи.* - М., 1984.

4. Литвинский Б. А., Пичикян И.Р. Пещерная культовая архитектура Восточного Туркестана // *Восточный Туркестан и Средняя Азия в системе культур древнего и средневекового Востока.* - М., 1986.

5. Молов С. Е. Уйгурские рукописные документы экспедиции С. Ф. Ольденбурга // *Записки Института востоковедения Академии наук СССР.* - Л., 1932. - Вып. 1.

6. Малое С. Е. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования. - М.-Л., 1951.

7. Малявкт А. Г. Китай и уйгуры в 840-848 гг. // *Сибирь, Центральная и Восточная Азия в средние века.* - Новосибирск, 1972.

8. Малявкин А. Г. Уйгурские государства в IX-XII вв. - Новосибирск, 1983.

9. Тугушева Л.Ю. Уйгурская версия биографии Сюань-цзана. - М., 1991.

10. Центральная Азия: Новые памятники письменности и искусства. - М., 1987.

11. Центральная Азия и соседние территории в средние века. - Новосибирск, 1990.

Uyg'ur xalqining tarixi, madaniyatini o'rganuvchi G'arb olimlari uyg'urlarning madaniy saviyasini juda yuqori baholaydilar. Volfram Eberxordning yozishicha: "O'rta asrlarda uyg'urlar xitoy she'riyatiga, adabiyotiga, musiqasi va tasviriy san'atiga katta ta'sir ko'rsatganlar.

Er. VII-XIII asrlarida Sharqiy Turkiston bo'ylab sayohat qilgan Xitoy elchilari Syuan Chan, Van Yan De va Chan Chunlarning hisobotlarida uyg'urlar istiqomat qilayotgan hududlarda madaniyat juda qudratli darajada ekanligini qayd etganlar.

Uyg'urlar - qadimgi etnos bo'lib, Xitoyning SHimoliy hududlarida qadimdan yashab kelganlar. Ularning asosiy yashash joyi Sintszyan bo'lib, Xunani, Pekin, Guanchjouda ham yashaganlar. Xitoy hududidan tashqarida uyg'urlar kamchilikni

tashkil etadi. "Uyg'urlar" so'zi "birlashuv" degan ma'noni anglatadi. Qadimgi Xitoy tarixiy yilnomalarida "uyg'ur" nomining turli variantlari uchraydi: "xueyxu", "xueyx", "uyg'urlar". "Uyg'urlar" nomi Sintszyan viloyatining hukumati tomonidan 1935 yili qabul qilingan.

Uyg'urlar turkiy tillar majmuiga kiruvchi uyg'ur tilida so'zlashadilar. Mazkur xalqning asosiy yashash joylari Janubiy Sintszyanning hududlaridir: Kashi, Xo'tan, Oqsu, Urumchi shahri, SHimoliy Sintszyanning Ili viloyati.

Uyg'ur millatining kelib chiqishi masalasi ancha murakkabdir. Millat shakllanishida sak qabilalari (SHarqiy Eron tilli guruh), yuyajilar, tsyanlar (Qadimgi Tibet qabilalari) va xanslar (Turfon viloyati)ning ahamiyati katta. 8 asrning 4-yillarida uyg'ur qabilalari hozirgi Sintszyan hududiga ko'chib o'tganlar (chorvachilik bilan shug'ullanuvchi ko'chmanchi qabilalar). Sekin - asta uyg'urlar Janubiy Sintszyan hududida joylashdilar. Uyg'ur millatining shakllanishidagi 1-bosqich shu davrga to'g'ri keladi. Bayziqlik deb nomlanuvchi g'or ehromlarida devoriy tasvirlar saqlangan bo'lib, unda uyg'urlar aks ettirilgan. O'sha davrlarda yashovchi uyg'urlar mangoloid irqiga xos bo'lgan tuzilishga ega bo'lganlar. Hozirgi kunlarda esa uyg'urlar sariq - oq irqiga mansub bo'lgan tuzilishga egalar.

Uyg'urlarning avlod - ajdodlari shomonchilik, zardushtiylik, buddaviylik dinlariga sig'inishgan. 10-asrning o'rtalarida Qoraxoniylar davrida Islom dini keng tarqalib, 16-asrning o'rtalarida Sintszyanda dinlar almashinuvi sodir bo'ldi.

Yorkend xonligi davrida uyg'urlar asosan Janubiy Sintszyan hududida yashaganlar. Jung'or xonligi davrida esa uyg'urlar Ili daryosining vodiylariga ko'chib kelib, yerlarga ishlov bera boshladilar. Ammo ko'chib kelganlarning soni ancha kam edi. Umuman olganda TSin sulolasining davri boshlangunga qadar uyg'urlar Janubiy Sinszyanda yashadilar. Hozirgi Urumchi shahrida yashovchi uyg'urlar 1864 yili Turfondan migratsiya qilgan uyg'urlarning avlodlaridir.


Uyg'ur xalqi o'troq tarzda yashashgan va asosan dehqonchilik bilan shug'ullanishgan.

Zamonaviy uyg'urlar o'zlarining avlod-ajdodlaridan ancha farqlanadilar. Uyg'ur xalqi vakillari buddaviylik (manixeystvo)

diniga mansub edilar. Hozirda esa Islom dini ustun turadi. Islom dini tarqalishining dastlabki davrida uyg'urlar so'fiylik yo'nalishiga tegishli bo'lganlar, keyinchalik esa Sunna mazhabiga o'tganlar. Nikoh faqatgina bir din vakillariga ruxsat berilgan, o'zga din vakillari bilan turmush qurish ta'qiqlangan. An'anaga ko'ra, otanonaning roziligisiz turmush qurilmagan. Avvallari to'y marosimlari uch kun davom etgan, hozirda esa bir kun davomida o'tkaziladi.

Uyg'ur xalqining badiiy o'ymakorlik san'atida musiqa cholg'ularini tayyorlashga alohida o'rin ajratiladi. Uyg'ur xalq musiqa cholg'ulari turli - tumanligi, tovush va bezaklarning o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uyg'ur xalq cholg'ulari ham, aksariyat xalqlardagi kabi uch asosiy guruhga bo'linadi: torli, damli va urma cholg'ular. Torli cholg'ular guruhiga dutor, tambir, ravap, satar, g'ijjaklar kiritilgan. Dap, tevilvaz, nagra kabi cholg'ular - urma cholg'ular guruhiga mansub. Nay, surnay, karnay, yanchin yoki chang (tsimbalani eslatuvchi)lar esa damli cholg'ular guruhiga kiritiladi. Qashg'ar (janub) va G'ulja (shimol) hududlari cholg'ulari bir - biridan ayrim qirralari bilan farqlanadi. Xalq orasida ular qashqar yoki ili cholg'ulari deb yuritiladi.

Uyg'ur xalq musiqiy cholg'ulari



Musiq a cholg'ularini tayyorlash jarayoni murakkabligi bilan e'tiborni tortadi. Har bir cholg'u yasovchi usta o'zining sirlarini faqatgina yaqin odamlariga aytardi edi. Uyg'ur musiqa cholg'ulari juda chiroyli bezatilar edi.

Uyg'ur xalqining hayotida musiqa va raqslar ahamiyatli o'rin egallaydi.

Jivapu - rubob cholg'usining xitoycha nomlanishidir. Rubob cholg'usi uyg'ur, tojik va o'zbek xalqlarida keng qo'llaniladi. Mazkur cholg'u 14 - asrda paydo bo'lgan va 600 yillik tarixga ega. Rubob yog'ochdan tayyorlanadi. Rubobning shakli o'ziga xos. Jivapular turli xil bo'ladi. Ularning simlari uchtdan to'qqiztagacha bo'lishi mumkin. Uyg'ur ruboblari qashqar va do'lon ruboblariga ajratiladi. Qashqar ruboblari yumshoq va baland bo'lmagan tovush chiqaradi.

Duttar - chertma cholg'u bo'lib, uyg'ur xalqida keng tarqalgan. Duttar tut daraxti yog'ochidan yasaladi. Simlari ikkita (ipak yoki mol ichagidan), yuqori sim kichik oktava "si", birinchi oktava "do" va "re" tovushlariga; pastki sim kvarta yoki kvinta pastga sozlanadi. (16-bet).

Tambur - plektorli xordofon. Uning korpusi ikki qismdan iborat: noksimon qorin qismi va uzun grif qismi. Tambur tut daraxtidan tayyorlanadi. CHolg'uning beshta metall dan tayyorlangan simi bo'ladi. Tambur muqomlarning "Muqom beshi" bo'limini ijro etishda solo tarzida, jo'rsoz sifatida va ansambl tarkibida qo'llaniladi.

Ravap - plektorli xordofon. Mazkur cholg'u qadimgi cholg'ulardan biridir. Uning korpusi uch qismdan iborat: qorin qismi, grif va shoxsimon shakldagi yuqori qismi. Yuqori qismiga quloqlar o'rnatiladi. Bu cholg'u ham tut daraxtidan yasaladi. Ravapning beshta simi bo'ladi (1 tasi ichakdan, 4 tasi metall dan). Ravap Solo, jo'rsoz va ansambl tarkibida ham qo'llaniladi.

G'ijjak - kamonli xordofon. Uyg'ur xalqida keng tarqalgan. Uning korpusi qorin va ingichka grifdan tarkib topadi. G'ijjak tut daraxtidan tayyorlanadi. G'ijjakning qorin qismiga baliq yoki ilon terisi qoplanadi. Dastlab ot yolidan tayyorlangan ikki simi bo'lgan. Hozirgi g'ijjaklar 4 ta simli bo'lib, biri metall dan, qolgan uch tasi

ichakdan tayyorlanadi. G'ijjak solo, jo'rsoz va ansambl cholg'uchi hisoblanadi.

Satar - torli xordofon. Boshqa cholg'ularga nisbatan kam qo'llaniladi. Bu cholg'uda asar ijro etish uchun katta mahorat talab qilinadi. Tamburga nisbatan kattaroq qoringa ega. Grif esa qalinroq va kaltaroq yasaladi. Satar tut daraxtidan yasaladi. Simlari 9 tadan 13 tagacha bo'lishi kuzatiladi. Simlar metallardan tayyorlanadi. Ijrochi birinchi simda chaladi. Boshqa simlar - rezonans beruvchi simlar hisoblanadi. Simlar asosan hofizning ovozigacha moslanadi (Kichik oktava "solb", "lya", "si"). Satar muqomlarning boshlang'ich bo'limi "Muqomboshi"da jo'rsoz sifatida qo'llaniladi. Bundan tashqari Solo, jo'rsoz va ansamblar tarkibida ham qo'llaniladi.

Qonun - plektor - urma xordofon hisoblanadi. Qonun uyg'ur xalqining qadimgi cholg'ularidan hisoblanadi. Ushbu cholg'uning shakli noto'g'ri uchburchak shaklida bo'lib, korpus tut daraxtidan yasaladi. Simlari metallardan. Diapozoni - ikki oktavani tashkil qiladi. Kichik oktava "si" va ikkinchi oktavani "do" tovushlari.

Chang - urma xordofon; chang trapetsiyasimon shaklda bo'lib, uning korpusi tut daraxtidan tayyorlanadi. Simlari metallardan. Diapozoni: kichik oktava "solb"dan uchinchi oktava "re" gacha (ba'zan "si"). CHang solo, jo'rsoz va ansambl cholg'usi sifatida qo'llaniladi.

Nay - aerofon cholg'u bo'lib, u bambuk yoki dub daraxti yog'ochidan tayyorlanadi. Nayning 12 ta teshigi bo'lib, 6 tasi ijro uchun, bittasi puflash uchun, 5 tasi rezonans berish va tovushning aniq balandligini belgilash uchun xizmat qiladi. Nay solo va ansambl tarkibida qo'llaniladi.

Qo'shnay - ikki nay bir - biriga jipslashgan bo'lib, bambuk yoki dub daraxtining yog'ochidan tayyorlanadi. Tuzilishi nay bilan o'xshash. O'tirgan yoki turgan holda ijro etiladi. Solo yoki ansambl tarkibida qo'llaniladi.

Surnay - silindr shaklidagi cholg'u tut daraxtidan tayyorlanadi (yoki dub daraxti).

8 ta teshigi bor. 7 tasi ijro uchun, bittasi rezonans hosil qilishi uchun.

Karnay - mundshtukli cholg'ular oilasiga kiritiladi. Silindr shaklidagi cholg'uning tanasi pastga tomon kengayib boradi. Tovushlari aniq balandlikka ega emas.

Dap - membronofon guruhiga kiritiladi. Tut daraxtidan tayyorlangan obruchga qo'y terisidan membrana tortiladi. Ikkinchi tomoniga metall shaqildoqlar taqiladi.

Tevilvaz - qozon shaklidagi qizil misdan tayyorlangan korpusga ho'kiz terisidan membrana tortiladi.

Nag'ra - uning korpusi (chugun)dan qozon shaklida tayyorlanadi. Unga ho'kiz terisidan membrana tortiladi. Bu cholg'uning turlari ko'p: bosh nag'ra, ottura nag'ra, ayaq nag'ra.

Dumbak - bu cholg'u qozon shaklida tayyorlanadi, membrana sifatida ho'kiz terisi qoplanadi. Dumbakning ham turlari mavjud: harbiy (jang dumbak), oddiy dumbak.

Sapay - bambuk yoki dub yog'ochidan tayyorlanadi. Ikki tayoqcha ko'rinishiga ega. Tayoqchalarning yuqori qismiga metall shaqildoqlar o'rnatiladi.

Juptash - ikkita silliqqlangan tosh bog'ichlar yordamida biriktiriladi. Bir - biriga urib tovush chiqariladi.

Qashuq - dub daraxti yog'ochidan tayyorlanadi.

Chaq - chuq - dub yog'ochidanyasalgan va silliqqlangan ikkita brusok o'zaro bog'ichlar yordamida biriktiriladi.

Chaqcha - hayvon suyaklaridan tayyorlangan va silliqqlangan brusoklar o'zaro bog'ichlar yordamida biriktirilgan.

Mahmud Qoshg'ariy.

M.Qoshg'ariy 1029 yili tug'ilgan bo'lib, qoraxoniylar sulolasiga tegishli.

M.Qoshg'ariyning mashhur "Devoni lug'otit turk" kitobi qomusiy bo'lib, unda tarixiy, madaniyat, etnografiya va mengvistikaga oid ma'lumotlar jamlangan.

Madaniyat va san'at

Maktablar asosan masjidlariga joylashgan edi. Asosan diniy mavzudagi kitoblari arab tilida o'qilar edi. Uyg'ur xalqida og'zaki an'anadagi xalq ijodiyoti, ayniqsa lirik she'riyat keng rivojlangan.

"Go'zal Nazigum" haqidagi doston uyg'urlarning eng sevimli dostonlaridan biridir. Sayohatchilar va tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, uyg'urlar qo'shiq va musiqani sevishgan va ularning musiqiy iste'dodi yaxshi rivojlangan. Uyg'ur xalqining qo'shiqchilik ijodiyotida bir nechta tarixiy qo'shiqlar turkumlari mavjud bo'lib, uyg'urlar hayotidagi tarixiy voqe'liklar she'riy shaklda bayon qilinadi. Uyg'ur folklorida to'y marosimlari qo'shiqlari, tabiat bilan bog'liq marosim qo'shiqlari, davolov qo'shiqlari mavjud.

Uyg'ur xalqining yozma adabiyoti uzoq tarixiga ega. Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" va Maxmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarlari uyg'ur adabiyoti tarixida alohida ahamiyatga ega. Birinchisi pand - nasihat xarakterida bo'lsa, ikkinchisi til, folklor, tarix, etnografiya va madaniyat bilan bog'liq. Alisher Navoiyning asarlari ham uyg'urlar orasida keng tarqalgan, ayrimlari folklor qatlamiga kirgan. Og'zaki an'anada xalq dostonlari bo'lmish "Tair va Zoxra", "Yusuf va Ahmad", "Kyor - Oglu" va boshqalar saqlangan. Yozma adabiyot manbaida esa tarixiy-memuar xarakteridagi asarlar salmoqli o'ringa ega. Ular orasida mashhurlari - dostonlar, g'azallar, masnaviylardir. Dostonlar ijtimoiy yoki falsafiy xarakterda bo'lsa, masnaviy va g'azallar lirik xarakterga ega.

Uyg'urlar hayotida musiqa va raqs alohida o'rin tutadi. Bayramlar, xalq tantanalari, to'ylar va boshqa oilaviy tantanalar musiqa va raqslarsiz o'tmaydi. Uyg'ur xalq qo'shiqlarining kuylari o'ziga xos qirralari bilan ajralib turadi.

Uyg'ur raqslari juda yengil va jozibalidir. Ular ijro etilish uslublariga ko'ra bir - biridan farqlanadi. Ussul raqsi faqat tik turgan holatda ijro etiladi, unda o'tirib - turish kabi holatlar kuzatilmaydi. Sedir turli harakatlar bilan ijro qilinadi: o'tirib - turish, chapak chalish kabilar. Ushbu raqs ikki raqqos tomonidan ijro qilinadi. Farg'onada yashovchi uyg'urlar o'zlarining milliy raqslarini deyarli unutishgan, ular o'zbekcha raqslarni o'zlashtirganlar.

Tayanch soʻzlar: uygʻur xalq raqslari, uygʻur xalq cholgʻulari

Nazorat savollari:

1. Uygʻur xalqining kelib chiqish tarixi xususida nimalarni bilasiz?
2. Uygʻur xalq musiqa madaniyati xususida soʻzlab bering.
3. Uygʻur xalq musiqa anʼanalarining oʻziga xos qirralari xususida nima deya olasiz?
4. Uygʻur xalq torli cholgʻulari haqida gapiring.
5. Uygʻur xalq damli cholgʻulari haqida soʻzlab bering.
6. Uygʻur xalq zarbli cholgʻulari haqida gapiring.
7. Uygʻur xalq cholgʻulari va oʻzbek xalq cholgʻulari oʻrtasidagi farq va umumiyliklar nimada?
8. Uygʻur xalq raqslari xususida gapiring.

14-MAVZU

UYG‘UR XALQ MUSIQA AN‘ANALARI. MUQOMLARI, DOSTONLARI.

Reja:

1. Uyg‘ur xalq madaniyati xususida
2. Uyg‘ur xalq dostonlari haqida
3. Uyg‘ur xalq muqomlari xususida

Adabiyotlar:

1. Литвинский Б. А., Пичикян И.Р. *Пещерная культовая архитектура Восточного Туркестана // Восточный Туркестан и Средняя Азия в системе культур древнего и средневекового Востока.* - М., 1986.
2. Молов С. Е. *Уйгурские рукописные документы экспедиции С. Ф. Ольденбурга // Записки Института востоковедения Академии наук СССР.* - Л., 1932. - Вып. 1.
3. Малое С. Е. *Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования.* - М.-Л., 1951.
4. Малявкт А. Г. *Китай и уйгуры в 840-848 гг. // Сибирь, Центральная и Восточная Азия в средние века.* - Новосибирск, 1972.
5. Xoshimov A. *Uyg‘ur xalq an‘anaviy kasbiy mumtoz musiqasi.* T., 2001

Uyg‘urlar qadimgi turkiy xalqlardan biridir. Ular qadimdan Sharqiy Turkiston (zamonaviy Sinszyan - XXRning uyg‘ur avtonom rayoni), Qozog‘iston va Qirg‘iziston hududlarida yashaydilar. Uyg‘ur xalqi 8 - 10 mln odamdan tashkil topgan. Uyg‘ur tili turkiy tillarning qarluq guruhi tarkibiga kiradi. Uyg‘ur tilining tarixiy rivojida uchta bosqich kuzatiladi:

1. qadimiy, ikki davrdan tashkil topadi - eng qadimiy (er.5-asrgacha) va qadimiy (er.6-11 asrlari).
2. o‘rta asrlar ham ikki bosqichga ajratiladi: erta o‘rta asrlar (11-14 asrlar) va kech o‘rta asrlar (14-18 asrlar).
3. zamonaviy, yangi (18-19 asrlar) va o‘ta yangi (20-asr).



Uyg'ur xalqi o'zining rivojlanish davrida davlatlar barpo qilganlar. Dastlabki uyg'ur xoqonligi 323 yili barpo etilgan. Mazkur davlat 200 yil davomida rivojlangan. Oradan yuz yil o'tgandan so'ng, 523 yili ikkinchi uyg'ur xoqonligi tashkil etilib, 80 yil davomida o'z mavqeini saqlagan. 603 yili bosqinchilar tomonidan vayron qilingan (Turk xoqonligi tomonidan). 743 yili SHarqiy turk xoqonligi o'rnida Uchinchi uyg'ur xoqonligi tashkil etilib, 840 yili yana vayron qilingan.

Uchinchi uyg'ur xoqonligi davrida chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik keng rivojlangan.

Uchinchi xoqonlik tugagandan so'ng (840 yil), Sharqiy Turkiston hududida uyg'urlar Turfonni markaz qilib, davlat barpo qildilar. 9-14 asrlarda Uyg'ur davlatida barcha jabhalar keng rivoj topgan edi. 902-1036 yillari Uyg'ur Ganch Jou davlati shakllandi, 11-12 asrlarda esa uyg'ur kuchar xonligi mavjud bo'lgan.

Islom dinini qabul qilishdan avval buddizm, moniylik va mazdaklik kabi dinlarga sig'inishgan.

Qashgʻarning buddaviylik dinidagi madaniyati, sekin - asta Oʻrta Osiyo, Eron, Vizantiya kabi davlatlarning madaniyati taʼsir qila boshladi. Nemis olimi A. fon Lekok 1909 yili Sharqiy Turkistonda arxeologik ishlar olib bordi. Mazkur ishlar 7 - 8 asrlarga tegishli Turfon shahari bilan bogʻliq boʻlib, qazilma ishlariga oid qiziqarli maʼlumotlar yozib qoldirilgan. Qashqarning arxitekturasida Osiyo xalqlari va Hind xalqlarining arxitekturasining qirralari sezilib turadi. Mazkur ekspeditsiya davomida 7- 8 asrlarga tegishli yozma yodgorliklar ham topilgan. Ular orasida toʻxar, fors, soʻgʻd, hind tilidagi matnlar boʻlgan.

3-asrdan soʻng Turfon viloyatida oʻziga xos tarixiy voqeʼliklar eʼtiborni tortadi. Bu davrda davlatni uygʻur - xitoy aralash sulolasi boshqarib turgan.


Qashqar madaniyatiga turkiy xalqlar madaniyatining taʼsiri 9 - asrdan keyingi davrlarda seziladi.

10-14 asrlarda uygʻur madaniyatida ikki anʼana davom ettirildi: mahalliy aholining hind - yevropa aholisining buddaviylik yoʻnalishida va uygʻurlarning Oʻrxun davri madaniyati haqida.

10-14 asrlar tarixiy davri mobaynida Qashqar Oʻrta Osiyo bilan turli yoʻnalishdagi aloqalarni kengaytirdi.

Uygʻur xalqining madaniyati uzoq oʻtmish davrlardan boshlanadi. Uygʻur xoqonligi davrida mazkur xalq "juni" yozuvidan foydalanganlar (turkiy tillar guruhiga mansub). Chigʻatoy xonligi davrida uygʻurlar arab alifbosini qoʻllay boshladilar va bu davrga tegishli yozuvlar "Qadimgi uygʻur yozuvi" deyiladi. 19 - asrda zamonaviy uygʻur yozuvi keng tarqala boshladi. Zamonaviy uygʻur tilida 8 ta unli va 24 undosh tovushlar bor. 11 - asrda Bolasogʻunlik Yusuf Xos Xojib oʻzining didaktik poemasi (pand - nasihat) "Qutadgʻu bilig"ni yaratdi; shoir Aplinchotele "Shunday yer borki" deb nomlangan dostonini yaratdi. CHigʻatoy davrida "Layla va Matayn" nomli ishqiy dostoni va Abdujeim Nizoriyning "Jebiya va Saddin" dostoni yaratildi. Zamonaviy uygʻur badiiy adabiyoti va sheʼriyati 20 - asrda rivojini davom ettirdi.

Uygʻurlarning qoʻshiq, raqs ijodiyoti oʻziga xos qirralari bilan eʼtiborni tortadi. Yorkend xonligi davrida "12 maqom" turkumi yaratilgan edi. Mazkur turkumga 340 ta musiqiy namunalar kiritilgan: qadimiy aytimlar, ogʻzaki tarzda xalq dostonlari, raqs musiqasi va boshqalar. Qash muqomi oʻzining katta hajmi bilan



ajralib turadi. Mazkur turkumga 170 ta vokal musiqa va 72 ta cholg'u musiqa namunalari kiritilgan. Ushbu turkumlarni uzluksiz 24 soat davomida ijro etish mumkin edi.

Uyg'urlarning raqslarini ikki toifaga ajratish mumkin: ashula bilan ijro etiladigan raqslar va cholg'u kuylarga tushiladigan raqs. Mashhur raqs uslublaridan biri "Sanam" edi. Mazkur uslub o'zining erkin harakati bilan ajralib turadi va bir, ikki raqqosa yoki ansambl tarzida ijro etiladi. "Sat'yana" - quvnoq xarakterli raqs bo'lib, ijrochilar (raqqoslar) soni aniq belgilanmaydi. Bu raqs ijrosi davomida raqqoslar qo'llarini yuqoriga ko'tarib, panjalar harakatini oyoq ritmiga moslashtiradilar.

Tayanch so'zlar: Uyg'ur xalq musiqa madaniyati, Uyg'ur kasbiy musiqa janrlari, muqomlari, dostonlari

Nazorat savollari:

1. Uyg'ur xalq musiqa madaniyati haqida so'zlab bering.
2. Uyg'ur xalq kasbiy musiqa an'alarining o'ziga xos qirralari xususida nima deya olasiz?
3. Uyg'ur xalq muqomlari xususida nima bilasiz?
4. Uyg'ur xalq dostonlari xususida nima deya olasiz?

15-MAVZU

QORAQALPOQ XALQ MUSIQA AN'ANALARI. MAROSIM VA NOMAROSIM JANRLARI.



Reja:

1. Qoraqalpoq xalqining shakllanish tarixi
2. Qoraqalpoq xalqining o'ziga xos urf-odat va marosimlari
3. Qoraqalpoq xalq marosim qo'shiqlari
4. Qoraqalpoq xalq nomarosim qo'shiqlari

Adabiyotlar:

1. Адамбаева Т. Революция гашекемги қарақалпақ музыкаси. Нукус, 1976.
2. Азимова А.Н. Звуковой мир каракалпаков. Ташкент, 2008.
3. Alpamis (dostondan parchalar). Toshkent, 1999.
4. Ayimbetov Q. Xalq danalig'i. Nukus, 1988.
5. Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. Л.-М., 1974 г.
6. Жирау намалари (тўплам). Нукус, 1991.


7. История Каракалпакской АССР (С древнейших времен до наших дней). Ташкент, 1986.

8. История каракалпакской литературы (С древнейших времен до 1917 г.). Ташкент, 1994.

9. Каракалпакские народные песни. М., 1959.

10. Qoraqalpoq xalq namalari (Kirish so'zi) // O'zbek xalq muzikasi. VIII jild. Toshkent, 1959.

11. Qurbonov X. Qoraqalpoq jirovchilik san'atining musiqiy xususiyatlari. Diplom ishi. 1998. O'zDK kutubxonasi.



Qoraqum va Qizilqum cho'llarini ajratib turuvchi Amudaryo bo'yida qoraqalpoq xalqi yashaydi.

Qoraqalpoq xalqi yarim ko'chmanchi tarzda hayot kechirishgan va bir nechta qabilalarga bo'linishgan. Qabilalar o'zaro ahil yashamaganlar. Qabilaga biylar boshchilik qilganlar. Qoraqalpoq xalqi asosan dehqonchilik, chorvachilik va baliqchilik bilan shug'ullangan.

Qoraqalpoq xalqi an'anaviy badiiy ijodiyoti shakllarining vujudga kelishi va rivojlanishi uning etnik tarixi bilan chambarchas bog'liq. Qoraqalpoq xalqining kelib chiqishida ko'p noaniqliklar bo'lsa-da, tarixiy, arxeologik, etnografik ma'lumotlarga ko'ra, qoraqalpoq xalqining ajdodlari sak-massaget qabilalari vakillaridir. Sak-massaget qabilalari er. av. VII-V asrlarda Orol dengizi bo'yida yashaganlar. Er. VI-VIII asrlarida Orol bo'yiga sharq tomondan ko'plab turkiy qabilalar ko'chib kela boshlaganlar. Yerlik xalqlar va ko'chmanchi qabilalarning assimilyatsiyasi natijasida Amudaryo bo'yida pecheneglar vujudga kelgan. VIII-XI asrlarda Movarounnahrda "qoraqalpoq" xalq sifatida shakllana bordi.

XII-XIII asrlarda qoraqalpoqlar Amudaryoning quyi hududlarida yashaganlar va Xorazm davlatining tarkibida bo'lganlar. XIII asrda Oltin O'rda mo'g'ullari bosqinchiligi O'rta Osiyo xalqlariga ocharchilik va qashshoqlik olib keldi. Ushbu davrda qoraqalpoqlar g'arbga, Volga va Ural daryolari atrofidagi hududlarga ketishga majbur bo'ldilar.

XVII-XVIII asrlarda qoraqalpoqlarning aksariyati Sirdaryoning quyi va o'rta oqimlari bo'yida joylashdilar. 1811 yili esa ular Xiva xonligi tarkibiga kiritilgan.

Qoraqalpoq xalqi o'zining shakllanish jarayonida qozoq, turkman va o'zbek etnoslarining kelib chiqishiga asos solgan qipchoqlar, o'g'uzlar, xorazmliklar bilan aralashib bordi. SHu bois qozoq, turkman va o'zbek xalqlari etnik tarkibida uchraydigan qabila va urug'lar, qoraqalpolarda ham uchraydi.

Qoraqalpoqlar asosan chorvachilik bilan shug'ullanganlar. XVI asrdan boshlab dehqonchilik va baliqchilikni o'zlashtira boshladilar. Ammo XX asrga qadar mazkur xalq yarim ko'chmanchi hayot tarzini kechirdilar.

1924 yili Qoraqalpoq avtonom oblasti tashkil etildi. 1936 yildan esa Qoraqalpoq avtonom respublikasi tashkil etildi (O'zbekiston tarkibida).

Qoraqalpog'iston hududida arxeologik qiymatga ega bo'lgan mingdan ortiq yodgorliklar mavjud. Ho'jayli shahridan 3 km masofada tepalikda noyob Mizdakxan kompleksi joylashgan. Ushbu kompleksda Geuir qal'a shaharchasi topilgan. SHaharga er. IV asrida asos solingan. Mizdaxkanda zardushtiylik diniga oid ko'pgina osori-atiqalar topilgan. Ma'lum bo'lishicha, bu yerdan Buyuk ipak yo'li ham o'tgan. Mizdakxan kompleksidan uncha uzoq bo'lmagan yerda zardushtiylarning diniy marosimlar o'tkazish uchun moslangan "Chilpiq" deb nomlanuvchi me'moriy qurilmasi ham topilgan. Ellikqal'a rayonida ko'plab tarixiy-madaniy yodgorliklar mavjud bo'lib, ulardan Ayoq qal'a, Qirg'iz qal'a, Tuproqqal'a alohida ahamiyatga ega. Tuproqqal'ada Qo'hna Xorazm hukmdorlari (xorazmshohlar)ning qarorgohlari bo'lib, u yerda ajoyib freskalar va haykallar topilgan.

Qoraqalpoq xalqining musiqa madaniyatining rivojlanishida qo'shiqchilik ijodiyotiga alohida o'rin ajratiladi. Qo'shiqchilik san'ati ko'p asrlar mobaynida rivojlanib kelgan. Qo'shiqlar turli

marosim, urf-odatlar asosida shakllangan. Qo'shiq janri xalqning hayot tarzi, tarixini ochib beruvchi vosita hamdir.

Xalqning marosim qo'shiqlari chuqur ildizga ega. Ular turli-tumandir. Marosim qo'shiqlar inson hayoti davomida bo'lib o'tadigan tug'ilish, uylanish, vafot etishi va hokazo hodisalar bilan bog'liq holda yuzaga keladi.

Marosim qo'shiqlari orasida cho'ponlar qo'shiqlari, mavsum marosimi bilan bog'liq "Navro'z", to'y marosimi bilan bog'liq "Toy baslau", "Xaujar", "Sinsu", "Bet ashar", dafn marosimlari bilan bog'liq "Joqlau", "Aytim ayu", diniy marosimlar bilan bog'liq "Yaramazan"lar ijro etiladi.

Maishiy marosim qo'shiqlari sirasiga yoshlarning turli bazmlarda (gap-gashtaklarda) ijro etiladigan qo'shiqlari ham kiritiladi. Bunday qo'shiqlar savol va javob shaklida bo'lib, bularda qatnashchilarning topqirligi, hozirjavoblgi namoyish etiladi.

Qoraqalpoblarning to'y marosimi qo'shiqlari to'yni har bir bosqichida ijro etilgan. "Toy boslau" - eng birinchi to'y qo'shiqlaridan biri bo'lib, kelinni kuyov uyiga kuzatilishi paytida ijro etiladi. Bu qo'shiq o'ziga xos qutlov bo'lib, poetik improvizatsiya qilish imkoniyati keng bo'lgan erkak yoki ayol ijrochi kuylaydi.

"Xaujar" yoki "Yar-yar" - to'y marosimining eng yorqin aytimlaridandir. Bu qo'shiqlar kelinni ota uyidan ketish paytida ijro etiladi. Ijroda kelinning dugonalari va qarindoshlar ishtirok etadilar. Kuyovning uyiga yetib kelgach, kuyovning yaqinlari ham qo'shiqlar ijrosiga qo'shiladilar. Ko'p hollarda "Yar-yar" ikki tomon dialogi shaklida ijro etiladi. Qo'shiqning bandlarida sovchilik, qalin to'lovi, kelin uzatish kabi mavzular bayon qilinadi. SHu sababli "Xaujar" yoki "Yar-yar" qo'shiqlarining xarakteri ham turlicha bo'ladi: lirik, g'amgin, quvnoq, satirik va hokazo.

"Xaujar", "Yar-yar", qo'shiqlari har xil nomlanishda ("Jar-jar", "Yor-yor", "Leeran") barcha turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan. Bu holat ushbu xalqlarning yashash sharoiti va kasb-korlarining yaqinligi hamda tilining umumiyliigi bilan izohlanadi.

To'y marosimi qo'shiqlari orasida "Sinsu" (qiz yig'isi) aytimining o'zni alohidadir. Bu qo'shiq orqali kelin o'z yaqinlari, dugonalari bilan xayrlashadi. Ijrochining mahoratidan kelib chiqqan holda qo'shiq she'ri badiiy yoki proza shaklida bo'ladi. Kelin nozik va ayni paytda cho'ziq ohanglar bilan o'zining taqdiri

haqida kuylaydi. "Sinsu" aytimining kuyi ko'p hollarda improvizatsion xarakterga ega bo'lib keladi.

"Bet ashar" - kelinning yuzini ochishi marosimi bo'lib, to'yning yakuniy bosqichlaridan hisoblanadi. "Bet ashar" kelinni kuyov tomonning yaqin qarindoshlari bilan tanishtirish, unga ba'zi maslahatlar berish maqsadida amalga oshiriladi. Unda she'riy bandlar o'ziga xos ohanglar bilan ijro etiladi. "Bet ashar"ni asosan kasbiy ijrochilar ijro etadi.

Qoraqalpoq xalqining o'ziga xos ohang ko'rinishlari dafn marosimlari bilan bog'liq yig'ilarda, shuningdek har xil yo'qlovlarda namoyon bo'ladi.

Inson vafotidan so'ng yig'ilar yaqin qarindoshlar tomonidan ijro etilgan. Yig'ilarning ham bir nechta turlari bo'lgan. Ular dafn marosimidan oldin yoki keyin, sharoitga qarab, marhumning oilali yoki oilasizligiga qarab ijro etilgan. Bu toifadagi ohanglarning hajmi katta bo'lmay, deklamatsion xususiyatga ega. Kuy ohanglari quyi tomon harakatlanib, glissando ko'rinishida bo'ladi.

Qoraqalpoq xalqining ma'lum marosim bilan bog'liq bo'lmagan qo'shiqlar turini lirik hamda tarixiy qo'shiqlar, terme va to'lg'ovlar tashkil qiladi.

Qo'shiqchilik ijodiyotining eng keng tarqalgan turlaridan biri - lirik qo'shiqlardir. Lirik qo'shiq janrining ildizlari uzoq o'tmishdan boshlanadi. Bu janr xalq hayotidagi yashash sharoitini, dunyoqarashini aks ettiradi. Lirik qo'shiqlar mazmun va mavzu jihatidan xilma-xildir. Ular badiiy timsollar, musiqiy ifoda vositalari, kompozitsion tuzilishi bilan bir-biridan farqlanadi. Ayrim keng rivojlangan namunalarda his-tuyg'ularni ifoda etuvchi vosita sifatida musiqa ustunlik qiladi. Milliy ohangning o'ziga xos qirralari mavjud: kuying boshida keluvchi septimaga sakrash; ohanglarning quyi va yuqori tertsiyaga harakati; glissando; forshlag; o'ziga xos ijro uslubi va hokazo. Bu qirralar ko'proq ishqiy mavzudagi qo'shiqlarda yorqinroq namoyon bo'ladi. "Kelte nalish", "Paxay", "Chimbay", "Muxalles" kabi mashhur qo'shiqlar hozirgi kungacha o'zining go'zal ohanglar va she'riy mazmuni bilan tinglovchi e'tiborini jalb qilmoqda.

Qoraqalpoq xalqining mashhur qo'shiqlaridan biri "Aruxan" deb nomlanadi. "Aruxan"ning yaratilishi haqida ko'p afsonalar mavjud: "Bir qari ayolning beshta qizi bo'lgan ekan. Bir to'yda atoqli Aqimbet baxshining ijrosi ayolga shunchali darajada

yoqibdiki, u o'zining Aruxan ismli qizini unga sovg'a qilgan ekan".

Xalq ichida mashhur bo'lgan qo'shiqchilardan biri Oyimxon Shomurotovadir (1917-1993). Oyimxon Shomurotova o'zining chiroyli ovozi bilan "Aruxan", "Qiz Minayim", "Dembermes" kabi qo'shiqlarni ijro etgan.

Termalar pand-nasihat mavzusidagi qo'shiqlardir. Ularning aksariyati tarbiyaviy masalalarga bag'ishlangan. Termalarning o'ziga xos qirralaridan biri - "savol-javob" shaklida kelishidir.

Termalar har bir jirovning repertuariga kiritiladigan janrdir. Asosan termalar dostonga tushishdan oldin ijro etiladi.

Terma janriga yaqin janrlardan biri tolg'audir. Termalarda asosan maishiy hayot bilan bog'liq muammolar aks ettirilsa, tolg'aularda tarixiy voqealar, botirlar va biylarning ibratli hayotlari haqida kuylanadi. Bu janr halqda vatanparvarlik ruhini tarbiyalaydi.

Tolg'ovlar tub ma'nodagi xalqchil janr bo'lib, u og'zaki tarzda rivojlanib kelgan. Bu ijodiyot turi o'zining mukammalligi bilan ajralib turadi. To'lg'ovlarda keng rivojlantirilgan syujet bo'lib, timsollar tizimi ham ancha keng. To'lg'ovlarning bunday tarzda tuzilishi uni doston janriga yaqinlashtiradi. "Ormambet biy", "No'g'oy" kabi to'lg'ovlar kompozitsion tuzilishi jihatidan ancha rivojlangan. Ushbu to'lg'ovlar deyarli har bir jirovning repertuaridan o'rin olgan.

Tarixiy qo'shiq janri ham mavjud bo'lib, tuzilishi jihatidan to'lg'ovlarga yaqin. Bu turdagi qo'shiqlarda ham xalqning ko'p tarixiy voqealar aks ettirilgan. "Qoraqalpoq", "Boysin", "Qo'ng'iroq afsonasi" kabi qo'shiqlari ham tarixiy qo'shiqlardir.

Tayanch so'zlar: Qoraqalpoq xalq musiqa ijodi, marosim qo'shiqlari, nomarosim qo'shiqlari

Nazorat savollari:

1. Qoraqalpoq xalqining shakllanish tarixi haqida nimalarni bilasiz?
2. Qoraqalpoq xalqining o'ziga xos urf-odat va marosimlari xususida gapiring.
3. Qoraqalpoq xalq qo'shiqchilik ijodiyoti xususida so'zlab bering.
4. Qoraqalpoq xalq marosim janrlarini aytib bering.
5. Qoraqalpoq xalq nomarosim janrlari haqida gapirib bering.

16-MAVZU

QORAQALPOQ MILLIY CHOLG‘U KUYLARI. SOZLARI.

Reja:

1. Qoraqalpoq xalq cholg‘ularining shakllanish tarixi
2. Qoraqalpoq xalq torli cholg‘ulari
3. Qoraqalpoq xalq damli cholg‘ulari
4. Qoraqalpoq xalq zarbli cholg‘ulari

Adabiyotlar:

1. *Азимова А.Н. Звуковой мир каракалпаков. Ташкент, 2008.*
2. *Айимбетов Қ. Халқ даналиг‘и. Нукус, 1988.*
3. *Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. Л.-М., 1974 г.*
4. *История Каракалпакской АССР (С древнейших времен до наших дней). Ташкент, 1986.*

Qoraqalpoq xalq cholg‘ulari shu kungacha uzoq tadrijiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Cholg‘ularning shakllanishi xalq shakllanishi jarayoni bilan uzviy bog‘liq holda kechadi. Cholg‘ularni o‘rganishda shunday holatga e‘tibor berish lozimki, cholg‘ularning paydo bo‘lishini, shakllanishini O‘rta Osiyo xalqlari madaniyati bilan bog‘liq holda o‘rganish kerak. Ma‘lumki, ba‘zi cholg‘ular ayrim xalqlarda mahalliy xususiyatlarga ega bo‘lgani holda, o‘zbek, tojik, qirg‘iz, turkman xalqlarida ham uchraydi.

Zamonaviy qoraqalpoq cholg‘ularining torli, damli va urma guruhleri mavjud. Bu guruhlar orasida torli cholg‘ular alohida ahamiyatga ega: kamonli - qo‘biz, g‘ijjak; chertma - dutor; plektorli - qashqar rubobi; torli-urma - chang cholg‘ulari amaliyotda keng qo‘llaniladi.

Qo‘biz va dutor cholg‘ularini alohida ajratib ko‘rsatish lozim. Chunki bu cholg‘ularning tovush tembri qoraqalpoq xalqining milliy xususiyatini belgilovchi sifatlardan hisoblanadi.

Qo‘biz - cho‘michsimon shaklga ega bo‘lib bo‘lib, dastasi va tanasi daraxtning yaxlit bo‘lagidan tayyorlanadi. Cholg‘uning



pastki chanoq qismining yarmisi teri (membrana) bilan qoplanadi, yuqori qismi esa ochiq qoladi. Qo‘biz yoysimon kamon bilan chalinadi (milliy talaffuzda "tartqish" yoki "kamansha"). Kamonga otning yoli tortiladi. Qo‘bizning torlari ham otning yolidan bo‘lib, kvartaga sozlanadi. Umumiy diapozoni - bir yarim, ikki oktavani tashkil qiladi.

Qo‘biz barcha turkiy xalqlarning eng qadimiy cholg‘ularidan biridir. O‘tmishda bu cholg‘u O‘rta Osiyo hududida keng qo‘llanilgan. Mahmud Qoshg‘ariyning "Devonu lug‘otit turk" (XI asr) asarida "qobuz" cholg‘usi boshqa cholg‘ularga nisbatan ko‘proq eslanadi. Abdulqodir Marog‘iy (XV asr) bu cholg‘uning kelib chiqishi haqida: "qobuz - turkiylarning sevimli cholg‘usi - fors

madaniyatiga boshqa turkiy cholg'ulari qatorida kirib kelgan", - deya ma'lumot beradi. Tarixiy manbalardan ma'lum bo'lishicha, XIV-XV asrlarda qo'biz juda mashhur bo'lgan. Darvesh Ali Changiy (XVII asr) o'zining "Musiqiy risola"sida taxmin qilishicha, qo'biz mashhur musiqachi Sulton Uvays (XIV asr) tomonidan yaratilgan ekan.

Hozirgi davrda musiqa amaliyotda qo'biz cholg'usi nisbatan kam qo'llanilsada, uning ahamiyati qoraqalpoq, qozoq va qirg'iz musiqa ijodiyotida ancha salmoqlidir. Qoraqalpog'istonda doston ijrochiligi, to'lg'au va terme kabi epik aytimlar aynan ushbu cholg'u jo'rligida ijro etiladi.

Shuningdek, qo'bizning o'tmishda turli xil diniy marosimlarni ado etishda qo'llanilganligi ham kuzatiladi. Chunonchi, qozoq baqsi (shomon)lari ushbu cholg'u jo'rligida kasallikni davolovchi, ins-jinsni haydovchi marosimlarni o'tkazganlar.

Hozirda davrda qo'biz cholg'usi ansambl tarkibida ham, yakkaxon ijrochilikda ham qo'llaniladi.

Ma'lumki, **dutor** cholg'usi O'rta Osiyoda keng tarqalgan cholg'ulardan biridir. Dutor qoraqalpoq xalqining sevimli cholg'usi hisoblanadi. Dutor ikki simli chertma cholg'u bo'lib, kattagina noksimon shaklga ega. Uzun dastasida 13-15 ta pardalar joylashgan. Dutor cholg'usi ikki turda yasaladi: kosasi yaxlit o'yib ishlangan "qazba" yoki "oyma" ("o'yma", o'yib ishlangan) va "qurama" (kosasi bir nechta bo'laklardan yopishtirib ishlangan, "qovurg'ali") dator. Qoraqalpoq dutori o'ziga xos milliy xususiyatlariga ega bo'lib, uning dastasi nisbatan biroz qisqaroq va ingichkaroqdir. Dutor dastasiga ipak yoki metall simlar tortiladi. Dutorlar suyak (ba'zan oddiy plastmassa)dan ishlangan naqshlar bilan bezatiladi. Dutor turlicha usullar bilan ijro etiladi: ayrim hollarda beshta, uchta, ikkita barmoq bilan urib chalinadi, ayrim hollarda esa bitta barmoq bilan chalinadi. Dutor simlari aksariyat hollarda kvartaga, o'ta kam hollarda unisonga sozlanadi. Bu holda ikkinchi sim doim burdonni berib turuvchi vazifasini bajaradi.

Dutor haqida dastlabki ma'lumotlar XV asrga tegishlidir. Ma'lum bo'lishicha Zaynullobidin Husayniyning "Qonun" asarida ushbu cholg'u haqida dastlabki ma'lumotlar berilgan. Musiqiy risolada dator cholg'usi yordamida O'n ikki maqom

tizimi tushuntirib beriladi. Bunday holat o'tgan asrlarda dutor ancha mashhur cholg'u bo'lganligidan dalolat beradi.

Qoraqalpoq xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishida dutor katta ahamiyat kasb etadi. Dutor birinchi navbatda qoraqalpoq baxshilarining cholg'usidir. Baxshilar o'z aytimlarini shu soz jo'rligida ijro etadilar. O'z navbatida dutor cholg'usi ham ansambl tarkibida, ham yakkaxon cholg'u sifatida ham qo'llaniladi. Dutor uchun asarlar orasida cholg'u turkumlar alohida o'ringa ega. Turkumli asarlar kengaytirilgan shakl, ifoda vositalarining turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Bunday asarlar orasida "Muxalles", "Nalish" turkumlari mashhur.

G'ijjak (girjek) - torli-kamonli cholg'u. Bu cholg'uning ifoda imkoniyatlari nihoyatda keng. G'ijjak cholg'usi haqidagi dastlabki ma'lumotlar XIV asrga tegishli musiqa risolasida keltirilgan. G'ijjak cholg'usi yarim doira shaklidagi korpusi bo'lib, unga teri tortilishi haqida yozilgan. G'ijjakning dastagi bodom, yong'oq yoki qora daraxtdan yasalgan. Torlar kvintaga sozlanadi. Tovush kamon yordamida chiqariladi. Kamonga otning yoli tortiladi.

Zamonaviy tipdagi g'ijjak qadimiy g'ijjakdan kam farq qiladi. Uch yoki to'rt torli cholg'u eng keng tarqalgan turidir. Qadimiy g'ijjaklar ikki torli bo'lgan.

Qoraqalpoq xalqi musiqa amaliyotida g'ijjak qachon paydo bo'lganligi haqida ma'lumotlar yo'q. Taxminlarga ko'ra, g'ijjak XIX asrda Xivada qo'llanila boshlagan. Birinchi navbatda g'ijjak baxshilarning jo'rsozi sifatida qo'llaniladi. G'ijjak ko'pincha dutor cholg'usi bilan ansambl sifatida namoyish etiladi. G'ijjakda ijro etiluvchi yakkaxon asarlar asosan baxshilarning cholg'u asariga aylantirilgan qo'shiqlaridir.

Qoraqalpog'istonning damli cholg'ulari ham turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Nay, bo'lamon, loydan yasalgan xushtak (saz sirnay), qamish sirnaylar damli cholg'ular guruhini tashkil etadi.

An'anaviy cholg'u ijrochiligida **bo'lamon** cholg'usi alohida o'ringa ega. Bu cholg'u daraxtdan yasaladi. Cholg'uning uzunligi 30 mm dan bo'lib, 8 ta teshik ochilgan. Pastki qismi biroz kengaytirilgan. Bo'lamonning ovozi past va bo'g'iq. Ko'pincha bo'lamon dutor va girjak bilan ansambl tarzida qo'llaniladi. Bu cholg'u Qoraqlpog'iston va Xorazmda tarqalgan.

Dap (doyra) - urma cholgʻu boʻlib, u ifoda vositalarining kengligi bilan ham kasbiy darajadagi, ham havaskor musiqachilar tomonidan sevib ijro qilinadi. Qoraqalpogʻistonda dap asosan joʻrsoz sifatida qoʻllaniladi. Aylana shaklidagi halqaga teri tortiladi. Halqaning katta va kichikligi hamda terining sifatiga qarab cholgʻuning tembri va ovoz chiqarish xususiyatlari oʻzgaradi. Halqaga temir shaqildoqlar taqiladi. Ijro vaqtida shaqildoqlar oʻziga xos tovushlar chiqaradi. Dapning oʻrtaliq qismiga urilganda nisbatan pastroq, chetiga urilganda esa balandroq tovush chiqadi. Anna shu ikki turdagi tovushga Sharqda mashhur boʻlgan usullar boʻysunadi.

Changqoʻbiz qadimiy va asosan ayollar ijodi bilan bogʻliq cholgʻu hisoblanadi. Changqoʻbiz metallardan yasalanadi. Qadimda suyakdan va yogʻochdan yasalgan turlari mavjud boʻlgan. Yarim yoysimon shakldagi temir boʻlagiga tilcha oʻrnatiladi. Ijrochi cholgʻuni ogʻzida ushlab turadi va barmogʻi bilan tilchani chertib turadi. Kuylarni ijro etishda havo harakati ogʻiz bilan yoʻnaltirilib turiladi. Hosil boʻlgan tebranuvchi tovushlar juda boy tembr va muayyan diapazon hosil qilib, ijro etilayotgan kuylarga oʻziga xosligini belgilaydi. Tuzilishi jihatidan sodda boʻlganligi uchun bu cholgʻu bolalar tomonidan ham chalinadi.

Tayanch soʻzlar: Qoraqalpoq xalq cholgʻulari, cholgʻu kuylari, xalq sozandalari

Nazorat savollari:

1. Qoraqalpoq xalq cholgʻularining paydo boʻlish tarixi xususida gapiring.
2. Qoraqalpoq xalq cholgʻularining oʻziga xos qirralarini aytib bering.
3. Qoraqalpoq xalq cholgʻu kuylari xususida soʻzlang.
4. Qoraqalpoq xalq sozandalarini bilasizmi?

17-MAVZU


QORAQALPOQ JIROVCHILIK AN'ANALARI. DOSTONLARI.

Reja:

1. Qoraqalpoq xalq dostonchilik ijodiyoti
2. Qoraqalpoq xalq dostonlarining o'ziga xos xususiyatlari
3. Qoraqalpoq xalq jirovchilik san'ati
4. Mashhur qoraqalpoq jirovlari

Adabiyotlar:

1. Адамбаева Т. Революция ғашекемги қарақалтақ музикаси. Нукус, 1976.
2. Азимова А.Н. Звуковой мир каракалпаков. Ташкент, 2008.
3. Alpamis (dostondan parchalar). Toshkent, 1999.
4. Ayimbetov Q. Xalq danalig'i. Nukus, 1988.
5. Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. Л.-М., 1974 г.
6. Жираунамалари (тўплам). Нукус, 1991.
7. История Каракалпакской АССР (С древнейших времен до наших дней). Ташкент, 1986.
8. История каракалпакской литературы (С древнейших времен до 1917 г.). Ташкент, 1994.
9. Каракалпакские народные песни. М., 1959.
10. Qaraqalpaq xalq namalari (Kirish so'zi) // O'zbek xalq muzikasi. VIII jild. Toshkent, 1959.
11. Qurbonov X. Qoraqalpoq jirovchilik san'atining musiqiy xususiyatlari. Diplom ishi. 1998. O'zDK kutubxonasi.



Qoraqalpoq xalqining musiqa madaniyatida epik an'ana va qo'shiq ijrochiligi muhim ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyoning barcha xalqlari kabi, Qoraqalpog'istonda ham epik ijodiyot doston janri orqali namoyish bo'ladi. Doston o'zida nasr, she'r va musiqani mujassam etuvchi sinkretik asardir. Dostonlar qadimgi zamonlarda paydo bo'lib, uning turli variantlari xalq og'zaki an'anasi orqali bizning davrimizgacha yetib kelgan. Ko'pgina dostonlarda tarixiy voqe'liklar, xalqning falsafasi, hayot tarzi, ichki kechinmalari aks etgan.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, zamonaviy O'zbekiston hududida er. av. V-IV asrlarda kuchli rivojlangan og'zaki an'anaadagi adabiy ijodiyot mavjud bo'lgan ekan. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bizning davrimizgacha og'zaki tarzda yetib kelgan dostonlar aslida doston ijrochilarining (baxshilarning) ijodiy mahsuli hisoblanadi. Yana shuni ham Ta'kidlash joizki, mualliflar tomonidan yaratilgan yozma adabiyotdagi ayrim dostonlarning xalq orasida tarqalgan og'zaki variantlar asosida ijod qilingan.

Qoraqalpoq xalqining ma'naviy hayotiga oid qadimiy davrlardagi yodgorliklari aksariyat hollarda bizgacha yetib kelmagan. Faqatgina og'zaki an'anaadagi adabiyot qatlamiga tegishli mualliflarning nomlarigina saqlanib qolgan. Masalan, XIV-XV asrlarda Soppasli Sipira jirov, Asan-qayg'i, Jirenshe-chechan kabi shoir va baxshilar yashab ijod qilganlar. Nomlari qayd etilgan ijodkorlar qoraqalpoq adabiy ijodiyotining asoschilari hisoblanadi. Ular yaratgan dostonlar, qo'shiqlar, afsonalar hozirgi davrgacha xalq orasida saqlanib kelinmoqda.

XVIII - XIX asrlarda Jiye jirov, Kunxo'ja, Ajiniyaz, Berdax, O'tesh kabi xalq shoirlari ijod qilganlar. Bu davrda doston janri yozma adabiyot shakllanish jarayonlariga ta'sir ko'rsatganligi ma'lum bo'ladi. Ajiniyazning "Bo'zatov" poemasi, Berdaxning "Ernazarbiy", "Aydos biy", "Raushan" va boshqa dostonlari xalq mehrini qozongan. An'anaga ko'ra, shoirlar xalq dostonlarining targ'ibotchisi, termalarni kuylovchi jirov, baxshi hamda qissaxon sifatida ham namoyon bo'ladi. O'z-o'zidan ma'lumki, ularning aksariyat asarlari o'qish emas, balki kuylash uchun mo'ljallangandir.

Dostonchi va shoir Jiye jirov (1830-1884) qoraqalpoq she'riyatining otasi deb tan olingan.

Berdax (1827-1900)ning ijodiy merosi qoraqalpoq ma'naviy merosida alohida o'ringa ega. U she'riyatni yangi mavzular bilan boyitdi.

Bo'lajak shoir Orol bo'yida yashovchi baliqchi Qarg'aboy oilasida dunyoga keldi. Unga Berdimurod deb ism qo'yildi. Onasi o'g'lini erkalab Berdax deb chaqirardi. Shu nom bilan u she'riyat dunyosiga kirdi. Berdax yoshlik davridan xalq og'zaki adabiyotini va Sharq mumtoz she'riyatini o'rgandi. Berdaxning shoir sifatida shakllanishida uning zamondoshlari bo'lmish Kunxo'ja va Ajiniyazlar turtki bo'ldilar. Berdaxdagi kuylash iste'dodi o'z asarlarini xalqqa yetkazish uchun juda qo'l keldi. Xalq orasida u "Berdax shoir" va "Berdax baxshi" nomi bilan mashhurlashdi. Berdax barcha to'ylar, katta xalq bayramlarining sevimli mexmoni edi. Berdax o'z asarlarini dutor jo'rligida ijro qilardi.

Tadqiqotchilar zamonaviy qoraqalpoq jirov va baxshilarining repertuarida 50 dan ortiq dostonlar borligini aniqladilar. Ular orasida nafaqat Markaziy Osiyo, balki Yaqin SHarqda keng tarqalgan "Go'ro'g'li", "Alpomish", "Edigey", "Oshiq G'arib" kabi dostonlar va mahalliy xalq orasida tarqalgan "Qirq qiz", "Maspatsha", "Shar'yar" (Choryor) dostonlari uchraydi.

"Alpamis" - qahramonlik eposining yorqin namunasi. Tadqiqotchilarning fikricha, "Alpamis" epik janr sifatida dastlab Sirdaryoning quyi oqimi va Orol bo'yida o'zbek, qoraqalpoq va qozoq xalqlari shakllanmasdan avval yuzaga keladi.

Og'zaki an'anadagi ijodiyot namunalarining qachon paydo bo'lganligini aniqlash nihoyatda murakkab masaladir. Folklor asarlari og'zaki tarzda yashab, bizgacha ancha o'zgargan qiyofada yetib keladi.

"Alpamis" dostoni bir necha yuz yillar davomida og'zaki an'ana jarayonida yashab, turli o'zgarishlarga uchragan. Doston o'zining shakllanishi jarayonida ba'zan qisqartirilgan, ba'zan esa turli xil o'zgarishlarga uchragan. SHu sababli bu dostonning yaratilgan joyi va vaqti haqida turli fikrlar mavjud. Masalan, A.K.Borovkovning fikricha, "Alpamis" qo'ng'iroq elining dostoni hisoblansa, V.M.Jirmunskiyning fikriga ko'ra qadimiy qahramonlik qo'shiqlar yoki ertaklar asosida shakllangan Alpamis haqidagi doston SHayboniyxonning ko'chmanchi o'zbeklari (XVI asr) tomonidan Janubiy O'zbekistonga olib kelingan bo'lib, shu tariqa

o'zbeklar, qoraqalpoqlar va qozoqlar orasida keng tarqala boshlagan. X.T.Zarifov o'zgacha fikrni ilgari suradi, ya'ni "Alpamis" dostoni mo'g'ullar bosqinchiligidan oldin Sirdaryoning quyi oqimi va Orol bo'yida turkiyzabon ko'chmanchi qo'ng'iro't qavmining ijod mahsuli hisoblanadi.

"Alpamis" dostonida qo'ng'iro't elining rivojidadagi urug'-qabilachilik tadrijiyot bosqichlari o'z aksini topgan. "Alpamis"da botirlik, muhabbat, sadoqat, oiladagi tinchlik kabi mavzular rivojlantirilgan. Bu doston jirovlar tomonidan qo'biz (o'zbek baxshilari tomonidan do'mbira) jo'rligida ijro etiladi. Asarda she'riy qismlar proza matnlari bilan almashinib keladi.

Sharqda keng tarqalgan dostonlarning yana biri "Go'ro'g'li" turkumidir. "Go'ro'g'li" dostoni qoraqalpoq xalqida XVIII asrning o'rtalaridan tarqala boshlagan. Aslida bu dostonning vatani Ozarbayjon hisoblanadi.



Qoraqalpoq xalqining musiqiy durdonalaridan biri - "Qirq qiz" qahramonlik dostonidir. Ushbu dostonning mazmunidan kelib chiqib shuni ta'kidlash mumkinki, asarning asosiy g'oyaviy

mohiyati qoraqalpoq xalqining qadim etnogenetik qatlamlari bo'lmish sak-massaget qabilalariga borib taqaladi. Bu qabilalarda matriarxal an'analar ustun turgan. Poemada qizlardan tashkil topgan jangovar askarlar guruhi bo'lib, ularni go'zal Guloyim boshqaradi. Botir qiz timsoli ko'pgina boshqa xalqlarda mavjud bo'lib, ammo O'rta Osiyoda bunday timsol faqatgina qoraqalpoq xalqining folklorida mavjud. Ushbu dostonning dastlabki ijrochisi, hattoki ba'zi olimlar tomonidan muallifi sifatida Jiyen jirov tahmin qilinadi. "Qirq qiz"ning ijrochilari odatda doston yakunida Jiyen jirovni eslab o'tadilar. Jiyen jirov oqsoqol jirovlardan bo'lib, uning faoliyati XVIII asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi.

Shunisi qiziqarlilik, jangovar qiz timsoli nafaqat dostonda, balki qoraqalpoq kelinlarining liboslarida ham saqlanib qolgan. Qoraqalpoq milliy liboslaridan biri, ayollarning "Ko'k ko'ylak" deb nomlanuvchi ko'k rangdagi ko'ylagi kashta bilan bezatiladi. Kashtadagi asosiy bezaklar "Sovut naqshi" deb nomlangan. Bundan tashqari qoraqalpoq kelinning bosh kiyimi "Saukele" ham dubulg'ani eslatadi.

Guloyim timsolida xalqning go'zallik, botirlik, aql-zakovat va erkinlik haqidagi orzulari jamlangan.

Qahramonlik mavzusidagi eposlardan biri "Edige" - bosh qahramon "oq mang'it" ulusidan bo'lib, u Oltin O'rdaning inqirozga kelishi davridagi asosiy siyosiy shaxslardan biri, mohir sarkarda sifatida namoyon bo'ladi.

"G'arib Ashiq" dostonlarning lirik-epik tipdagi yorqin namunalaridan biridir. Ushbu doston o'zining yuksak badiiy mukammalligi bilan qoraqalpoq xalqining yetuk asarlaridan hisoblanadi.

"G'arip Ashiq" xalq she'riyatining mukammal namunasi bo'lib, unda go'zal lirika bilan birgalikda falsafiy, satirik mavzudagi she'rlarni ham o'qish mumkin. Bu doston qoraqalpoq baxshilari tomonidan sevib ijro etiladi. "G'arip Ashiq" dostonining tarkibiga xalqda mashhur bo'lgan "Aruxan", "Idris", "Dardinen", "Ush to'p" singari kuylari kiritilgan.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, "Oshiq G'arib" dostoni (qoraqalpoq varianti - "Garip Ashiq") - mualliflik ijodiyot natijasidir. Ushbu doston XVI asrda yashagan Tabrizlik G'arib ismli shoirning she'rlari asosida ijod qilingan. Qoraqalpoq xalqiga

doston XVIII asrning oxiri - XIX asrning boshlarida kelgan. Eposning bosh g'oyasi - G'arib va SHoxsanam muhabbatidir.

"Mastpatsha" - qoraqalpoq xalqining sevimli dostonlaridan biridir. Xuddi "Qirq qiz" singari bu doston mavzusi qoraqalpoq xalqiga tegishli bo'lib, boshqa xalqlarda bu syujet rivojlantirilmagan. Boshqa dostonlardan farqli ravishda "Mastpatsha" o'zining qahramonlik va lirik xarakteri bilan ajralib turadi. "Mastpatsha"ning nisbatan mukammal varianti Qiyas jirov Xayratdinovdan yozib olingan. Doston deyarli 10 ming misradan iborat. Bu asarda qoraqalpoq xalq she'riyatining til boyligi va imkoniyatlari o'ziga xos tarzda yorqin namoyon bo'lgan.

"Mastpasha" dostonida qoraqalpoq xalqining til boyligi va imkoniyatlari yorqin namoyish etilgan. "Mastpasha" syujetiga bosh qahramon va uning yaqinlarining yovuz kuchlar bilan kurashi asos qilib olingan. Boshqa dostonlarda qahramonlar bosqinchilar bilan kurashsalar, "Mastpasha" dostonida qahramon baxt va muhabbat o'g'rilari bilan kurashadi.

Qoraqalpoq xalq epik ijodiyotida Ajiniyazning "Bozatov" poemasi alohida o'ringa ega. Bu asarda 1858-1859 yillardagi qoraqalpoqlarning Xiva xonligiga qarshi kurashi aks ettiriladi. Poema o'z mazmuni bilan qoraqalpoqlarning fojeaviy o'tmishini aks ettiruvchi yorqin sahifalarga aylanadi.

Qoraqalpoq dostonlari O'rta Osiyoning boshqa xalqlaridagi kabi she'riy va nasriy bo'limlaridan iborat. Epik poemaning dramaturgiyasini tuzilishida bu bo'limlar bir xil ahamiyat kasb etadi.

Nasriy qismda qahramonlar hayotidagi asosiy voqealar haqida bayon qilinadi (sarguzashtlar, jangnomalar). Monolog, dialog va bir nechta qahramonning o'zaro so'zlashuvi asarga dramatik xarakter bag'ishlaydi. Jirov o'zini xikoyachi sifatida mohirona ko'rsatadi: uning nutqi ifodaviyligi va o'tkirligi bilan ajralib turadi. Baxshi ko'pgina maqol va matallar qo'shib gapiradi. Bu albatta tinglovchini o'ziga jalb qiladi. Tinglovchi o'zini doston voqealarida ishtirok etayotgandek xis qiladi. Dostonning bu qismida jirov ko'p improvizatsiya qiladi, lekin an'anaviy syujet andozasidan tashqariga chiqib ketmaydi.

Kuychanlik va usulga moslashish kabi qirralar qoraqalpoq dostonlarining nasriy qismiga xosdir. Bunday holat dostonlarda musiqiy ibtido katta ahamiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Dostonlarning she'riy qismlari qo'shiq shaklida ijro etiladi. Bu qismlarda qahramonning ichki dunyosiga urg'u beriladi: Ishqiy kechinmalar, dushmanga bo'lgan g'azab va boshqalar. Albatta musiqa she'riy qismlarda yetakchi ahamiyat kasb etadi va ijroning emotsional kayfiyatini yanada bo'rttirib namoyish qiladi. Dostonlarning hajmi ancha katta bo'lishiga qaramay (taxminan 5 mingdan 20 ming misragacha) ularning she'riy asosi deyarli o'zgarishlarga uchramagan. Dostonlarda xalq she'riyati tamoyillariga tayaniladi. Dostonlarning she'riy qismlari turkiy xalqlarga xos barmoq (sillabik) vaznida keladi.

Qoraqalpoq xalqining epik an'analari jirov va baxsi (baxshi)lar tomonidan rivojlantiriladi. Jirov va baxshilar epik dostonlarining targ'ibotchilari va saqlovchilari sifatida xalq orasida katta hurmatga sazovor bo'lishgan. Jirov va baxshilarning ijodi faqatgina ijro mahorati bilangina emas, balki plastik ifodaviy tomoni ya'ni mimika, tana xarakati bilan ham o'lchanadi.

Jirov va baxshilarning san'ati ulkan kasbiy mahoratni talab qiladi. Buning uchun shogird ustozning qo'lida uzoq vaqt davomida tahsil oladi. O'quv jarayonida shogird albatta ustoz bilan ijodiy safarlarga boradi. Bunday safarlarda shogird ham o'zini sinash maqsadida bir nechta termalar, dostonlardan kichik parchalar ijro qiladi. Ma'lum vaqt davomida shogird o'z mahoratini oshirib boradi, repertuarini to'ldiradi va ustozining duosini olib san'atkor sifatida faoliyat boshlaydi. Ko'p hollarda ijodiy mahorat ham meros sifatida ustozdan shogirdga, avloddan-avlodga o'tib boradi.

Elga nomi mashhur bo'lgan jirov yoki baxshi atrofida albatta unga ergashuvchilar va shogirdlar to'planadi. Shunday tarzda ma'lum yo'nalish va maktablar yuzaga keladi. Nurabilla Qorajon o'g'li, Erpo'lat Ramberdi o'g'li kabi jirovlar, Aqimbet, G'arib-niyoz, Arzi, O'rinboy va Muso kabi baxshilarning ijro maktablari xalqqa mashhur bo'ldi.

Jirov va baxshilarning ijodiyoti ko'p umumiy qirralarga ega bo'lsa-da, farqlanuvchi tomonlari ham mavjud.

Doston ijrochiligida tomoqda tovush hosil qilishning ikki turi shakllangan. Birinchisi "jirlau" (ichki, bo'g'iq ovoz) deyiladi. Bu o'ziga xos "tomoqdan kuylash" uslubi deyiladi va jirovlar ijrochiligi bilan bog'liq. Ijro qilish jarayonida jirov turli uslublarni namoyish

etadi: nasriy qismlar tabiiy ovoz bilan, musiqiy-she'riy bo'limlar "tomoqdan kuylash" yo'li bilan ijro qilinadi.

Baxshilar ijodiyotiga xos bo'lgan yana bir ijro qilish uslubi mavjud bo'lib, bunda tovush chiqarish tabiiy holatda kechadi. Bu ijro uslubi ochiq ovoz orqali amalga oshiriladi. Ochiq ovoz bilan ijro etishda katta diapozonli va keng nafasli kuylar ijod qilish uchun imkoniyat yaratiladi.

Qahramonlik dostonlarining asosiy saqllovchilari jirovlaridir. Pand-nasihat, ozodlik uchun kurash, mardlik jirovlar ijodidagi bosh mavzulardir. Jirov qo'bizda o'ziga jo'r bo'ladi. Qo'bizning o'ziga xos tembri "tomoqdan kuylash" uslubiga ma'lum ma'noda hamohangdir. Shu tarzda jirov o'ziga xos ibtidoiy tovushlar dunyosini "yaratadi". Qo'bizda xalqda mashhur bo'lgan xalq kuylari ham ijro qilinadi, ular doston mazmuni bilan uyg'unlashtirilgan holda qo'llaniladi. Bu kuylar "nama" (arabcha na'ma so'zidan) deb yuritiladi. Ular diapozon jihatidan kichik bo'lib, tuzilishi ham sodda. Jirovlar keng qo'llaydigan asosiy qo'shiq janri "terme" deyiladi. Bu janr o'zining kuychan-rechitativ xarakteri bilan ajralib turadi. Bunda har bir kuy misrasiga bitta she'riy misra to'g'ri keladi.

Dostonlarda na'ma (aytim kuylari)ning soni chegaralangan. Bu kuylar doston davomida bir necha bor takrorlanadi va variatsiya qilinadi. CHolg'u kuylar birlashtiruvchi ahamiyatga ega. Dostonga tushish oldidan ijro etiladigan termalar, to'lg'ovlar qo'biz jo'rligida kuylanadi. Nasriy qismi esa hikoya tarzida bayon etiladi.

Doston nafaqat xalq og'zaki ijod namunasi, balki ijrochilik an'analarida avloddan-avlodga o'tib, davrlar osha sayqallanib boruvchi jirov va baxshilarning ijodiy mahsulidir. Ijrochilik mahoratining darajasi hattoki tinglovchilar tomonidan dostonning badiiy qiymatini baholashga asosiy omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Yetuk ijrochi ustoz san'atkorlardan biri bo'lmish Qurbonboy jirov Tojiboevning (1876-1958) o'rni ahamiyatlidir. Ko'pgina jirov va baxshilar repertuarida to'rttadan doston bo'lsa, Qurbonboy jirov Tojiboev repertuarida dostonlar soni yigirmataga yetadi. Bu jirovdan o'n yettita doston yozib olingan. Yozib olingan dostonlarning yettitasi nashrdan chiqqan. Qurbonboy jirov dostonlar, qo'shiqlar, maqol, afsona va termalarni nafaqat yodida saqlay oladi, balki xalq ijodiyoti namunalarini qayta ishlab, yangi

variantlarini ham yaratadi. Q.Tojiboev badihago'y ijodkor bo'lib, o'zi ham qo'shiq va kuylar yaratgan. Jirovning ijodiy iste'dodi qoraqalpoq xalqining epik musiqiy merosini yanada boyitdi va uning keyingi rivojlanishi uchun turtki bo'ldi.

Qurbonboy jirov Tojiboev kambag'al dehqon oilasida tavallud topdi. Yoshlik davridan u qiyin sharoitlarda yashadi. U boyning uyida cho'pon bo'lib ishlardi. Bir kuni uni qo'shiq aytayotganini eshitgan boy xayratlanadi. "Bunday qo'shiq ijro etishni qaerdan o'rganding?" - degan savolga, jirovlar an'anasiga ko'ra: "tushimda" deb javob beradi. Qurbonboyning qo'shiq va aytimlari xalq orasida keng tarqalib, uni bayramlar va bazmlarga taklif qila boshlaydilar. 18 yoshga to'lganida Qurbonboy Buxorodagi mashhur Xolmurot jirovga shogird tushadi va olti yil davomida ustozning uyida xizmatda bo'lib, o'n bitta dostonni yod oladi. Ushbu dostonlar orasida "Qirq qiz", "Alpamis", "Qo'blon", "Shirin va Sheker" ham bor edi. Qobuz ijrochiligini esa Qurbonboy jirov Nurabilla jirovdan o'rgangan edi. Qurbonboy jirov umrining so'nggi kunlarigacha ijrochilik faoliyati bilan shug'ullangan.

Qoraqalpoqlarda baxshi (baqsi)lar jirovlardan farqli o'laroq, liro-epik (yoki ishqiy-lirik) dostonlarning ijrochilari va targ'ibotchilari sifatida namoyon bo'ladi. Baxshilar doston ijro etishda yakka dutor yoki dutor, g'ijjak, bo'lamon cholg'ularidan tuzilgan kichik ansambl jo'rligidan foydalanishadi.

Bu ijod turining ifodaviyligi va ta'sir kuchi ko'proq musiqa vositalari bilan bog'liqdir. Kuchli va erkin ovoz bilan ijro etiluvchi qo'shiq bo'limlari diapozon kengligi, kuy rivojlanganligi, boy avjlari bilan ajralib turadi. Doston ijrosi davomida borgan sari baxshi o'z cholg'usini yarim, bir parda yuqori sozlaydi. Bu tarzda o'zgarish dostonni tinglovchi tomonidan qabul qilish kuchini orttiradi.

Dostonning syujetidan kelib chiqqan holda qo'shiq bo'limlari lirik, dramatik yoki raqsobp xarakterda bo'lishi mumkin. Baxshi har bir dostonda o'n beshtadan o'ttiztagacha aytim kuylarini ishlatishi mumkin. Musiqiy material tanlash uchun baxshilar xalq ijodiyoti merosiga murojaat qiladilar, ya'ni turli janrlardagi xalqqa ma'lum va mashhur bo'lgan kuy va ularning variantlaridan foydalaniladi. Baxshilar yangi kuylar ham yaratishlari mumkin. Agar u yoki bu kuy xalq orasida mashhur bo'lib ketsa, kuy yaratuvchining nomi bilan aytib yuritiladi. Dostonlarning qo'shiq

bo'limlari o'z ifodaviyligi tufayli alohida ijro etilishi ham mumkin. Ko'p hollarda tinglovchi dostonning syujetini bilgani uchun bu qo'shiqni butun dramaturgiyaning qismi sifatida qabul qiladi.

Baxshining ijro uslubi uning ijro va improvizatsiya mahorati, u yoki bu ijodiy maktab vakili ekanligi bilan aniqlanadi.

Markaziy Osiyo xalqlarining san'atidagi mavjud muhim hodisa, bu badiiy an'analarning aniq bir milliy chegaralar bilan cheklanmaganligidir. O'zaro ta'sir etish jarayonlari ayniqsa musiqiy ijodiyotda kuchlidir. Xorazm vohasining dostonchilik san'ati bunga yorqin misol bo'la oladi. Masalan, o'zbek va turkman baxshilarining ijodidagi "Go'ro'g'li" dostoni qoraqalpoq versiyasining shakllanishiga ham ma'lum ta'sirini ko'rsatgan.

Qoraqalpoq baxshilarining yorqin namoyandalaridan biri Japaq (Jabborbergan) baxshi Shomurotovdir. U Qoraqalpog'istonning Shoraxan tumanidagi qipchoq ovulida 1892 yili tug'ilgan. Yoshlik yillaridanoq u Juman va Shernazar kabi atoqli baxshilarni tinglagan edi. Bu baxshilar dutor jo'rligida lirik qo'shiqlar, dostonlardan parchalar ijro etishgan edi. Uning birinchi ustози Otajon baxshi bo'ldi. Japaq Shomurotovning ovozi kuchli va yoqimli bo'lgani uchun xalq orasida tez nom chiqardi va uning ismiga baxshi so'zi qo'shilib aytiladigan bo'ldi. Barcha jirov va baxshilar singari Japaq baxshi ham hududdan-hududga ijodiy ishlar bilan yurgani uchun ko'pgina boshqa jirov va baxshilar bilan ijodiy muloqotda bo'lib, o'z repertuarini boyitib borgan.

Qoraqalpoq baxshichilik ijodiyotini saqlash va rivojlantirishda Kenjebay baxshi Tileumuratov tomonidan tashkil etilgan "Muxalles" dutorchilar ansamblining ahamiyati katta bo'ldi. 1970 yillarda an'anaviy doston ijrochiligi ana shu ansambl faoliyati natijasida qayta tiklandi. Ansambl negizida Kenjebay Tileumuratov dutorchi-sozandalar, bo'lamon va g'ijjak ijrochilari maktablarini shakllantirdi. Buning natijasida bir qancha baxshilar yetishib chiqdilar. Ular o'z ustozlarining ijodiy an'alarini davom ettirdilar. Ular orasida Turg'unboy Qurbonovning nomi ajralib turadi. U o'z ustozidan "fotiha" olgandan keyin, Turg'unboy baxshi nomini olgan.

Qoraqalpoq madaniyatida ayol baxshilarning ijodi alohida qiziqish uyg'otadi. Ko'pgina musulmon xalqlarida ayollarning san'atkor bo'lishi ma'lum darajada taqiqlanadi. Ko'chmanchi

xalqlarda esa bunday chegaralanish nisbatan kamroq seziladi. Qoraqalpoq musiqa madaniyatida bir nechta ayol-baxshilarning nomlari saqlanib qolgan. Xalq ularga "Qiz-baxshi" nomini bergan. Ana shunday mashhur qiz-baxshilardan biri shoir Berdaxning Xurliman ismli qizi (1861-1906) bo'lgan. Ko'p qiyinchiliklarga bardosh berib, u o'z otasining ijodiy merosini targ'ib etgan. Xurlimanning o'g'li Qorajon ham onasidan ijrochilik sirlarini o'rganib, xalq orasida nom chiqardi.

Ayollarning baxshichilik san'ati ildizlari teran bo'lib, hozirgi kunda zamonaviy madaniyat tarkibida bu an'analar davom ettirilmoqda. Bugungi kunda qiz-baxshilardan Ziyoda Sharipova, Gulnora Allamberganova va Qalbiyke Uzakberganovlarning ijodi nafaqat qoraqalpoq xalqi, balki xorijiy davlatlarga ham ma'lum bo'lib bormoqda.

Turk xalqlarida turlicha nom olgan qahramonlik doston ijrochilari ("O'zon", "Baxshi", "Aqin", "Shoir") qoraqalpoqlarda "jirov" deb ataladi. Bu atamaning kelib chiqishi "jir" so'zi bilan bog'liqdir.

Jirov so'zi o'rta asrlar klassik adabiyotida ham uchraydi. Masalan, Lutfiyning "Gul va Navro'z" dostonida, o'zbek mumtoz adabiyotining yorqin namoyandasi Alisher Navoiy asarlarida ko'plab uchraydi.

Qoraqalpoq jirovlarining asbobi qo'bizdir. Qo'bizni A. Fitrat yaxshi ta'riflaydi: "Eng eski turk cholg'usidir. Qo'buzning gavdasi bir quyruq, bir chanoq, bir sop, bir-da boshdan iboratdir. Qo'yrug'ining usti qalin teri bilan qoplanadir, chanog'ining usti ochiq qoladir. Quyruq bilan chanoqning uzunligi sop bilan boshning uzunlig'iga barobardir. Qubuzning ikkita tori bo'ladi, har tori bir to'plam qildan iboratdirkim, ot quyrug'idan olinadir. Birinchi torining qillari ikkinchikidan ozdir. Turklarning ibtidoiy zamon shoirlari bo'lg'an baxshilar-o'zonlarning cholg'ulari qo'buz edi" (Fitrat. "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi").

Hozirgi kunda qoraqalpoq jirovlari orasidagi iste'moldagi qo'biz cholg'usining shakli quyidagicha: u asosiy ikki bo'lakdan, chanoq va dastadan iboratdir. Chanog'i noksimon tarzda bo'lib, ichi o'yilgan va pastki burchagi tuya yoki mol terisi bilan qoplanadi, ustki qismi ochiq qoladi. Torlari otning yolidan (dum) olingan bo'ladi. Qo'bizning kamoni - qattiq tayoqdan (jiyda, o'rik) yasaladi va unga ham otning qilidan tortiladi.

Qoraqalpoq jirovchilik san'ati Qo'rqit otadan boshlanadi. Qozoq va qoraqalpoq xalqlarida Qo'rqit jirovlarning piri hisoblanadi. Q.Ayimbetovning "Xalq donoligi" kitobida Qo'rqit ota qanday qilib qo'biz yasaganligi haqida rivoyat keltirilgan: "Qo'rqit ota yog'ochdan qo'biz yasab, kuy chalishni orzu qilibdi. Qo'bizga mos yog'och topolmay ko'p ovora bo'libdi. Yasalgan qo'bizlari ko'ngildagidey chiqmabdi. Qo'rqitning qo'biz yasash niyatida yurganligini shaytonlar ko'rib, unga yasagan cholg'usini ko'rsatishini so'rabdi. Lekin Qo'rqit ularga cholg'uni ko'rsatmabdi. Qo'rqit o'rmonda yurib, shaytonlarni gapini eshitib qoladi. Shaytonlar Qo'rqit haqida bunday deb gaplashayotgan edi: Qo'rqit ota juda ajoyib ishni boshlagan ekan-da, oxiriga yetkaza olmabdi. Agarda o'rmondagi to'ng'iz suykanib yiqitgan jiydaning yog'ochini qo'bizning gavdasini yasab, uning chanog'ini tuyaning bosh terisi bilan qoplab, unga otning dum yolidan olib qil qo'ysa va uning tagiga eski suv qovoqdan xarrak yasab qo'ysa, juda yaxshi cholg'u bo'lardi. Qo'rqit ota shaytonlarning bu so'zini eshitib, tez orqaga qaytib, shaytonlar aytganiday qilib qo'biz yasagan ekan. Mana shu sababdan Qo'rqit ota qo'bizning piri bo'libdi". (Q.Ayimbetov. "Xalq danalig'i" N.1998.73-b.)

Afsonaga aylangan shaxslardan yana biri - Soppasli Sipira jirovdir. Uni filolog olimlar N.Davqoraev va Q.Ayimbetovlar qoraqalpoq jirovchilik maktabining asoschisi sifatida tan oladi. Olimlar Soppasli Sipira jirovning XIV asrda yashaganligini ta'kidlaydi.

XV asrda so'zga chechanligi, donishmandligi bilan xalq e'tiborini qaratgan Jirenshe chechan va Qaztug'on jirovlaridir. Ularning ham ismlari qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, no'g'ay, boshqird folklorida ma'lumdir.

XVI asrga kelib, O'rta Osiyo tarixida qoraqalpoqlar atamasi vujudga keldi. Lekin hali ham turk xalqlarining o'zaro bo'linish jarayonlari davom etardi. SHu sababli bu davrda yashagan ma'lum jirov-shoirlardan xech kim o'zini qoraqalpoq, qozoq yoki qirg'iz deb tanishtirmaydi. O'zlarini no'g'ayli deb atashadi. Bunday jirov-shoirlardan XVI asrda yashagan Dospanbet jirov va Shalkiyizning nomlari tilga olinadi.

XVII asr qoraqalpoqlarining Turkistonga ko'chib kelishi bilan "Turkiston davri" deb nom olgan va xalqning madaniy hayotida

o'zining tarixiy to'lg'ovlari bilan ko'zga tashlangan jirov Muyten (tax. 1570-1650 yy.) hisoblanadi.

XVIII asr boshida poema darajasidagi to'lg'ovlar yozib qoldirgan buyuk shoir Jiye jirov edi. Jiye jirovning hayoti qoraqalpoqlarning Turkistondan Xorazmga ko'chib o'tishi va Xiva xonligi qaramligida bo'lishi davriga to'g'ri keladi.

Aynan Jiye jirovdan boshlab qoraqalpoq jirovchilik shajarasi, ya'ni ustoz-shogird tizimi yaqqoroq ko'zga tashlanadi. Yuqorida ismlari keltirilgan jirovlar o'z davrida bo'lib o'tayotgan voqealarga jirov-shoir, botir, donishmand maslahatchi sifatida qatnashganligi tufayli, asrlar osha nomlari unutilmasdan kelgan.

Qoraqalpoq jirovlari ijodiyotida dostonlardan keyingi janr bu to'lg'ov va termalardir. Bu ikkala adabiy janr hali to'la o'rganilmaganligi uchun farqini aytish qiyin. Folklorshunos olim Q.Ayimbetov terma-to'lg'ovlarni quyidagicha tushuntiradi: "Xalqqa ta'lim-tarbiya, aql-nasihat aytuvchi, hajm jihatidan qisqa shakl terma deb atalsa, muayyan bir voqeani so'zlovchi uzun shakli to'lg'ov bo'ladi. To'lg'ovlarni "tarixiy jir" deb atash mumkin. Chunki jirovlar o'z to'lg'ovlarida ko'pincha tarixiy voqealarni so'zlaydi.

Qoraqalpoq to'lg'ovlarini 3 guruhga ajratish mumkin: 1) umumiy to'lg'ovlar; 2) tarixiy to'lg'ovlar; 3) muallifi saqlangan to'lg'ovlar.

Yana bir qiziqarli tomoni shundaki, to'lg'ov sof adabiy janr hisoblansa ham, xalq nazdida musiqiy tushuncha sifatida ham tus olgan.

Shu kungacha qoraqalpoq jirovlari orasida shogird tayyorlash an'anasi shakllangan bo'lib, u quyidagicha tasvirlanadi: Jirovchilik hunariga talpingan odamlar atoqli jirovlarga shogird tushishni orzu qilgan. Jirovlar mana shunday odamlarni o'z atrofiga yiqqan. Jirovlar shogirdlarga o'z san'atini birdaniga o'rgatmagan, ustoz el oralab jirovchilik qilganda unga ergashib, ustoziga xizmat qilgan. Bu jarayon uzoq vaqt davom etgan. Ustoz bo'sh vaqtida o'z dostonini mazmunini gapirib bergan. O'z ustozini va undan oldin o'tgan jirovlar haqida, qo'biz va qo'biz namalari haqida afsonalar gapirib bergan. Shogird ustozining uy - xo'jalik xizmatlarini ham bajargan. Oradan yillar o'tib, ustoz shogirdga qo'biz yasattirgan yoki ustozlardan meros cholg'uni sovg'a qilgan. Shogirdga meros qo'bizni topshirish tantanali ravishda odamlar oldida o'tgan. Ustoz

unga qo‘biz chalishni o‘rgata boshlagan. Ayrim to‘ylarda dostonlardan parchalar va terma to‘lg‘ovlar aytilgan. Shu tarzda bir necha sinovlardan o‘tkazib, ustoz shogirdiga mustaqil ijrochilik qilishga ruxsat bergan.

Qoraqalpoq jirovchilik san‘ati eng qadimiy an‘analardan hisoblanib, uning ildizlari qadim o‘tmishga borib taqaladi. Yozma manbalarda "jirov" yoki "qo‘biz" haqida ma‘lumotlar ilk bor XI asrda yozilgan turk tilshunosligida shox asar hisoblanmish M.Qoshg‘ariyning "Devonu - lug‘atit - turk" asarida uchraydi. So‘ngra, turkiy zabon shoirlar - Lutfiy, Xaydar Xorazmiy, Navoiy va boshqa asarlarda qayd etilgan. Yozma adabiyot rivojlanmagani uchun ko‘chmanchi xalqlarning XIV - XVIII asrlarda yashagan jirov - shoirlari haqida yozma manbalarda ma‘lumotlarga ega emasmiz.

Hozirda Qoraqalpog‘istonda jirovchilik san‘atining ikki ijrochilik maktabi mavjud. Ularning bir Qoraqalpog‘istonning janubiy rayonlari bo‘lgan Xo‘jayli, Shumanoy, Qonli ko‘l, Qo‘ng‘irot rayonlarida tarqalgan. Bu - Nurabilla jirov maktabidir.

Ikkinchisi esa Yerpola‘t jirov maktabi. U Qoraqalpog‘istonning shimoliy rayonlari - Kegeyli, Chimboy, Qorauzak, Taxtako‘pir va boshqa rayonlarda faoliyat ko‘rsatadi.

Qoraqalpoq jirovlari nafaqat Qoraqalpog‘iston aymog‘ida, balki Xorazm, Turkmaniston va Buxoro viloyatlarida ham to‘ylarda bayramlarda ishtirok etishgan.

Tayanch so‘zlar: Qoraqalpoq xalq jirovlari, jirovchilik san‘ati, dostonlari

Nazorat savollari:

1. Qaysi qoraqalpoq xalq dostonlarini bilasiz?
2. Qoraqalpoq xalq dostonlarining o‘ziga xosligi nima deb o‘ylaysiz?
3. Qoraqalpoq xalq jirovchilik san‘ati haqida so‘zlab bering.
4. Mashhur qoraqalpoq xalq jirovlaridan kimlarni bilasiz?
5. Qoraqalpoq madaniyatida ayol baxshilar ijodining o‘rni qanday?
6. To‘lg‘au nima?
7. Termaning to‘lg‘audan farqi nimada?

Mustaqil ishlash uchun mavzular

- Markaziy Osiyo xalqlari milliy musiqasini to‘plash va o‘rganish tarixidan
- V.A.Uspenskiy, A.V.Zatayevich, V.Vinogradovlar faoliyati
- Qozoq xalq qo‘shiqchilik ijodiyoti
- Qozoq xalq cholg‘u musiqasi
- Qozoq xalq aqinlari ijodi
- Qirg‘iz xalq musiqiy cholg‘ulari
- Qirg‘iz xalq marosim va nomarosim janrlari
- Qirg‘iz manaschilari faoliyati
- Manas eposi xususida
- Tojik xalq musiqa an‘analari
- Pomir tojiklarining musiqa merosi
- Turkman xalq qo‘shiqchilik ijodiyoti
- Turkman musiqiy cholg‘ulari
- Turkman dostonchilik maktablari
- Uyg‘ur xalq musiqa an‘analari
- Uyg‘ur muqomlari
- Uyg‘ur musiqiy cholg‘ulari
- Qoraqalpoq xalq marosim va nomarosim janrlari
- Qoraqalpoq xalq dostonlari
- Qoraqalpoq jirovchilik san‘ati

Testlar

1. "Folklor" atamasining ma'nosi:

Xalq haqida ta'limot
Oddiy xalq an'analari
Xalq urf-odatlar
Xalq musiqasi

2. Musiqiy folklor atamasi nechanchi asrda paydo bo'lgan?

XIX asrda
XX asrda
XXI asrda
XVIII asrda

3. Markaziy Osiyoda musiqiy merosni notaga tushirish ishlari qachon boshlangan?

XX asrda
XIX asrning birinchi yarmida
XIX asrning ikkinchi yarmida
XIX asrda

4. Musiqiy merosni notaga tushirish ishlarini kimlar boshlab bergan?

V. Uspenskiy, N. Mironov
A. Eyxgorn, F. Leysek
E. Romanovskaya, K. Olimboeva
V. Belyaev, A. Zataevich

5. 1932 yili V. Uspenskiy tomonidan qaysi turkum yozib olindi?

Xorazm maqomlari
Shashmaqom
Farg'ona- Toshkent maqomlari
Uyg'ur muqomlari

6. Qirg'iz xalq musiqasidagi "jomoq" atamasi qaysi janrga nisbatan qo'llaniladi?

Doston
Qo'shiq
Kuy
Badik

7."Shirildan" janridagi qo'shiqlar kimlar tomonidan ijro etilgan?

Ayollar
Otboqarlar
Ovchilar
Dehqonlar

8.Qirg'iz xalqining qaysi janrdagi asarlari dunyoga mashhur?

Epos
Lirik qo'shiqlar
Afsun aytilmlar
Mehnat qo'shiqlari

9.Qirg'iz xalqining sevimli janrlaridan biri, ayollar tomonidan ijro etiluvchi qo'shiq:

Shirildan
Jar-jar
Bekbekey
Op mayda

10.Qirg'iz xalqining kichik hajmdagi dostonlari kimlar tomonidan ijro etiladi?

Manaschi
Irchi
Jomoqchi
Aqin

11.Qirg'iz eposlari qaysi uslubda ijro etiladi?

Rechitativ uslubi
Badiha uslubi
Kantilena uslubi
Deklamatsiya uslubi

12. Manas eposi nechta asosiy qismdan iborat?

Uch qismdan: "Manas", "Semetey", "Seytek"
Ikki qismdan: "Manas", "Seytek"
Bir qismdan: "Manas"
To'rt qismdan: "Manas", "Semetey", "Seytek", "Kenen"

13.Qirg'iz xalq cholg'ulari nechta asosiy guruhga bo'linadi?

Torli, damli, urma, o'zi tovush chiqaruvchi (4ta)
Torli, damli (2ta)

Torli, damli, urma (3ta)
O'zi tovush chiqaruvchi (1ta)

14. Qozoq xalqining epik aytimi qanday ataladi?

Terme
Jir
Jeldirme
O'len

15. Qozoq xalqining eng mashhur cholg'usi:

Qo'biz
Do'mbira
Urma sozlar
Sibizg'i

16. Qozoq folklorining eng qadimgi aytilmlari:

Sinsu, qo'shtasu
Arbau, badik
Jo'qtau, zarlau
Jar-jar, janbirlig

17. Sust Xotin, Syuyt gazan aytilmlari qaysi marosimlarda ijro etiladi?

Oilaviy marosimlarda
Diniy marosimlarda
Mavsumiy marosimlarda
Mehnat jarayonida

18. Sanam qaysi xalq musiqiy janri?

O'zbek
Turkman
Tojik
Uyg'ur

19. Doston ijrochisi Qoraqalpoq xalqida qanday ataladi?

Jirov
Aqin
Baxshi
O'zon

20. O'zbek musiqa va xoreografiya instituti qayerda vaqachon tashkil etilgan?

1928 yili Toshkentda
1928 yili Samarqandda

1929 yili Buxoroda

1930yili Fargʻonada

21.Markaziy Osiyoda toʻy marosimi nechta asosiy bosqichga ajratiladi?

Ikki bosqich: sovchilik, nikoh marosimi

Bir bosqich: nikoh marosimi

Uch bosqich: sovchilik, fотиha toʻyi, nikoh marosimi

Toʻrt bosqich: sovchilik, fотиha toʻyi, nikoh marosimi, challar

22.Lola bayrami qoʻshiqlari nechanchi yili va kim tomonidan yozib olingan?

1925 yili V.Uspenskiy tomonidan

1925 yili A.Eyxgorn tomonidan

1928 yili N.Mironov tomonidan

1930 yili Ye.Romanovskaya tomonidan

23."Muzika uzbekov", "Obzor muzikalnix kultur uzbekov i drugix narodov Vostoka", "Pesni Buxari, Fergani i Xivi" kitoblarining muharriri kim?

V.Uspenskiy

K. Olimboeva

N.Mironov

F.Karomatov

24.Marosimlar va u bilan bogʻliq musiqiy janrlar qaysi xususiyatlariga koʻra guruhlariga boʻlinadi?

Mavzuiy, funksional va musiqiy- ijrochilik

Musiqiy -poetik

Funksional

Mavzuiy

25.Oilaviy-maishiy marosimlar nechta guruhga boʻlinadi?

5ta: farzand tugʻilishi bilan bogʻliq marosimlar; bolalik davri bilan boʻliq marosimlar; toʻy marosimlari;oʻlim va motam marosimlari; maishiy hayotda qoʻllanib kelingan marosim va janrlar

4ta: farzand tugʻilishi bilan bogʻliq marosimlar; toʻy marosimlari; motam marosimlari; maishiy hayotda qoʻllanib kelingan marosim va janrlar

3ta: bolalik davri bilan bogʻliq marosimlar; toʻy marosimlari;oʻlim va motam marosimlari

2ta: toʻy marosimlari;oʻlim va motam marosimlari

26.Mavsumiy marosimlar va ular bilan bog‘liq musiqiy janrlar nechta guruhga bo‘linadi?

2ta: faqat mavsum bilan bog‘liq marosim musiqiy janrlari; mavsumiy mehnat, xo‘jalik yuritish tarzi bilan bog‘liq marosim va musiqiy janrlar

3ta: faqat mavsum bilan bog‘liq marosim musiqiy janrlari; mavsumiy mehnat, xo‘jalik yuritish tarzi bilan bog‘liq marosim va musiqiy janrlar; ramazon oyi bilan bog‘liq marosim va janrlar

1ta: ramazon oyi bilan bog‘liq marosim va janrlar

4ta: faqat mavsum bilan bog‘liq marosim musiqiy janrlari; mavsumiy mehnat, xo‘jalik yuritish tarzi bilan bog‘liq marosim va musiqiy janrlar; ramazon oyi bilan bog‘liq marosim va janrlar; mehnat bilan bog‘liq marosim va janrlar

27."Boychechak", "Laylak keldi", "Chitti gul" qo‘shiqlari kimlar tomonidan ijro etiladi?

Ayollar va erkaklar

Bolalar

Ayollar

Bolalar, erkaklar, ayollar

28.Dehqonchilik qo‘shiqlari guruhiga qaysi aytimlar misol bo‘la oladi?

"Kelin salom", "Yor-yor"

"Shox moylar", "Shamol to‘xtatish aytimi"

"Boychechak", "Laylak keldi"

"Qo‘sh haydash", "Ho‘p mayda"

29.Yig‘i janr sifatida hozir bo‘lishi qaysi marosimlar bilan bog‘liq?

Motam marosimi

Qiz uzatish marosimi

Farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq marosimlar

Yomg‘ir chaqirish marosimi

30.Musiqiy folklor namunalari xalq hayotida tutgan o‘rni va bajarayotgan vazifalariga ko‘ra nechta guruhga taqsimlanadi?

1ta: ijro etilishi turli vaziyatlar bilan shartlangan kuy- qo‘shiqlar

2ta: ijro etilishi turli vaziyatlar bilan shartlangan kuy- qo‘shiqlar; "Erkin mavzuli" kuy- qo‘shiqlar

3ta: ijro etilishi turli vaziyatlar bilan shartlangan kuy-

qo'shiqlar; "Erkin mavzuli" kuy- qo'shiqlar; tabiat bilan bog'liq bo'lgan kuy- qo'shiqlar

4ta: ijro etilishi turli vaziyatlar bilan shartlangan kuy- qo'shiqlar; "Erkin mavzuli" kuy- qo'shiqlar; tabiat bilan bog'liq bo'lgan kuy- qo'shiqlar, bolalar o'yinlari bilan bog'liq bo'lgan kuy- qo'shiqlar

31. Sumalak qaysi bayram yoki marosim bilan bog'liq holda pishiriladi?

Bahorgi Navro'z bayrami
Bahorgi Yomg'ir chaqirish marosimi
Kuzdagi Shamol chaqirish marosimi
Qishdagi Gap-gashtak marosimi

32. "Choy momo" marosimi qaysi faslda o'tkaziladi?

Bahorda
Kuzda
Yozda
Qishda

33. Qirg'iz xalqiga oid dastlabki ma'lumotlar qaerda yozilgan?

Qadimgi g'orlar devoridagi yozuvlarda
Xitoy yilnomalarida
"Avesto" kitobida
Qadimgi Yunon tarixiy yilnomalarida

34. "To'kpe" va "SHertpe" uslublari qaysi xalqning ijrochilik amaliyotida qo'llaniladi?

Qozoq xalqining do'mbira ijrochiligida
Turkman xalqining ijrochilik amaliyotida
Qirg'iz xalqining qobuz ijrochiligida
Qoraqalpoq xalqining ijrochilik amaliyotida

35. Qozoq cholg'u kuyi bo'lmish "Aqsaq qulan" nechanchi asrda ijod qilingan?

XI asrda
XII asrda
XIII asrda
XIV asrda

36. "Qiz- Jibek", "Qo'zi Ko'rpeshe" va "Bayan-Sulu" qaysi toifadagi dostonlar guruhiga kiritiladi?

Qahramonlik dostonlari
Ijtimoiy- maishiy dostonlar
Tarixiy dostonlar
Muhabbat mavzusidagi dostonlar

37. Qozoq aqinlari asosan qaysi janrlarda ijod qilganlar?

Panegirik aytimlar- "Maqtau", "To'lg'au"
Dostonlar
Lirik qo'shiqlar
Marosim aytimlari

38. Qirg'iz xalqining mehnat qo'shiqlari taxminan qaysi davrda vujudga kelgan?

Qadimgi paleolit davri
Neolit davri
Mezolit davri
Bronza davri

39. Qirg'iz cho'pon qo'shig'ining qadimgi turi qanday nomlanadi?

"Bekbekey"
"Shirildan"
"Op mayda"
"Seketbay"

40. Qil qiyoq qanday cholg'u?

Uch torli cholg'u
Damli cholg'u
An'anaviy torli-kamonli cholg'u
Chertma cholg'u

41. Erkin mavzuli kuy-qo'shiqlar guruhini qaysi janrlar tashkil etadi?

Munojot, Alla
Chorvachilik qo'shiqlari
Qo'shiq, terma, lapar, yalla
Hunarmandchilik qo'shiqlari

42. Yalla-ko'p xususiyatlari, jumladan, raqsbopligi, raqsning qo'llanishi, ijroda ko'pchilikning ishtirok etishi kabi jihatlari bilan quyidagi qaysi janrga yaqin?

Lapar
Qo'shiq

Ashula
Cholgʻu kuy

43.Lapar nechta ijrochi tomonidan aytiladi?

1ta
4ta
Zta
2ta

44.Tojikistonning togʻli hududlarida qoʻllaniluvchi cholgʻular:

Gʻijjak, pomir rubobi, tutuq, qoʻshnay
Nay, surnay, karnay
Dutor, rubob, tanbur
Chang, qayroq, nogʻora

45."Alas", "Chaqmoq", "Badik"qanday marosimlar?

Mavsumiy marosimlar
Davolash marosimlari
Oilaviy marosimlar
Diniy marosimlar

46.Doston soʻzi qaysi maʼnolarda ishlatiladi?

Qissa, hikoya, sarguzasht, taʼrif, maqtov
Bayon etish, hikoya qilish
Olqishlov, maqtov
Taʼriflash

47.Xorazmda baxshilar dostonlarni qaysi cholgʻu joʻrligida ijro etadilar?

Tanbur
Dutor
Doʻmbira
Urma sozlar

48.Surxandaryo va Qashqadaryoda baxshilar qaysi nom bilan yuritiladi?

Yuzboshi
Sanovchi
Soxi
Sozanda

49.Qadimda Ayol ilohi nimaning ramzi hisoblangan?

Muhabbat ramzi
Oila ramzi

Serhosillik ramzi
Xotirjamlik ramzi

50. Qadimgi og‘zaki ijod shakllaridan biri:

Afsona
Doston
Qasida
Raqs

51. "Ilon o‘yini", "Ximmil", "Heshelle" o‘yin-qo‘shiqlari qaysi xalqqa tegishli?

Uyg‘ur
O‘zbek
Turkman
Qozoq

52. Turkmanlarning "Agi" aytimlari qaysi marosimlar bilan bog‘liq?

Dafn marosimi
Diniy marosim
Mavsumiy marosim
Davolash marosimi

53. Dilli tuyduk nima?

Puflama cholg‘u
Torli cholg‘u
Urma cholg‘u
Bolalar cholg‘usi

54. Turkmanlarning afsun-jodu marosimlarida qaysi cholg‘ular qo‘llanilgan?

Dilli tuyduk, gargi tuyduk
Jang, duvme, xizlavuq
Dep, girjek, dutar
Tuyduk, girjek, dutar

55. Turkman baxshilar san‘atida nechta mahalliy maktab qaror topgan?

2ta: mari, axal
3ta: mari, axal, balkan
4ta: mari, axal, balkan, chorjo‘y
5ta: mari, axal, balkan, chorjo‘y, tashovuz

56. Turkmanlarning ishqiy-lirik yoʻnalishdagi dostonlari qaysilar?

"Sayatli-Xemra", "Gul Sanber"
"Goʻroʻgʻli", "Nejep oʻgʻlan"
"Xyurluga-Xemra", "Nejep oʻgʻlan"
"Gul Sanber", "Goʻroʻgʻli"

57. Qoʻbiz qanday cholgʻu?

Torli- chertma cholgʻu
Torli- kamonli cholgʻu
Misdan yasalgan puflama cholgʻu
Urma cholgʻu

58. Bulamon cholgʻusi qaysi hududda ishlatiladi?

Xorazmda
Fargʻonada
Buxoroda
Qozogʻistonda

59. Karnay qaysi metallardan yasaladi?

Temirdan
Misdan
Alyuminiydan
Kumushdan

60. Nogʻora nimadan yasaladi?

Temirdan
Yogʻochdan
Loydan
Suyakdan

61. Safoil cholgʻusining koʻrinishi qanday?

Toʻrtta yapaloq va siliq toshdan iborat
Loydan tuvaksimon shaklda yasalgan
Dumaloq kosali va uzun dastali cholgʻu
Ikkita dumaloq tayoqcha va ularga osilgan katta- kichik temir
xalqalardan iborat zarbli soz

62. Lapar janrida yetakchi mavzu qaysi?

Sevgi- muhabbat mavzulari
Hazil- mutoyiba mavzulari
Qahramonlik mavzulari
Tabiat bilan bogʻliq mavzular

63.Uyg‘ur kasbiy musiqa janrlari:

Muqom, doston, noxsho, sanam

Maqom, doston, katta ashula

Saltiklar, mukamlar

Qo‘shiq, doston

64.Afsonalarga ko‘ra, qo‘buz cholg‘usi kim tomonidan yaratilgan?

Ovchi Qambar

Qo‘rqit ota

Sipira jirov

Umay ilohi

65.Qoraqalpoq jirovlari ijodiyotida qaysi janrlar birlamchi?

Doston, o‘len

Doston, to‘lg‘ov, terma

Doston, jeldirme

Doston, zarlau

66.Qoraqalpoq to‘lg‘ovlari nechta guruhga bo‘linadi?

3ta: umumiy to‘lg‘ovlar; tarixiy to‘lg‘ovlar; muallifi saqlangan to‘lg‘ovlar

2ta: muhabbat mvzusidagi to‘lg‘ovlar; qahramonlik mavzusidagi to‘lg‘ovlar

4ta: umumiy to‘lg‘ovlar; tarixiy to‘lg‘ovlar; muallifi saqlangan to‘lg‘ovlar; muhabbat mvzusidagi to‘lg‘ovlar

1ta: muhabbat mvzusidagi to‘lg‘ovlar

67.Xalqimiz diniy e‘tiqodi bilan bog‘liq kuy-ohanglar qanday tasniflanadi?

Darvishlarning zikr tushish marosimlari; "Ramazon" aytish

Diniy marosim kuy-aytimlari; diniy mavzuli kuy-aytimlar

Yassaviyxonlik an‘anasi; "Ramazon" aytish

Mashrabxonlik an‘anasi; Yassaviyxonlik an‘anasi

68.Marsiya nima?

Motam qo‘shig‘i

Motam marosimi

Dafn etish

Diniy marosim

69."Choy momo" marosim qo‘shig‘i nima uchun ijro etiladi?

Yomg'ir chaqirish uchun
Shamol chaqirish uchun
Shamol to'xtatish uchun
Yomg'ir to'xtatish uchun

70. "Dehqonnoma" epik qo'shig'i qayerda keng rivojlangan?

Pomirda
Turkmanistonda
Qashqadaryoda
Qirg'izistonda

71. Markaziy Osiyo xalqlarining mavsumiy marosimlari nimalar bilan bog'liq holda o'tkaziladi?

Fasllar almashinuvi bilan bog'liq holda
Fasllar almashinuvi bilan bog'liq mehnat jarayonlari
Tabiat xodisalari bilan bog'liq holda
Mehnat jarayonlari bilan bog'liq holda

72. "Xo'sh- xo'sh", "turey- turey", "churey- churey" aytilarlari qaysi payt ijro etiladi?

Don yanchish paytida
Ekin o'rish paytida
Hayvonlarni sog'ish paytida
Ekin ekish paytida

73. Muqomboshi nima?

Uyg'ur muqomining bosh qismi bo'lib, u badiha shaklida bir tambur jo'rligida ijro qilinadi

Uyg'ur muqomining bosh qismi bo'lib, u badiha shaklida bir dutor jo'rligida ijro qilinadi

Uyg'ur muqomining bir qismi bo'lib, u badiha shaklida jo'rsozsiz ijro qilinadi

Uyqur muqomining bir qismi

74. Uyg'ur doston ijrochiligi xududiy nechta uslubga ajratiladi?

2ta: sharq uslub (Qumul- Turpon); shimol uslub (Ili viloyati)
1ta: janub uslub (Qashqar, Xo'tan, Yorkend, Kuchor, Oqsu, Ko'rlo)
3ta: sharq uslub (Qumul- Turpon); shimol uslub (Ili viloyati);
janub uslub (Qashqar, Xo'tan, Yorkend, Kuchor, Oqsu, Ko'rlo)
4ta: sharq uslub (Qumul- Turpon); shimol uslub (Ili viloyati); janub uslub (Qashqar, Xo'tan, Yorkend, Kuchor, Oqsu, Ko'rlo); g'arbiy uslub

75. Ili viloyati dostonlari asosan:

Lirik mavzuli
Qahramonlik mavzusida
Tarixiy mavzuli
Turli mavzuli

76. "Chushirgi" atamasining ma'nosi:

Noxshoning bosh qismi
Tushish, qaytish
Noxshoning o'rta qismi
Noxshoning avji

77. Zikr tushish marosimi qaysi din bilan bog'liq?

Islom dini
Xristian dini
Buddaviylik dini
Dastlabki din shakllari

78. Uyg'ur dostonining kuy qismi qanday ataladi?

Hikoya
G'azal
Nasr
Navo

79. Qadimgi qirg'iz xalq afsonalaridagi uy va bolalar qo'riqchisi:

Ambar ona
Bibi Seshanba
Umay
Yuvxa

80. Shomonchilik nima?

Qadimiy diniy shakl va sinkretik san'at bo'lib, o'zida diniy va estetik funktsiyalarni birlashtirgan

Qadimiy diniy shakl
Qadimiy sinkretik san'at
Qadimiy davolash uslubi

81. To'qto'g'ul Satilg'anov kim?

Qirg'iz aqini
Qoraqalpoq jirovi
Qozoq jirchisi
Turkman baxshisi

82."Juk- juk", "Xyulemek" atamallari nimani anglatadi?

Cholg'us ijrochiligida qo'llaniladigan usullar

Ovoz ishlatishning maxsus usullari

Lirik qo'shiq kuylash usullari

Doston ijrochiligida qo'llaniladigan usullar

83.Dilli tuyduk nimadan yasaladi?

Qamish

Metall

Suyak

Yog'och

84.Asa-tayaq - nima va undan kimlar foydalangan?

Qozoq cholg'usi. Jirovlar foydalanishgan

Yog'och xassa bo'lib, unga tovush chiqaruvchi moslamalar o'rnatilgan. Qirg'iz darveshlari ko'tarib yurganlar

Uy hayvonining bo'yniga osib qo'yiladigan moslama

Eshikka ilib qo'yiladigan moslama

85.Qirgiz urma sozlari:

Dobulbash, do'ol, qarsildoq

Daulpaz

Doira, nog'ora

Tavlak, qayroq

86.San'atchi- ayollardan tashkil topgan "sozandalar" nomli ijodiy guruhlar faoliyati O'zbekistonning qaysi hududida keng rivojlangan?

Buxoro-Samarqand

Surxondaryo- Qashqadaryo

Toshkent- Farg'ona

Xorazm

87."Mavrigi" janri qaerda rivojlangan?

Samarqandda

Buxoroda

Toshkentda

Xorazmda

88.Kavkaz xalqlarining "tor" nomli cholg'usi dastlab O'zbekistonning qaysi hududida qo'llanila boshlandi?

Surxondaryoda

Farg'onada

Xorazmda
Buxoroda

89. Surxondaryo va Qashqadaryo vohalarida keng tarqalgan dostonlar:

"Oshiq Gʻarib va Shoxsanam", "Yusuf va Zulayho"
"Avazxon", "Boziyon"
"Xirmondali", "Alpomish"
"Alpomish", "Avazxon", "Rustamxon", "Goʻr oʻgʻli"

90. Musiqiy lad-parda nima?

Tayanch pardaga ega boʻlgan tovushlar majmuasi
Tayanch pardaga ega boʻlmagan tovushlar majmuasi
Maʼlum - kuy ohanglarni yuzaga keltiruvchi tovushlar majmuasi

Aytmning tayanch pardasiga nisbatan oʻzaro uyushib kelgan va maʼlum kuy- ohanglarini yuzaga keltirishga qaratilgan muayyan tartibli tovushlar majmuasi

91. Qirgʻiz xalq ijodiyotida qaysi mavzular keng rivojlantirilgan?

"Olatov" va "Yaylov" mavzulari
Hayvonlarga bagʻishlangan mavzular
"Vatan" mavzusi
Ilohlarga bagʻishlangan mavzular

92. "Yovvoyi" yoki "patnisaki maqom" ashulalari qaysi hudud madaniyatiga xos?

Xorazm hududi
Qashqadaryo- Surxondaryo hududi
Toshkent- Fargʻona hududi
Buxoro- Samarqand hududi

93. "Munajat", "Choʻli Iroq", "Navroʻzi Ajam" qaysi janrdagi asarlar?

Cholgʻu kuy
Katta ashula
Ashula
Qoʻshiq

94. Katta ashula qanday tarzda ijro etiladi?

Bir xonanda tomonidan cholgʻu joʻrligida ijro etiladi
Ikki yoki uch xonandalar tomonidan cholgʻu joʻrligisiz ijro etiladi

Ikki xonanda tomonidan cholgʻu joʻrligida ijro etiladi
Besh xonanda tomonidan ijro etiladi

95. Ayritom toshtaxtasida qaysi cholgʻular aks ettirilgan?

Chang, nogʻora, dutor, rubob
Arfa, lyutnya, baraban, avlos, likobchalar
Qoʻbiz, sibizgʻi, doʻmbira, dobulbash
Tuyduk, girjek, dutor, doyra

96. "Oʻrta Osiyo antik davri" qaysi asrlarga toʻgʻri keladi?

Er.av.VI- er.I asrlari
Er.av.IV- er.II asrlari
Er.av.IV- er.III asrlari
Er.av.V- er.IV asrlari

97. Terma nima?

Musiqiy folklor janri
Aytimning bir turi, "yigʻmoq", "tanlamoq" maʼnolarini
anglatadi

Ikki ijrochi tomonidan aytiladigan qoʻshiq
Raqs bilan ijro etiladigan qoʻshiq

98. Oʻzbek xalq termalari nechta koʻrinishga ega?

1ta: baxshi termalari
2ta: baxshi termalari, xalq termalari
3ta: baxshi termalari, xalq termalari, bolalar termalari
4ta: baxshi termalari, xalq termalari, bolalar termalari, turli
mavzuli termalar

99. "Raqsiiy aytim" iborasi qaysi janrga nisbatan qoʻllaniladi?

Yalla
Lapar
Qoʻshiq
Terma

100. "Yor-yor" qoʻshigʻi qachon ijro etiladi?

Kelin kuyovning uyigi uzatib olib ketilayotganda
"Quda tushish" marosimida
Qizning uyiga sovchilikka borilganda
"Yuz ochdi" marosimida

GLOSSARIY

- Aydar kel** - shamolni afsun qilish.
Aytim kuluur - o'ynoqi-virtuoz cholg'u kuylari.
Aytish - aqinlarning yirik she'r-qo'shiq musobaqasi.
Akiyneq - hajviy ayollar yoki bolalar aytishuv-qo'shig'i.
Aqin - **xalq**-professional xonandasi va shoir-badihago'yi.
Arman - lirik qo'shiq janri.
Arnou iri - aqinlarning bag'ishlov qo'shig'i.
Asa-musa (asa-tayaq) - aso tayoq, o'zi sadolanuvchi cholg'u.
Asiqtiq jirlari - ishqiy-lirik qo'shiqlar.
Batirlar jiri - qahramonona-tarixiy qo'shiqlar.
Badik aytuu - baxshilarning davolovchi aytimi.
Baqshi - qirg'iz shamani.
Baqshi iri - baxshi aytimi.
Baldar iri - bolalar qo'shiqlari
Bekbekey - ayollar mehnat qo'shig'i.
Betashar - kelin salom aytimi.
Besik jiri - alla qo'shig'i.
Dambir tas - yomg'ir chaqirish marosim qo'shig'i.
Duvme - ayollar va bolalarning kiyimiga, belanchakka taqib qo'yiladigan qo'ng'iroqchalardir.
Dastan - she'riy hikoya, kichik epos.
Dildirek - o'zi sadolanuvchi musiqiy cholg'u.
Dobulbas - zarbli musiqiy cholg'u.
Jomoqchi - kichik aqin aytimlari va xalq qo'shiqlarini ijro etuvchi badihago'y-xonanda .
Jaramazan - "Ramazon" qo'shig'i.
Jar-jar - to'y marosim qo'shig'i.
Jeznay- damli musiqiy cholg'u.
Jang - xajman uncha katta bo'lmagan qo'ng'iroqcha bo'lib, "haydovchi" vazifasini bajaradi. Qo'ng'iroqcha karvonning boshida yoki oxirida ketayotgan tuyaning bo'yniga osib qo'yilgan.
Joqtau-yig'i aytimi
Jomoq- ertak yoki afsona.
Jomoqchu - ertakchi.
Zikir - musiqiy-she'riy diniy marosim janri.

Qambarqan - qomuz uchun musiqa janri; Qomuz ixtirochisining nomi.
Qarsildaq - zarbli musiqiy cholg'u.
Kerney - damli (shoxliyokimetall) musiqiy cholg'u.
Qomuz - uch torli chertma cholg'u.
Qutuqtoo iri - aqinlarning tabrik qo'shig'i.
Quduul - qiziqchi, hajviy qo'shiqlar ijrochisi.
Kuygen - lirik qo'shiq janri.
Qizdar irlari - qizlar qo'shig'i.
Qil qiyaq (qiyag) - ikkitorlikamonlicholg'u.
Maqtau - aqinlarning madh etuvchi qo'shiqlari, "Maqtov".
Manaschi - katta epos "Manas" ijrochisi.
Nasiyat iri - aqinlarning nasihat qo'shig'i.
Op mayda - "Ho'p mayda" mehnat qo'shig'i.
Salamdashuu - aqinlarning salomlashuv qo'shig'i, yakkaxon va aytishuv janri.
Seytekchi - "Manas" eposining uchinchi qismi "Seytek" ijrochisi.
Seketbay - ishqiy-lirik qo'shiq janri.
Selkinchek - "arg'mchoq" - yoshlar o'yin-qo'shiq janri.
Semeteychi - "Manas" eposining ikkinchi qismi "Semetey" ijrochisi.
Surnay - yog'och damli cholg'u.
Sibizg'i - damli musiqiy cholg'u.
Temir qomuz - metallardan yasalgan damli cholg'u.
Terme - aqinlarning musiqiy-she'riy improvizatsiyasi.
Toy bastar - to'y marosim qo'shig'i.
Choor - yog'och yoki mis davli musiqiy cholg'u.
Choorchu - choor ijrochisi.
Chopo choor - loy yoki sopoldan yasalgan damli cholg'u.
Shayir (el shayiri) - og'zaki an'anadagi kasbiy musiqiy-she'riy san'at namoyandasi.
Shaldiraq - o'zi sadolanuvchi musiqiy cholg'u.
Shirildan - otboqar qo'shig'i.
Dap - membronofon guruhiga kiritiladi. Tut daraxtidan tayyorlangan obruchga qo'y terisidan membrana tortiladi. Ikkinchi tomoniga metall shaqildoqlar taqiladi.
Tevilvaz - qozon shaklidagi qizil misdan tayyorlangan korpusga ho'kiz terisidan membrana tortiladi.

Nag'ra - uning korpusi (chugun)dan qozon shaklida tayyorlanadi. Unga ho'kiz terisidan membrana tortiladi. Bu cholg'uning turlari ko'p: bosh nag'ra, ottura nag'ra, ayaq nag'ra.

Dumbak - bu cholg'u qozon shaklida tayyorlanadi, membrana sifatida ho'kiz terisi qoplanadi. Dumbakning ham turlari mavjud: harbiy (jang dumbak), oddiy dumbak.

Sapay - bambuk yoki dub yog'ochidan tayyorlanadi. Ikki tayoqcha ko'rinishiga ega. Tayoqchalarning yuqori qismiga metall shaqildoqlar o'rnatiladi.

Juptash - ikkita silliqlangan tosh bog'ichlar yordamida biriktiriladi. Bir - biriga urib tovush chiqariladi.

Qashuq - dub daraxti yog'ochidan tayyorlanadi.

Chaq - chuq - dub yog'ochidanyasalgan va silliqlangan ikkita brusok o'zaro bog'ichlar yordamida biriktiriladi.

Chaqcha - hayvon suyaklaridan tayyorlangan va silliqlangan brusoklar o'zaro bog'ichlar yordamida biriktirilgan.

Shaldiroq - tovush chiqaruvchi tayoq bo'lib, uni devona va darveshlar "ins-jins"larni haydash maqsadida qo'llaganlar.

Adabiyotlar ro'yxati

1. История музыки народов Средней Азии и Казахстана. М., 1994.
2. Вызго Т.С. Музыкальные инструменты Средней Азии М., 1980.
3. Беляев В. Очерки по истории и музыки народов СССР, т.1. М., 1962.
4. Миронов Н.Н. Обзор музыкальных культур узбеков и других народов востока. Самарканд. 1931 г.
5. Абдуллаев Р.С. Обрядовая музыка Центральной Азии. Ташкент. 1994.
6. Успенский В., Беляев В. Туркменская музыка. Москва. 1928.
7. Пеккер Я. В.А. Успенский. Ташкент. 1959.
8. Гуллиев Ч. Туркменская музыка (наследие). Алматы. 2003.
9. Мирзаев Т. Эпос и сказитель. Ташкент. 2008.
10. Адамбаева Т. Революция гашекемги Қарақалпақ музыкаси. Нукус, 1976.
11. Азимова А.Н. Звуковой мир каракалпаков. Ташкент, 2008.
12. Алпамис (достондан парчалар). Тошкент, 1999.
13. Айимбетов Қ. Халқ даналиғи. Нукус, 1988.
14. Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. Л.-М., 1974 г.
15. Жырау намалари (топлам). Нукус, 1991.
16. История Каракалпакской АССР (С древнейших времен до наших дней). Ташкент, 1986.
17. История Каракалпакской литературы (С древнейших времен до 1917 г.). Ташкент, 1994.
18. Каракалпакские народные песни. М., 1959.
19. Qaraqalpaq xalq namalari (Kirish sozi) // O'zbek xalq muzikasi. VIII tom. Toshkent, 1959. 407 b.
20. Qurbonov X. Qoraqalpoq ijrochilik san'atining musiqiy xususiyatlari. Diplom ishi. 1998. O'zDK kutubxonasi.
21. Караматов Ф., Нурджанов Н. Музыкальное искусство Памира. М., 1978

22. Аманов Б., Мухамбетова А. Казахская традиционная музыка и XX век. Алматы. "Дайк Пресс" 2002.
23. Ерзакович Б.Г. Музыкальное наследие казахского народа. Алма-Ата. 1979.
24. Байгаскина А. Эволюция стихотворных размеров и логика развития музыкальной формы казахской народной песни. Проблемы музыкального фольклора народов СССР. Москва. 1973.
25. Затаевич А. В. Киргизские инструментальные пьесы и напевы. Москва, 1971.
26. Эйхгорн А. Музыкальная фольклористика в Узбекистане. Музыкально-этнографические материалы. Ташкент, 1963.
27. Виноградов В. Киргизская народная музыка. Киргизгосиздат, 1958.
28. Дюшалиев К, Лузанова Е. Киргизское народное творчество. Бишкек, 1999.
29. Кадырбаев А. Ш. Очерки истории средневековых уйгуров, джалаириров, найманов и киреитов. - Алматы: "Рауан", "Демеу". 1993-168 с.
30. Кызласов Л. Р. Северное манихейство и его роль в культурном развитии народов Сибири и Центральной Азии // Открытие государственной религии древних хакасов. - Москва-Абакан, 1999.
31. Литвинский Б. А. Исторические судьбы Восточного Туркестана и Средней Азии (проблемы этнокультурной общности) // Восточный Туркестан и Средняя Азия. История. Культура. Связи. - М., 1984.
32. Литвинский Б. А., Пичикяп И.Р. Пещерная культовая архитектура Восточного Туркестана // Восточный Туркестан и Средняя Азия в системе культур древнего и средневекового Востока.-М., 1986.
33. Молов С. Е. Уйгурские рукописные документы экспедиции С. Ф. Ольденбурга // Записки Института востоковедения Академии наук СССР. - Л., 1932. - Вып. 1.
34. Малое С. Е. Памятники древне тюркской письменности. Тексты и исследования. - М.-Л., 1951.

MUNDARIJA

MUALLIFDAN.....	3
KIRISH.....	4
1-mavzu. Markaziy Osiyo xalqlari musiqa ijodini to‘plash va o‘rganish tarixidan.....	7
2-mavzu: Qozoq xalq musiqa an‘analari. Marosim va nomarosim janrlari.....	15
3-Mavzu: Qozoq xalq qo‘shiqchilik san‘ati. O‘len va aytishuvlari. Milliy cholg‘ulari va cholg‘u kuylari.....	18
4-mavzu: Qozoq jirovchilik san‘ati. Doston va termalari.....	27
5-mavzu: Qir‘iz xalq musiqa an‘analari. Marosim va nomarosim janrlari.....	31
6-mavzu: Qirg‘iz aqinlari ijodi. Manaschilar faoliyati.....	56
7-mavzu: Qirg‘iz milliy sozlari va cholg‘u kuylari.....	65
8-mavzu: Tojik xalq musiqa an‘analari. Marosim va nomarosim janrlari. Tojik xalq dostonchiligi.....	74
9-mavzu: Pomir tojiklarining musiqa merosi. Musiqiy sozlari.....	81
10-mavzu: Turkman xalq musiqa an‘analari. Musiqiy cholg‘ulari.....	86
11-mavzu: Turkman xalq qo‘shiqchiligi. Marosim va nomarosim janrlari.....	97
12-mavzu: Doston janri, ijrochilik maktablari. Sozandalik san‘ati.....	108
13-mavzu: Uyg‘ur xalq musiqa an‘analari. Milliy raqslari, cholg‘ulari.....	118
14-mavzu: Uyg‘ur xalq musiqa an‘analari. Muqomlari, dostonlari.....	127
15-mavzu: Qoraqalpoq xalq musiqa an‘analari. Marosim va nomarosim janrlari.....	131
16-mavzu: Qoraqalpoq milliy cholg‘u kuylari. Sozlari.....	138
17-mavzu: Qoraqalpoq jirovchilik an‘analari. Dostonlari.....	143
Mustaqil ishlash uchun mavzular.....	159
Testlar.....	160
Glossariy.....	175
Adabiyotlar ro‘yxati.....	176

СОДЕРЖАНИЕ

ОТ АВТОРА.....	3
ВВЕДЕНИЕ.....	4
Тема №1. Из истории собрания и изучения музыкального творчества народов Центральной Азии.....	7
Тема №2. Музыкальные традиции казахского народа. Обрядовые и необрядовые жанры.....	15
Тема №3. Песенное искусство казахского народа. Национальные инструменты и инструментальные пьесы.....	18
Тема №4. Искусство казахских жирау. Дастаны и терме.....	27
Тема №5. Музыкальные традиции киргизского народа. Обрядовые и необрядовые жанры.....	31
Тема №6. Творчество киргизских акынов. Деятельность Манасчи.....	56
Тема №7. Киргизские народные инструменты и инструментальные пьесы.....	65
Тема №8. Музыкальные традиции таджикского народа. Обрядовые и необрядовые жанры. Таджикские народные дастаны.....	74
Тема №9. Музыкальное наследие памирских таджиков. Музыкальные инструменты.....	81
Тема №10. Музыкальные традиции туркменского народа. Музыкальные инструменты.....	86
Тема №11. Песенное творчество туркменского народа. Обрядовые и необрядовые жанры.....	97
Тема №12. Жанр дастан, исполнительские школы. Искусство исполнителей.....	108
Тема №13. Музыкальные традиции уйгурского народа. Национальные танцы, инструменты.....	118
Тема №14. Музыкальные традиции уйгурского народа. Мукамы и дастаны.....	127
Тема №15. Музыкальные традиции каракалпакского народа. Обрядовые и необрядовые жанры.....	131
Тема №16. Каракалпакские народные инструментальные пьесы. Инструменты.....	138
Тема №17. Традиции каракалпакских жирау. Дастаны.....	143
Темы для самостоятельной работы.....	159
Тесты.....	160
Глоссарий.....	175
Список литературы.....	176

CONTENT

FROM THE AUTHOR.....	3
INTRODUCTION.....	4
Topic №1. From the history of the collection and study of the musical creativity of the peoples of Central Asia.....	7
Topic №2. Musical traditions of the Kazakh people. Ritual and non-ritual genres.....	15
Topic №3. Song art of the Kazakh people. National instruments and instrumental pieces	18
Topic №4. The art of Kazakh zhyrau. Dastans and Terme.....	27
Topic №5. Musical traditions of the Kyrgyz people. Ritual and non-ritual genres.....	31
Topic №6. Creativity of the Kyrgyz akyns. Manaschi activities.....	56
Topic №7. Kyrgyz folk instruments and instrumental pieces.....	65
Topic №8. Musical traditions of the Tajik people. Ritual and non-ritual genres. Tajik folk dastans.....	74
Topic №9. Musical heritage of the Pamir Tajiks . Musical instrument.....	81
Topic №10. Musical traditions of the Turkmen people. Musical instruments	86
Topic №11. Song creativity of the Turkmen people.. Ritual and non-ritual genres.....	97
Topic №12. Genre dastan, performing schools. The Art of Performers	108
Topic №13 Musical traditions of the Uighur people. National dances, instruments.....	118
Topic №14. Musical traditions of the Uighur people. Mukams and dastans	127
Topic №15. Musical traditions of the Karakalpak people. Ritual and non-ritual genres	131
Topic №16. Karakalpak folk instrumental plays. Instruments ...	138
Topic №17. Traditions of Karakalpak zhyrau. Das.....	143
Topics for self-study	159
Test.....	160
Glossary	175
Bibliography.....	176

O‘ZBEK MUSIQASI

(XALQ MUSIQA IJODIYOTI)

(Oliy maxsus musiqa o‘quv yurtlari talabalari uchun)
60211500 - Cholg‘u ijrochiligi (turlari bo‘yicha)
Xalq cholg‘ulari uchun

DARSLIK

Muharrir V. Hidoyatova
Musahhih H. Xo‘jaeva
Texnik muharrir V. Demchenko
Kompyuterda tayyorlovchi N. Tolipova

Bosishga ruxsat etildi 24.02. 2023. Bichimi 60x84 1/8.
Times Tad garniturasini. Sharli b.t. 11,5.
Adadi 100 dona
"TIPOGRAFF" bosmaxonasida chop qilindi.
Toshkent, Beruniy ko'chasi 83 uy.

